

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Sh.M.Fayzullayeva., H.I.Azimova., G.R.Usmonova.



O‘ZBEK TILI
(O‘quv qo‘llanma)

Toshkent – 2011

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA
MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Sh.M.Fayzullayeva., H.I.Azimova., G.R.Usmonova.

“O‘ZBEK TILI”

O‘quv qo‘llanma

***O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan
litsenziya berilgan nashriyotlarda nashr
qilishga ruxsat berildi.***

Toshkent – 2011

Sh.M.Fayzullayeva., H.I.Azimova., G.R.Usmonova.
O‘zbek tili. O‘quv qo‘llanma T.: TDIU, 2011. - 131 bet

Mas’ul muharrir: f. f.n., dots. H.M. Qayumov
Taqrizchilar: O‘zMU f.f.d., prof Yo. Tojiyev
TDIU f.f.n., dots. M. Mallaboyev

O‘quv qo‘llanma “O‘zbek tili” fani bo‘yicha nofilologik OO‘Yu bakalavriatining barcha yo‘nalishdagi talabalariga mo‘ljallangan. Mazkur qo‘llanma kursning namunaviy dastur (2004) asosida tuzilgan va tilni chuqur o‘rganishga yo‘naltirilgan.

O‘quv qo‘llanma TDIU ilmiy Kengash majlisida muhokama qilingan va nashrga tavsiya etilgan. 6-yanvar 2011 - y. 20-sonli majlis bayonnomasi.

Ш.М.Файзуллаева, Х.И.Азимова, Г.Р.Усманова. «Ўзбек тили». Учебное пособие. – Ташкент: ТГЭУ, 2010, - 131 стр.

Ответственный редактор: к.ф.н., доц. Х.М. Қаюмов

Рецензенты: д.ф.н., проф. Ё. Тожиев
к.ф.н., доц. М. Маллабоев

«Ўзбек тили» - учебное пособие предназначено для студентов общих групп всех направлений бакалавриата нефилологических вузов. Содержание и структура учебного пособия направлены на совершенствования и активизацию устной и письменной речи студентов, на корректировку и углубления знаний по узбекскому языку.

Данный учебник составлен в соответствии с типовой программой (2004) курса.

Учебное пособие обсуждено научным советом ТГЭУ и рекомендовано к изданию. 6 января 2010 г., протокол № 20.

Sh.M.Fayzullayeva., H.I.Azimova., G.R.Usmonova.
“Uzbek language” Tashkent, TSUE. 2010, pages 131

Editor: p.h.d. Kayumov K. M,
Reviewers: associated prof. Tojiyev Y.
p.h.d. Mallaboyev M.

“Uzbek language” is a textbook written for the non - Uzbek students. The book describes in a specific way- speech sounds, grammar structure, exercises, texts and homeworks for independent work.

The is designed in concordance with standard-type programmer (2004) of the course and destined to Master Uzbek language deeply.

The book was Discussed and approved by TSUE board and it was recommended to be published on January 6, 2011. № 20

©. **Sh.M.Fayzullayeva., H.I.Azimova G.R.Usmonova. T.: TDIU, 2011-y.**

SO‘Z BOSHI

TDIU da “O‘zbek tili” fani O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi ijtimoiy majmuasining maxsus uslubshunoslik komissiyasi bayonnomasi va O‘zbekiston Respublikasi Oliy va O‘rta maxsus ta’lim vazirligi (2004-yil 17-avgust), Oliy o‘quv yurtlar ilmiy-uslubiy birlashmalarining faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengash Prezidiumining 2003- yil 15- fevraldagi majlisi qarori bilan tavsiya etilgan namunaviy dastur asosida o‘qitiladi.

“O‘zbek tili” kursi kelgusida filolog bo‘lmaydigan mutaxassislarning amaliy til bilish darajasini oshirishni, ega bo‘lgan yozma va og‘zaki nutq ko‘nikma va bilimlarini o‘zbek tili qo‘llanadigan har xil doiralarda qo‘llay olishlarini o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan.

Bu tilni o‘rganishning siyosiy ahamiyati shundaki, o‘zbek tili O‘zbekiston Respublikasining Davlat tilidir. O‘zbekistonda yashaydigan har bir fuqaro bu tilni bilishi zarur. Bu, birinchidan, mamlakatning tashqi olam oldida obro‘cini saqlash va uni oshirish uchun xizmat qilsa, ikkinchidan, bir necha tilni bilish dunyoda tinchlikni saqlash va mustahkamlash uchun yordam beradi. Shuningdek, mamlakatimiz va chet el korxonalari o‘rtasidagi savdo aloqalarining kengayishi, zamonaviy firmalar soni ko‘payib borgan sari bir necha tilni biladigan mutaxassislarga tobora zaruriyat osha borayotganligi, o‘zbek tilining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati yanada ortib borayotganligidan dalolat bermoqda. Shu bilan birga o‘zbek xalqi tarixi, madaniyati, san’ati bilan tanishish, talabalarning ma’naviyatini kengaytirish, ularning dunyoqarashini rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda 2011-2015 yillarda Oliy o‘quv yurtlarini rivojlantirish dasturi tayyorlanmoqda va ushbu hujjat yaqin vaqt ichida qabul qilinadi. Dasturdan ko‘zlang asosiy maqsad – oliy ta’lim muassasalarining moddiy – texnik bazasini yanada mustahkamlash, ularni zamonaviy o‘quv, laboratoriya va ilmiy uskunalar bilan jihozlash, pirovardida o‘quv dasturlarini takomillashtirish, tobora kuchayib borayotgan zamon talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlashda sifat jihatidan yangicha yondashuvlarni hayotga tqdbiq etishdan iboratdir.¹

¹ I.A.Karimov. Asosiy vazifamiz vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. – T.: O‘zbekiston. 2010. – 48-b.

¹ И.А.Каримов. Барча режа ва дастурларимиз Ватанимиз тараққиётини юксалтириш, халқимиз фаровонлигини оширишга хизмат қилади: 2010 йилда мамалакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш якунлари ва 2011 йилга мўлжалланган энг муҳим устувор йўналишларга бағишланган ЎзР Вазирлар Маҳкамасининг мажлисидаги маърузаси. – Т.: Ўзбекистон, 2011. – 48 б.

TIL –MA’NAVIYAT KO‘ZGUSI

(O‘zbek tilida nutq tovushlari.Urg‘u, ohang)

Tovush almashishi		Tovush tushishi	
Unlilar	Undoshlar	Unlilar	Undoshlar
son-sana ong-angla sayla-saylov o‘qi-o‘quv	yutuq-yutug‘i kurak -kuragi bilak-bilagi tilak-tilagi	shahar-shahri qorin-qorni burun-burni singil-singlisi o‘g‘il-o‘g‘li	men - mening past -pasay sust -susay

1-topshiriq. Matnni ifodali o‘qing. Gaplardagi ohang va urg‘uga e’tibor bering.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining 1989- yil 21- oktabrda bo‘lib o‘tgan sessiyasida o‘zbek tiliga “Davlat tili” maqomi berildi. Bu o‘zbek xalqining siyosiy va madaniy hayotida eng yirik voqea bo‘ldi. Bu quvonchli voqea har yili oktabr oyida butun mamlakatda keng nishonlanadi.

O‘zbek tili juda qadimiy til bo‘lib, VI-VII asrlardayoq bu tilda yirik asarlar yozilgan. Ahmad Yugnakiy, Mahmud Qoshg‘ariy, Yusuf Xos Hojib, Xorazmiy, Lutfiy, Alisher Navoiy kabi buyuk adiblar o‘z asarlari orqali ona tilimizning boyligini, ko‘rkamligini ochib berdilar. G‘azal mulkning sultoni Alisher Navoiy o‘zining “Majolisun- nafa’is”, “Muhokamatul-lug‘atayn” kabi asarlarida turkiy tilning kuch -qudratini, nafisligini namoyish qilgan.

Til har bir millatning dunyoda borligini ko‘rsatuvchi oynadir. Milliy tilni qanchalik asrasak, madaniyatimiz shuncha ravnaq topib yuksalib boradi. Dunyoda qanchadan - qancha odamlar yashaydi. Ularning o‘z Vatani, o‘z ona tili bor. O‘z tarixi, adabiy tilini bilmagan inson bo‘lmasa kerak.

2-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Величие языка

Великое чудо и великое богатство- речь людей. Умение созидать и говорить возвеличивают человека.

У каждого народа свой язык. Во множестве своём они, как берега, между которыми река не понимания. И вовсе были языки-мосты. Веками они устанавливаются по-разному.

Рассказывают, что почтенный визирь и поэт Алишер Навои как-то на самаркандском базаре увидел двух возбуждённо торговавшихся людей. Размахивая друг перед другом кулаками, они орали: один - «се», второй - «уч». Из толпы их подзадоривали: «Не уступай», - и все хохотали.

- Они сейчас же подерутся, нечестивые, - сказал Навои подошёл к спорщикам.

-О, вы, наивные неучи,- обратился он к ним на двух языках, - вы же говорите одно и то же.

Таджикское «се» и узбекское «уч» означают «три».

Не потому ли народы испокон веков стремились освоить язык друг друга, чтобы понимать друг друга, жить в мире и в дружбе.

3-topshiriq. Matndagi urgʻularga eʻtibor berib, ifodali oʻqing. Quyida berilgan savollarga javob bering.

“Sen” yaxshimi, “Siz?”

“Siz” ham chiqar suyaksiz tildan,
“Sen” ham chiqar suyaksiz tildan.
Bilgin farqin: “Siz” yedirsas asal,
Kelar kulfat “sen” degan tildan.

Ha, “siz” ham bir tildan chiqadi, “sen” ham... Ammo bu ikki soʻzning kishi ruhiyati va maʼnaviy kamolotiga taʼsiri bir-biridan keskin farq qiladi. Birinchisi, kishiga iliq kayfiyat bagʻishlasa, bahri-dilingizni ochsa, uni tildan qoʻymagan kishiga nisbatan mehr uygʻonib, hurmat-izzat paydo qilsa, ikkinchisi, yaʼni sensirashni eshitganda (ayniqsa, oʻzingdan kichikroq kishidan) oʻzgacha holatga tushasiz. Sensirash esa manmanlik, dimogʻdorlik, nodonlik alomatidir. Shu boisdan ham “Siz” rahmat keltirsa, “Sen” sirash har qanday kishida nafrat tuygʻusini uygʻotadi. Shuni ham aytish kerakki, odobda katta-kichik, ikir-chikir degan gap boʻlmaydi. Hamma narsa eʼtiborga olinmogʻi lozim. Hamma narsaga: yaxshi xulq, yaxshi odob, ibratli fazilatga yoshlikdan odatlanmoq kerak. Bir qaraganda, “sen” bilan “siz” ham kichik, koʻzga chalinmaganday tuyuladi-yu, ammo bu soʻzlar oʻzida chuqur maʼnoni anglatadi.

- 1) “Sen” yaxshimi, “Siz”?
- 2) O‘zidan kichikni “sen”, kattani “siz”lab gapirishga sizning munosabatingiz qanday ?
- 3) “Sen” yaxshimi, “Siz?” matnini so‘zlab bering.

4 – topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.

Til -ijtimoiy hodisa

Til insonga va jamiyatga xos bo‘lgan hodisadir. U insonlar orasidagi o‘zaro aloqa vositasi bo‘lgan bir quroldir. Til vositasida bir fikrni ifodalaydi, shuning uchun insonlar so‘zlashganda o‘z fikrlarini bildiradilar, fikr almashadilar. Shu bilan birga, so‘zlashuv orqali, fikr almashuv yo‘li bilan inson o‘z fikrini to‘ldiradi. Til fikr bilan chambarchas bog‘langan. Til ong qadar eskidir. Ong, fikr paydo bo‘lishi bilan til ham paydo bo‘lgan. Ammo ibtidoiy til tuzilishi tomonidan sodda, mazmun jihatdan murakkab bo‘lgan, fikr, tushuncha rivojlanishi, tabaqalanishi bilan til ham rivojlanadi, har bir tushunchani, fikrni ifodalash uchun ayrim so‘z, ibora va gaplar qo‘llana boshlaydi.

Til yagona tizimni tashkil etadi. Uning turli sohalari, tovushlari, so‘zlari, qo‘shimchalari, gap qurilishi bir-biri bilan uzviy bog‘lanadi. So‘z va tovushdagi o‘zgarish gap va qo‘shimchalardagi o‘zgarishga olib keladi.

Tarixda o‘z tovush tiliga ega bo‘lmagan birorta ham ibtidoiy jamoa bo‘lmagan.

Taxminiy hisoblarga ko‘ra, dunyoda 1300 ta xalq va elat bo‘lgani holda, 5000 ga yaqin til mavjud. Sudanda yashaydiganlar 117 tilda, Dog‘istonda 100 dan ortiq tilda so‘zlashadilar. Ayrim tillarda nihoyatda kam, masalan, kamasinlar- 200, qaragaslar- 600 kishi so‘zlashsa ham, ular o‘z tillarini ko‘z qorachig‘iday avaylaydilar, uning istiqboli uchun kurashadilar.

Xitoy aholisi – bir milliard ikki yuz million kishi bo‘lib, bu yerda ingliz, hind, ispan, rus, fransuz tillarida ham juda ko‘p kishilar so‘zlashadilar. Angliya, Amerika, Kanada xalqlari, asosan, ingliz tilida so‘zlashadilar. Meksika, Kuba, Chili kabi 20 dan ortiq lotin mamlakatlarida ispan tilida gaplashadilar. Demak, bir til ikki yo undan ortiq millatga xizmat qilishi mumkin. Tillarning yana bir ijtimoiy-ma’rifiy mohiyati shundaki, ular bir-biriga ta’sir etadi, bir-biriga so‘z va iboralar o‘tadi, bir millat yozuvi asosida boshqa millat yozuvi kelib chiqadi.

Lug‘at

Til – (язык) – kishilarning bir-biri bilan aloqa qilish vositasi

Til – (общественное явление) ijtimoiy hodisa

Davlat tili – (Государственный язык) mustaqil bo‘lgan davlatning rasman qabul qilgan tili

Tilning rivojlanishi – (развитие языка) til doimo rivojlanib, boyib boradi (So‘z o‘zgartiruvchi, so‘z yasovchi qo‘shimchalar hamda chet tilidan kirib keladigan yangi so‘zlar hisobiga).

Nutq – (речь) tovushlar talaffuzi orqali hosil bo‘ladi

Nutq ma‘daniyati- (культура речи) til qonun –qoidalariga rioya qilgan holda so‘zlashish

Fikr – (мысль) insonlar so‘z orqali o‘z fikrlarini ifodalaydilar

Ong – (разум) –faqat insonlargagina xos xususiyat

Tilning kelib chiqishi va shakllanishi – этимология и развития языка

Xalq tili – (язык народа) ma‘lum bir xalqqa xos bo‘lgan so‘zlashuv tili

Og‘zaki nutq – (разговорная речь) faqat so‘zlashuv nutqi

Chambarchas bog‘langan - (крепко связаны между собой) til fikr bilan chambarchas bog‘langan

Yozuv – (письменность) fikrning belgi, harflar orqali ifodalanishi

Piktografiya – fikrni rasmlar vositasida ifodalash

Ideografiya – ma‘lum ma‘no anglatuvchi konkret predmet belgisining qo‘llanishi

Til – ma‘naviyat ko‘zgusi – (язык как духовно нравственное зеркало) insonning o‘tmishi, milliy qadriyatlarga munosabati, butun borlig‘ini nomoyish qituvchi vosita

“Sen” yahshimi, “Siz”? – как вежливее обратиться: “Ты” или “Вы”

Og‘zaki nutqni rivojlantirish bo‘yicha namunalar

Salomlashish

Assalomu alaykum!

Salom!

Xayrli tong!

Xayrli kun !

Xayrli kech!

Sizni ko‘rganimdan xursandman.

Uchrashganimiz yaxshi bo‘ldi.

Sizni (seni) ko‘rmaganimga ko‘p

Приветствие

Здравствуйте!

Привет!

Доброе утро!

Добрый день!

Добрый вечер!

Очень рад (рада) Вас видеть.

Хорошо, что мы встретились.

Давно я вас (тебя) не видел(а).

bo'ldi. Ishlaringiz qalay (qanday)?	Как у вас дела?
Rahmat, yaxshi.	Спасибо, хорошо.
O'zingizni qanday his qilayapsiz?	Как себя чувствуете?
Yomonmas, rahhat.	Ничего, спасибо.
Xush kelibsiz!	Добро пожаловать!
Uy ichingiz tinchmi ?	Как поживает семья?
Uydagilar tinchmi?	
Rahmat. Hammasi yaxshi.	Спасибо. Все хорошо.
Hammasi joyida.	Все по-прежнему.
Qanday ajoyib uchrashuv!	Какая приятная встреча!
Ahvolingiz (qalay) qanday?	Как живешь?
A'lo darajada.	Отлично.
Juda yaxshi.	Очень хорошо.
Ishlar (qalay) qanday?	Как дела?
Joyida.	Нормально.
Sog'liq qalay?	Как здоровье?
Sog'lig'ingiz qanday?	
O'rtacha.	Так себе.
Nima yangiliklar bor?	Что нового?
Hammasi eskicha.	Все по старому.

5- topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

Qadimgi yozuvlar tarixidan

Markaziy Osiyodagi xalqlar, shu jumladan, o'zbek xalqi behad ko'hna yozuv madaniyatiga ega. Ular qadimda turli yozuvlardan foydalanib kelganlar. Bu o'rinda so'g'd, O'rxun-Enasoy (runik), uyg'ur, arab yozuvlarini esga olish kifoya. Har biri o'ziga xos bu yozuvlar muayyan darajada oromiy yozuvi bilan bog'liq.

Turkiy tillarga oid eng qadimiy yozma matnlar milodimizning beshinchi asriga tegishlidir. V-X asrlarda turkiy xalqlar orasida O'rxun yozuvi (boshqa nomlari - turkiy runik yozuv, dulbarchin) keng tarqalgan edi.

O'rxun yozuvi turkiy tillarning xususiyatlariga juda mos edi. Bu yozuv yodgorliklari rang-barang bo'lgan, lekin ulardan bizgacha, asosan, qabr toshlarida yozilgan bitiklarga yetib kelgan, chunki toshlar davr sinovlariga chidamlidir.

O'rxun yozuvi bilan deyarli bir davrda o'zbek xalqining ajdodlari uyg'ur yozuvidan ham foydalanganlar. Uyg'ur yozuvi sog'd yozuvi asosida shakllangan bo'lib, u Vatanimizda XV asrgacha iste'molda bo'lgan. Mashhur "Qutadg'u bilik" dostonining bir nusxasi, "Hibatul haqoyiq"ning bir necha nusxasi, Xorazmiy "Muhabbatnoma"sining bir nusxasi, xatto XV asrda ko'chirilib, bir to'plamga kiritilgan Lutfiyning bir necha g'azallari uyg'ur yozuvida yozilgan.

Arab alifbosiga asoslangan eski o'zbek yozuvi esa VIII asrdan boshlab qo'llanila boshlanadi. Deyarli 800 yil mobaynida bu yozuv uyg'ur yozuvi bilan yonma-yon ishlatilib kelindi. Ammo XVI asrdan, ya'ni shayboniylar hukmronligi davridan uyg'ur yozuvi iste'moldan chiqib ketdi.

Shuning uchun jadidlar XX asrning boshlaridayoq eski o'zbek yozuvini isloh qilish, uni o'zbek tiliga moslashtirish uchun harakat qildilar.

1929- yildan boshlab o'zbek xalqi lotin alifbosiga asoslangan yozuvdan foydalana boshladi. Oradan ko'p o'tmay, sobiq sho'ro tuzumida millatlarni tenglashtirish, millatlararo farqlarni yo'qotish harakati boshlandi, rus tilining ta'siri kuchaydi. Natijada, 1940- yildan boshlab o'zbek xalqi kirill (rus) alifbosi asosidagi yozuvga o'tdi.

Kirill alifbosining o'zbek tili xususiyatlarini ifodalash uchun qulay emasligi haqida mutaxassislar uzoq vaqt munozara qildilar, imloni takomillashtiradi deb, hatto kirill alifbosidan voz kechish haqidagi fikrlarni ilgari surdilar. Hozir dunyoda eng keng tarqalgan yozuv lotin yozuvidir, bu yozuvdan dunyo aholisining 30% foydalanadi. Ana shundan kelib chiqib, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi 1993-yilning 2- sentabrida "Lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini joriy etish to'g'risida"gi Qonunni qabul qildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995- yil 6-mayda bu Qonunga ayrim o'zgartirishlar kiritish haqida Qaror qabul qildi. Bu hujjatlarga binoan yangi alifboga o'tish bosqichma-bosqich amalga oshiriladi, deb ko'rsatilgan. Ushbu alifbo 26 ta harf va 3 ta harflar birikmasidan iborat.

6 – topshiriq. Quyidagi so'zlarni tarjima qiling, ular ishtirokida birikmalar yasang.

Til, so'z, gap, lug'at, gapirmoq, tinglamoq, yozmoq, o'qimoq, tushunmoq, tushuntirmoq, takrorlamoq, so'ramoq, javob bermoq, so'zlamoq, suhbatlashmoq, aytib bermoq, bajarmoq, yodlamoq, turlamoq, tuslamoq, so'zlashmoq.

7 – topshiriq. Tez aytishlarning o‘qilishiga ahamiyat bering .

1. Qo‘ng‘iroq qo‘g‘irchoqnikimi yoki qo‘ng‘iroq qo‘zichoqnikimi? (tez aytish)

Колокольчик (принадлежит) куколке или колокольчик (принадлежит) ягнёнку? (*скороговорка*)

2. Qarg‘a qaqimchi ekan, chumchuq chaqimchi ekan.

3. Anjir tagida zanjir, zanjir yonida anjir.

4. Jamila jiydani joyiga joyladi.

8 – topshiriq. O‘qing, takrorlang, davom ettiring.

g-g‘	k-q	x-h
yigit - o‘g‘il	kim – qayerda	xona - ha
dugona – lug‘at	darslik - qaysi	xarita - ham
dengiz – bog‘	kitob – qishloq	xizmatchi – shahar
... -- ...	... -- ...	... -- ...

9 – topshiriq. Nuqtalar o‘rniga **u** yoki **o‘** harflaridan mosini qo‘yib, so‘zlarni ko‘chiring va tarjima qiling.

...zak	...y	...pka	...simlik	q...l
...zbek	s...z	q...sh	...tkir	t...r
...zoq	t...ng	...rmon	b...taloq	b...zoq
...zuk	t...n	...luq	...loq	d...st
...zum	k...z	...mid	t...rt	...ch
...yin	...roq	...nvon	t...rt	...ch
...yinchoq	...rtoq	t...n	...g‘il	t...rmush
...yqu	k...l	...nli	t...g‘ri	q...ruq
...lka	k...l	...rg‘u	m...shuk	q...m
s...r	k...r	z...r	q...l	q...r

10-topshiriq. Quyidagi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

qo‘l - рука
ko‘l - озеро
o‘qi - читай
o‘g‘il - мальчик

ildiz-корень
tog‘ora - корыто
mushuk -кошка
cholg‘u asbobi-горн

11-topshiriq. Quyidagi soʻzlarni toʻgʻri talaffuz eting.

oʻzbek	узбек
Qoʻshkoʻpir	Кушкупир
oʻrtoq	уртак
oʻrik	урюк
tarvuz	арбуз
Qoʻyliq	Куйлюк
Toshkent	ТАШКЕНТ

12 – topshiriq. Matnni oʻqing va reja asosida soʻzlab bering.

Turkiy tillar tarmogʻi va oʻzbek tili

Hozirgi turkiy tillar tarkibiga Oʻrta Osiyo, Qozogʻiston va Sharqiy Turkistondagi oʻzbek, qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, turkman va uygʻur tillari, Kavkazdagi ozarbayjon, qoʻmiq, qorachoy-bolqor, turuxman, gagauz va noʻgʻay kabi tillar, Volga boʻyi va Uraldagi tatar, boshqird va chuvash tillari, Sibirdagi yoqut (saxa), tuva, toʻfalar, xakas, kangmajiy, shor, chulim tillari, Ukraina, Moldova va Gruziyadagi urum, qrim va qarayim tillari, Turkiya va Bolqondagi turk tillari kiradi. Shunday qilib, turkiy tillar oilasi yuzga yaqin jonli tillarni oʻz ichiga oladi. Butun dunyoda turkiy tillarda bir necha yuz million kishi gaplashadi. Turkiy tilli aholi Uzoq Sharqdan Markaziy Yevropagacha, Taymir yarim orolidan Bolqon yarim oroligacha tarqalgan.

Turkiy tillar uzoq tarixiy yozuv madaniyatiga ega. Bu tillarga mansub bizgacha yetib kelgan yozma yodgorliklar eramizning V asrida bitilgan “Xuastuanift”, V-VII asrlarda yaratilgan Oʻrxun-Enasoy obidalaridir. Shuningdek, Mahmud Qoshgʻariyning “Devonu lugʻatit turk” asarida ham eng qadimgi davrlarga oid juda koʻp adabiy parchalar bor.

Turkiy tillar tarmogʻi bir necha ichki guruhlariga boʻlinadi. Oʻzbek tili oʻziga eng yaqin boʻlgan uygʻur tili bilan bu oilaning qarluq guruhini tashkil etadi. Ammo hozirgi oʻzbek tilida qarluq lahjasidan tashqari, qipchoq lahjasi va oʻgʻuz lahjasi xususiyatlari ham mujassamlashgan, chunki hozirgi oʻzbeklar tarkibida qipchoq va oʻgʻuz urugʻlarining vakillari ham bor.

Hozirgi turkiy tillar soʻz boyligi va grammatik qurilishi jihatidan bir-biriga juda yaqin, shuning uchun oʻzbek, uygʻur, qozoq, qirgʻiz,

qoraqalpoq, turkman, turk, ozarbayjon, tatar, boshqird, bolqor, qo‘miq, no‘g‘oy millatlariga mansub kishilar so‘zlashganda bir-birlarini bemalol tushunadi.

13-topshiriq. Tilga doir hikmatli so‘zlarni o‘qing va izohlab bering.

Aytar so‘zni ayt, aytmas so‘zdan qayt.

Aytgan joydan qolma, aytmagan joyga borma.

Aytsam - tilim kuyadi, aytmasam - dilim.

Gap desang qop-qop, ish desang Samarqanddan top.

Gap kelganda otangni (ham) ayama.

Gap ketini gap ochadi.

Gapirganing kumush, gapirmaganing oltin.

Gapni gapir uqqanga, jonni jonga suqqanga.

Dili to‘g‘rining tili to‘g‘ri.

Qo‘l yugurig‘i- oshga, til yugurig‘i - boshga.

Til qilichdan o‘tkir.

Tilga e‘tibor - elga e‘tibor.

Tig‘ yarasi ketadi, til yarasi ketmaydi.

Коли нужно сказать – скажи, а коль не нужно – помолчи.

От приглашения не отказывайся, туда, куда тебя не приглашали – не иди.

Скажу – язык сгорит, не скажу – душа сгорит.

Слов – мешок, а дел на вершок.

Когда к слову придется, не жалея даже родного отца (ради истины не пожалей и родного отца).

Слово за словом вперебой идут.

Сказанное слово – серебряное, несказанное – золотое.

Говори тому, кто тебя будет слушать, внимать, поддерживать, кто тебя поймет.

Что на душе, то и на языке.

Резвость рук к еде, резвость языка – к беде.

Слово (язык) острее меча.

Внимание языку – внимание народу.

Рана от слов больнее, чем рана от меча.

14-topshiriq. Matnni o'qing va quyida berilgan savollarga javob bering.

Til o'rganish
(*chet elliklar nigohida*)

Hamma o'z ona tilida yaxshi gapiradi. Ammo kishilar boshqa mamlakatga borib o'qishi yoki ishlashi mumkin. Yoki o'z mamlakatida yashab, boshqa xalqlar hayoti haqida ko'proq bilmoqchi bo'ladi. Buning uchun chet tilini o'rganishi kerak. Umuman, har bir kishi bir nechta tilni bilishi kerak.

Biz uchun o'zbek tili chet tili, ammo O'zbekistonda yashovchilar uchun bu til - Davlat tili. Biz O'zbekistonga keldik, shuning uchun o'zbek tilini o'rganmoqchimiz. Biz o'zbek tilini bimalol tushunish, shu tilda gaplashish, yozish va o'qishni bilmoqchimiz.

O'zbekistonda turli millat vakillari yashaydi. Ular hammasi Davlat tilini ham o'rganadilar. Bu yerdagi talabalar, ishchilar va turli kasb egalari ingliz tilini o'rganmoqdalar. Ko'plar ingliz tilini yaxshi biladi. O'zbekistondagi maktablarda ingliz tili yaxshi o'qitiladi. O'quvchilar shuningdek, nemis, fransuz, yapon, xitoy, fors va boshqa tillarni ham o'rganadilar.

Hozir yer sharida odamlar 5651 tilda gaplashar ekanlar. Shundan 50 tasi to'liq o'rganilmagan. 3800 ta til o'z yozuviga ega. Bundan tashqari 1400 ta shevalar borligini olimlar aniqlashgan.

Ko'p tilni bilgan kishilarni har doim madaniyatli va bilimdon deb hurmat qilishgan. IX asrda yashagan daniyalik olim Rasipe Xristian Gask 230 tilni bilgan ekan. Lvov universitetining professori Andrey Gavronskiy-140, akademik N.Marr-100 ta, Genrix Shliman-80 ta, Ukrainalik akademik yozuvchi Agafagel Krinskiy 60 ta tilni bilishgan.

Bizning zamonamizda ham ko'p tilni bilganlar oz emas. Masalan, kibernetikaning otasi hisoblangan. Nobert Viner 13 ta tilni o'rgangan. Buyuk Britaniya jurnalisti Garold Vilyams 80 ta tilni biladi.

Qizig'i shundaki, yer yuzidagi 14 ta tilni bilgan kishi istagan joyda odamlar bilan suhbatlasha olishlarini olimlar isbotlashgan. Xitoy, ingliz, rus, fransuz, nemis, ispan, arab, yapon, portugal, italyan, turkiy, hind, urdu va bengal tillari shu 14 ta til qatoriga kirar ekan.

Ko'p tillarni bilish - bizga buyuk ajdodlarimizdan qolgan meros. Buyuk shoir Alisher Navoiy arab, fors, turk tillarini yaxshi bilgan. U bu tillarda ajoyib she'rlar yozgan, o'zbek adabiy tiliga asos solgan.

Matnga berilgan savollarga javob bering

1. Matnda nimalar haqida yozilganini ayting?
2. Aytingchi, o‘zbek tilini nima uchun o‘rganyapsiz?
3. Til bilgan insonda qanday fazilatlar rivojlangan bo‘ladi?
4. Ko‘p tilni bilish insonga nima beradi?
5. Ko‘p tillarni bilgan yana kimlarni bilasiz? Gapirib bering.

15-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga **q** yoki **k** harflaridan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Yangi yil bayrami turli mamla...atlarda, turli xal... va elatlarda turli paytlarda turlicha ...utib olinadi. Jumladan, Yaponiyada yangi yil bayramiga tayyorgarli... bir necha ...un avvalro... boshlanib ...etadi. Barcha hovli-joy, uy eshi...lari oldiga bambu... va yosh ...ayin daraxtining shox-shabballari osib ...o‘yiladi. Yangi yil ...uni tun yarmida ul...an ...o‘ng‘iro...lar 108 marta zang urib yangi yilning ...irib ...elayotganligidan xabar beradi.

16-topshiriq. Tutuq belgisi qo‘yilishi bilan ma’nosi o‘zgargan so‘zlarni izohlang.

Ayon – a’yon, alam – a’lam, davo – da’vo, zafaron – za’faron, nasha – nash’a, surat – sur’at, eti bor – e’tibor, tana – ta’na, tarif – ta’rif, tasir-tusur – ta’sir, taqib – ta’qib, sher – she’r, sava – sa’va, qala – qal’a, davosiz – da’vosiz, shuba – shu’ba, qada – qa’da.

17-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni tartib bilan qo‘yib, gaplar tuzing.

1. Aksincha, boshqaradi, haqida, kishi, grammatika, boshqarmaydi, uni, bilimi yo‘q, til, tilni.
2. Madaniyatining, ona, yuksalishida, quroldir, tili, qudrati, xalq.
3. Boyitamiz, ona tilini, biz, o‘rganish, fikrimizni, bilan, o‘z.
4. Ona, ham, qadrli, hamisha, uchun, biz, ona kabi, o‘rgatgan, til.
5. Madaniyati, shaxsiy, bog‘liqdir, nutq, ham, madaniy, bilan, so‘zlovchining, saviyasi.
6. Aniq, shunchalik, bo‘ladi, nutq, to‘g‘ri qanchalik, va, bo‘lsa, u, tushunarli.

7. Turlicha, olimlar, asarlarida, va, vositalaridan, yozuvchilar, til, foydalanadilar.
8. Bir-birlariga, yozuv, bildiradilar, kishilar, orqali, fikrlarini, o‘z.
9. Orqali, yillar, yozuv, voqealardan, oldin, biz, o‘tgan, minglab, bo‘lamiz, xabardor.
10. Orqali, shaxslar, yozuv, ilm, to‘g‘risida, madaniyat, fan, odatlar, va, ega, ma‘lumotga, bo‘lamiz.
11. O‘z, belgilanadi, bilan, ona tiliga, mustaqilligining, biri, har, xalq, asosiy, bir, belgilaridan, bo‘lgan, hurmat.
12. 21 - oktabrda, davlat, O‘zbek, tili, 1989- yil, maqomi, qabul, berish, qildi, Qonun, tiliga, to‘g‘risida.

18-topshiriq. Matnni o‘qing va reja asosida so‘zlab bering.

“Salomlashish odobi” ga doir namunalar

Tanish yoki notanish ikki kishi bir-birlari bilan uchrashib qolsalar, salom berib ko‘rishishlari juda lozimdir. Tanishlar faqatgina salomlashibgina qolmay, balki bir-birlarining hol-ahvollarini so‘rashlari kerak.

Bir kishi ikkinchi kishiga salom bersa, darrov alik olib, salom javobini bersin. Salomni to‘liq ravishda “Assalomu alaykum”, deb aytilsin. “Assalomu alayka”, “Salom alaykum” yoki “Salom” yohud “Salom berdik” deyish yaramaydi. Salom javobi “Vaalaykum-us-salom” bo‘lib, “Alaykum salom”, “Alaykas salom” yo faqat “Alaykum”, deb aytish to‘g‘ri emasdir. “Assalomu alaykum” - arabcha so‘z bo‘lib, “sizga tinchlik bo‘lsin”, demakdir. “Vaalaykumus-salom” esa “sizga ham tinchlik bo‘lsin”, degan so‘zdir.

Boshni egmasdan, qo‘llarni ko‘krakka qo‘yib salom berish tavsiya qilinadi. Ko‘p kishiga uchrashib qolgan kishi ularning har biriga alohida-alohida salom bermasin, hammasiga bitta salom kifoya qiladi. Yoshi kichik kishi yoshi kattaga, yurib ketayotgan kishi o‘tirgan kishiga salom berishi lozim. Kamsitib, tahqir qilganday bo‘lib, iljayib salom berish odobdan emas. Salom samimiy bo‘lsin. Salom bergan kishi boshini qimirlatibgina qo‘ymasdan, salom javobiga hurmat bilan to‘la-to‘kis eshittirib aytishi lozim. Bir kishi tanishini uzoqdan ko‘rib qolib, uning yoniga kelish ilojini topmasa, o‘sha yerdan turib, qo‘lini ko‘ksiga qo‘yib salom ishorasini berishi kerak.

Qo‘l berib salomlashgan chog‘da qo‘l uchinigina berib salomlashish odobdan sanalmaydi. Bunday qilish o‘zining mensimasligini, odobsizligini bildiradi. Bunday hollar salom-alikning buzilishiga sabab bo‘ladi. Salom-alik shu qadar muqaddas narsaki, uni buzish haqoratga tengdir. Bu hol ko‘rishuvchilar bir-birlari bilan qanday munosabatda ekanini yaqqol anglatib qo‘yadi. Chunonchi, salomning buzilishi quyidagi hollarda sodir bo‘lishi mumkin: baxil saxiyni, nodon dononi, odobsiz xushhulqni, tund xushchaqchaqni, iste’dodsiz qobiliyatlini, jinoyatkor diyonat ahlini, ahmoq oqilni, munofiq olijanobni ko‘rganda o‘zidan ketadi, yuragi siqilib, qoni qaynaydi, rangi allanechuk bo‘lib yuzidagi tabassum chirog‘i ko‘ngildan to‘lqinlanib chiqqan hasad-g‘ussa shamoli bilan o‘chib qoladi, bu esa salom-alikning buzilishiga sabab bo‘ladi.

Xalqimizning qadimiy odatlaridan biri shuki, bolani yoshligidanoq, tili chiqqanidanoq salom berishga o‘rgatadilar. Odob yuzasidan, yoshlar o‘zlaridan katta yoshdagilarga avval salom berishlari, ular alik olishlari lozim. O‘zidan katta yoshdagilarni qayerda bo‘lmasin, ko‘rganda salom bermay, indamay o‘tib ketish - xoh o‘g‘il uchun, xoh qiz uchun nihoyatda noxush hisoblanadi.

19-topshiriq. Raqamlarni so‘z bilan yozing

1. 2008-yilda yalpi ichki mahsulotning o‘sish sur‘atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste’mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko‘rsatish hajmi 21,3 foizga o‘sd.

2. “Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur‘atlar bilan rivojlandi: qurilish - 8,3 foiz, transportda yuk va yo‘lovchi tashish hajmi - 10,2 foiz, savdo sohasi - 7,2 foizga o‘sd. Qishloq xo‘jaligida 4,5 foiz o‘sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna g‘alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug‘doy yetishtirildi.

3. Davlat budjeti ortig‘i bilan bajarildi, ko‘zda tutilgan defitsit o‘rniga yalpi ichki mahsulotga nisbatan 1,5 foiz miqdorida profisitga erishildi.

4. 2008-yilda 1 milliard 700 million AQSH dollari miqdoridagi xorijiy investitsiyalar o‘zlashtirildi. Bu 2007-yildagiga nisbatan 46 foiz ko‘p demakdir.

5. Ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirishda 2006-yilda tashkil etilgan, bugungi kunda 3 milliard 200 million AQSH dollaridan ortiq nizom jamg‘armasiga ega bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasi Tiklanish va taraqqiyot fondi faoliyatiga katta ahamiyat berilmoqda. Yaqin

istiqbolda ushbu Fond aktivlarini 5 milliard dollarga yetkazish ko'zda tutilmoqda.

6. Chorvachilikni rivojlantirish dasturining ijrosi doirasida 2008-yili kimoshdi savdolarida 20 ming 300 bosh qoramol sotildi. 2009-yilda yana 24 ming 600 bosh qoramol sotilishi ko'zda tutilmoqda. Agar 2007-yilda qoramol sotib olish uchun 42,5 milliard so'mlik imtiyozli kreditlar ajratilgan bo'lsa, 2008-yilda bu raqam 48 milliard 200 million so'mni tashkil etdi.

20-topshiriq. Namunadagidek so'z birikmalari tuzing.

Namuna:

- davlat timsollari
- davlatlararo televideniye
- davlatchilik qonunlari
- horijiy.....
- horijdan.....
- horijlik.....
- xalqaro.....
- xalqaro.....
- xalqaro.....
- qiziq.....
- qiziqarli.....
- qiziquvchan.....

21-topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

Bosh va til

Kunlardan bir kuni Sulton Husayn saroyida gapdan gap chiqib, podsho "Ot oyog'i bilan suv ichsin!" degan so'zi uchun Mir Alisherga ikki ming tanga in'om etganini eshitgan boshqa vazirlar janjal qo'zg'abdilar. Ular podshoga arz qilib:

-Taqsir, har safar Mir Alisherga bir og'iz dono so'zi uchun ming tanga berilar edi, endi esa ikki ming tanga beribsiz! Nima uchun bizlarga ham ikki ming tanga berilmaydi? - deyishibdi. Podsho ularga qarab:

- Agar mening savollarimga yaxshi javob topsalaring, o'sha ikki ming tanga sizdan aylansin,- debdi.

- Mayli, bizlar ham topamiz! Qancha savol bo'lsa beravering.

Sulton Husayn vazirlariga qarab turib, ko'rsatkich barmog'i bilan boshini ko'rsatibdi. Vazirlar hech narsaga tushunmay, angrayib turaveribdilar. Shu payt Mir Alisher ham o'sha barmog'i bilan tilini ko'rsatibdi.

Sulton Husayn bezrayib turgan vazirlariga qarab:

- Men boshimni ko'rsatdim, Mir Alisher esa barmog'i bilan tilini ko'rsatdi. Sizlar shuning ma'nosini topib kelinglar,- deb buyuribdi.

Vazirlar uch kun muhlat so'rabdilar. Uch kun o'ylab, hech bir natija chiqarolmay, axiyri Mir Alisherning yoniga borib, imo-ishoraning ma'nosini so'rabdilar.

- Agar har biringiz ming tangadan bersangiz, aytib bera qolay, - debdi Mir Alisher qirq vazir qirq ming tangani sanab bergach, u imo-ishoraning ma'nosini so'zlab beribdi:

- Sulton boshga balo nimadan keladi, deb so'radilar. Men har kishining boshiga balo kelsa, o'zining tilidan keladi, deb javob berdim.

Buni eshitgan vazirlar saroyga qarab yuguribdilar. Podshoning oldiga borib, boyagina Mir Alisherdan eshitgan gaplarini aytib berishibdi.

Podsho ularning so'zlariga ishonmay:

- To'g'risini aytinglar, bu so'zlarni sizlarga kim o'rgatdi?- deb so'rabdi.

- O'zimiz topdik, taqsir!-deyishibdi vazirlar. Podsho ularning yolg'on gapirganlaridan achchiqlanib, hammasini o'limga buyuribdi. Shunda vazirlar bu gaplarni Mir Alisher o'rgatganligini aytib berishibdi.

Sulton Husayn vazirlariga qarab, kulib turib:

- Men Mir Alisherga ikki ming tanga bersam, sizlar uning bir og'iz so'ziga qirq ming tanga beribsizlarda!-debdi.

22-topshiriq. Alisher Navoiyning hikmatli so'zlarini o'qing va izohlab bering.

Odami ersang, demagil odami
oniki, yo'q xalq g'amidin g'ami.

Коль сам ты человек, тем словом
звать не смей,
Того, кому чужда печаль других
людей.

Izzat tilasang, kam de,
Sihat tilasang, kam ye.

Почтенья хочешь — меньше
злозязычь,
Здоровья хочешь — пищу
ограничь.

Tilga ixtiyorsiz,
Elga e'tiborsiz.

Кто несдержан на язык,
Тот уваженья не достиг.

23-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.

So'z qudrati

So'z qudrati - shirinsuxanlik, inson faoliyatining asosiy omillaridan biri hisoblanadi. Chunki inson aql-zakovati, fikr-tuyg'ulari, bilimi va madaniyati, saviyasi, tafakkuri ma'lum darajada so'zda ifoda etiladi. Yaxshi so'z bilan kishilarning ishonchi, qalbini egallash mumkin.

Yaxshi so'z hayotning quroli bo'lib, unda olam-olam ma'no yotadi. So'z yuz va ko'z, tilning ko'rki hisoblanadi.

“So'zning otasi- aql, onasi- til” deyishadi keksalar. Muomala madaniyatida so'z aqldan kuch, tildan ixtiyor oladi. Til shunday kuchga egaki, suyaksiz bo'lsa ham, suyakni titratadi.

Odamning odobi dastavval uning tilida, keyin til orqali bilimida ko'rinadi. Odob doirasidagi muomala madaniyatini o'zlashtirgan kishilarga farosatli, odobli, aqlli, es-hushli, madaniyatli deb, baho beramiz.

Birov bilan so'zlashganimizda so'zimizga juda diqqat qilishimiz va tinglovchida yaxshi taassurot qolishi uchun ochiq va yengil iboralar bilan so'zlashimiz lozimdir. Muhokamada so'zlashdan maqsad - gapga ustaligini yoki notiqqligini namoyish etish emas, balki hammaga tushunarli qilib, oson ifodalar bilan so'zlashdan iborat.

Majlis, ziyofat va boshqa yig'ilishlarda bo'lganda har kim o'z yonida o'tirgan kishi bilan sekin-sekin so'zlashmog'i lozim, chunki ashula aytilganda, musiqa chalinganda yoki boshqa birov so'zlab turganda gaplashib o'tirish ayb sanaladi. Muhokama chog'ida qah-qah otib kulish odobsizlikdir.

Demak, hayotda so'zning o'rni, uning qadri juda baland. Bu o'tkinchi dunyodan faqat yaxshi ishimiz, yaxshi so'zimiz qoladi. “Yaxshi so'z bilan ilon inidan chiqar” degan naql bejiz aytilmagan. Agar birovga ehson uchun moddiy boyligimiz bo'lmasa, shirin so'zimizni hadya etaylik, shirin so'zimiz bo'lmasa, yomon so'zimiz bilan dilga ozor bermay, sukut saqlamog'imiz lozim.

24-topshiriq. Soʻzlarni toʻgʻri talaffuz qiling . Ularni koʻchirib yozing va gaplar tuzing.

- | | | | |
|---------------------------------|---|----------------------------------|---------------------------|
| 1) qoʻl- рука
q ul-раб | 2) koʻz-глаза
kuz- осень | 3) koʻl-озеро
kul- пепел | 4) oʻn-десять
un- мука |
| 5) oʻch-мечь
uch-три | 6) joʻn- слабо
jun-шерсть | 7) oʻy-дума
uy-дом | 8) toʻn-чапан
tun-ночь |
| 9) qoʻsh- двойной
qush-птица | 10) oʻylanmoq-задуматься
uylanmoq-жениться | 11) koʻch-имущество
kuch-сила | |
| 12) goʻl- наивный
gul-цветок | 13) ruh-дух
ruh-ладья | 14) shoh-царь
shox -ветка | |

25-topshiriq. Quyidagi tez aytishlarning talaffuzini oʻzlashtiring.

1. Qodir qoqi oʻtning qoqisini qogʻoz qopga qopladi.
2. Gʻani gʻildirakni gʻizillatib gʻildiratdi.
3. Oq choynakka oq qopqoq, koʻk choynakka koʻk qopqoq.
4. Toʻra toʻqayning toʻridan toʻrtta toʻtini toʻrda tutdi.
5. Hamalda hamma halim hozirlaydi.
6. Jalil jajji jiyronni jilovladi.
7. Vali vizvizakni vizillatdi.
8. Qaro qoshing, qalam qoshing, qiyiq qayrilma qoshing, qiz! (E. V)

26-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning talaffuziga eʼtibor bering va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Qattiq-qatiq, essiz-esiz, chinni-chini, ushshoq-ushoq, ellar-elar, tilla-tila, choʻqqi-choʻqi, tilli-tili, nonning-nonning, yoʻlladi-yoʻladi.

27-topshiriq. Soʻz urgʻusi maʼnolariga ahamiyat bergan holda gap tuzing.

Olma (harakat)-olma (meva), atlas (mato)- atlas (karta), qishloqcha (kichkina) -qishloqcha (qishloqqa xos), yangi (sifat)- yangi (ravish), fizik (hodisa)-fizik (oʻqituvchi), hozir (ayni paytda)-hozir, qoʻllar-qoʻllar, bogʻlar (ot)-bogʻlar.

28-topshiriq. Otlardagi ko‘plik qo‘shimchasining ma’nolarini izohlang.

1. Oyimlar keldilar. 2. Oyoqlarim charchab ketdi. 3. Nabi Buxorolarni aylanib kelgan. 4. O‘quvchilar o‘z o‘qituvchilarini hurmat qiladilar. 5. Qanaqa onalar ekanki, kelinini oldiga solib to‘y-hashamlarga yuradigan.

29-topshiriq. Quyidagi so‘zlarning paronimlarini toping.

asr – ...;	ziyrak - ;
yuvindi -....;	dars -
asl –..... ;	dalil -
afzal -.....;	bob -

30-topshiriq. Maqollarni o‘qing va yod oling “U” va “O” tovushlarga ahamiyat bering.

Uzumini ye, bog‘ini surishtirma./ Ешь виноград, а из какого сада не спрашивай.

Uyning ko‘rki – dasturxon . / Украшение дома – скатерть (с угощениями).

Umr – otilgan o‘q. / Жизнь - это пущенная стрела.

O‘t bilan o‘ynashgan – yonar./ Не играй с огнем – сгоришь.

O‘tmas pichoq ham qo‘l kesar. / И тупой нож руку режет.

O‘z do‘stim deb sir aytma, do‘stingning ham do‘stlari bor./ Не говори свою тайну другу, у твоего друга тоже есть друзья.

31-topshiriq. Gaplardagi qo‘shimchalarni to‘g‘ri qo‘yib yozing.

Namuna: *Jahon moliyaviy inqirozini Prezidentning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asarida chuqur tahlil etilgan.*

1. Chet davlatlar bilan savdo-sotiq ishlari, masalan, eksport, import tuzilmasi..... yaxshii natijalar..... erishildi. 2. Jahon moliyaviy inqirozi Amerika Qo‘shma Shtatlari ipoteka kreditlash tizimi..... ro‘y bergan tanglik holati..... boshlandi. 3. Global moliyaviy inqiroz..... oqibatlarini butun jahon moliyaviy tizimida o‘z aksini topadi. 4. Ishlab chiqarish..... modernizatsiya, innovatsion texnologiya..... keng joriy etish - O‘zbekiston uchun inqirozni bartaraf etish..... ishonchli yo‘lidir.

5. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik..... moliyalash asosiy kredit markazlaridan biri bu - “Mikrokreditbank” hisoblanadi. 6. Milliy valuta..... muomalaga chiqarilishi inflyatsiya.....keskin pasayishiga olib keldi. 7. Tijorat banklarida yuqori malakali mutaxassislarning ishlashi yuqori ko‘rsatkichlar..... erishish..... olib keldi. 8. Har bir mamlakat o‘zi..... qog‘oz pullarini zarb etadi va u katta kichikligi, rangi, qiymati, shuningdek ikki tomoni..... ko‘rinishi bilan farqlanadi. 9. I.A.Karimov.....2009-yilda chop etilgan “O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etish.....yo‘llari va choralari“ asari jahon bo‘yicha boshlangan inqiroz..... tahlil qilish va o‘rganishga bag‘ishlangan. 10. O‘zbekiston..... islohotlarini izchil va bosqichma-bosqich amalga oshirish yo‘llari bir necha tamoyillar..... asoslangan.

Og‘zaki nutqni rivojlantirish bo‘yicha namunalar

Xayrlashish

Xayrlashish uchun kirgandik.
Men xayrlashish uchun kirgandim.
Men siz bilan xayrlashmoqchiman.
Hammasi uchun rahmat.
Yaxshi qoling .
Oq yo‘l, yaxshi boring!
Yo‘lingiz bexatar bo‘lsin.
Bizni unutmang.
Yozib turing.
Qo‘ng‘iroq qilib turing.
Yana keling.
Kirib turing.
Ota-onangizga salom ayting!
Hammaga mendan salom ayting!
Ko‘rishguncha xayr!
Yaqin kunda uchrashguncha.
Uchrashguncha xayr!
Ertagacha.
Yakshanbagacha.....
Xayrli tun!
Tuningiz xayrli bo‘lsin!

Прощание

Мы зашли попрощаться
Я зашёл (зашла) попрощаться
Я хочу с вами попрощаться.
Спасибо за всё.
Счастливо оставаться.
Счастливого пути!
Счастливого пути!
Не забывайте нас.
Пишите.
Звоните.
Приезжайте ещё.
Заходите.
Передайте привет родителям!
Передайте всем от меня привет!
До свидания!
До скорой встречи.
До встречи!
До завтра.
До воскресенья.....
Спокойной ночи!
Спокойной ночи!

Sogʻ boʻling.
Hozircha.
Xoʻp, hozircha.
Koʻrisharmiz.

Будьте здоровы.
Пока.
Ну, пока.
Увидимся.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar:

1. “Davlat tili” deganda nimani tushunasiz?
2. Qaysi davlatlarda ikki til rasman Davlat tillari sifatida qabul qilingan?
3. Til va jamiyatning oʻzaro uzviy bogʻliqligi haqida oʻz fikringizni bayon qiling.
4. Oʻzbek tilining shakllanishida qaysi mutafakkirlar oʻz hissalarini qoʻshganlar?
5. Qaysi dunyo tillarini bilasiz?
6. “Til xalqlarni bogʻlovchi koʻprikdir” degan iborani siz qanday tushunasiz?
7. Insonning mehnat faoliyati jarayonida til oʻrganishning ahamiyati nimada deb bilasiz?
8. Davlatlararo madaniy, iqtisodiy va ijtimoiy aloqa oʻrnatishda tilning ahamiyati nimada?
9. Istiqlool sharofati bilan chet tillarni oʻrganishga boʻlgan qiziqish oshishining sababi nimada deb oʻylaysiz?
10. “Til - doʻstlik kaliti” deganda nimani tushunasiz?
11. Horijiy mamlakatlarning oʻzbek xalqi milliy qadriyatlarini oʻrganishda oʻzbek tilining ahamiyati nimada deb bilasiz?
12. Tilning vazifalari nimalardan iborat?
13. Siz nechta tilni bilasiz?
14. Dunyoda oʻz tiliga ega boʻlmagan xalqlar ham bormi?
15. Inson hayotida soʻz qanday rol oʻynaydi?
16. Gap nimalardan tashkil topadi?
17. Biz hissiyotlarimizni nima bilan ifodalaymiz?
18. Oldin nima paydo boʻlgan tilmi yo yozuvmi?
19. Yozuvning paydo boʻlishiga nima sabab boʻlgan?
20. Dunyodagi eng shirin va eng achchiq narsa nima?

BUNI BILASIZMI?

JASORAT

Mol – dunyosini yo‘qotgan hech narsa yo‘qotmagan, g‘ururini yo‘qotgan ko‘p narsadan ajralgandir jasoratini yo‘qotgan esa hamma narsasini qo‘ldan boy bergan insondir

Gyote

Yo‘qotishdan qo‘rqmagan payting yutuqlarga erishasan.

Genri Ford

Omad yuz o‘girganda umidsizlikka tushma har bir omadsizlikdan bir zafar tuyg‘usi bor.

German Martin

Jasur odamning qarashi qo‘rqoqning qilichidan keskirdir.

Turk Maqoli

Qo‘rqoq odam o‘tmas pichoqqa o‘xshaydi.

Benjonim Franklin

Jasur odam dunyoning qirolidir.

Edison

O'ZBEKISTON - YAGONA VATAN

(Makon munosabatlarining ifodalanishi)

32-topshiriq. Matnni o'qing va quyida berilgan savollarga javob bering.

Vatan madhi

Tirnoqqa zor uch ayol bor ekan. Ular o'zaro dardihol qilib turib biri aytibdi: "Agar men o'g'il ko'rsam, farzandimga dunyodagi barcha ilmlarni o'rgataman. U falakiyot, riyoziyot, siyosat, ajnabiy tillarni o'rganadi", unga qarata ikkinchi ayol "Agar men ona bo'lsam, farzandimga dunyodagi barcha hunarlarni o'rgatar edim. O'nta barmog'ida o'n hunar bo'ladi" debdi. Uchinchi ayol esa asta xo'rsinib: "Sen aytgan ishlar mening qo'limdan kelmasa kerak. Agar men farzand ko'rsam, uni o'z Vataniga, xalqiga sodiq qilib o'stiraman" debdi.

Xudoning qudrati bilan osmon falakda bir farishta uchib kelib, uchinchi ayolning qo'lidan ushlab, tez orada onalik baxtiga muyassar bo'lishini bildiribdi.

Bu rivoyatning nechog'li haqiqat ekanligi bizga qorong'u. Lekin insonda Vatan mehri, tuproq sog'inchi azal-azaldan mavjud.

Boshqa rivoyatda esa, Alloh Taolo barcha xalqlarga makon ulashayotgan ekan. Qaysi millatga tog'lar, qaysisigadir cho'lu sahrolar, dengizu daryolar tushibdi. Zamin parchalari hammaga tarqatib bo'lingach, oxirida sabr-qanoatli o'zbek kirib kelibdi. Hamma makonlar tarqatilgan. O'zbek Tangri Taologa iltijo qilibdi. Shunda Alloh: "Mayli suyuqli bandam, o'kinma, men senga bir jannatmakon joyni beraman. Shu yerni o'zingga Vatan qilib ol, lekin bu zaminga ko'z olaytiruvchilar ko'p bo'ladi. Yurtingni shulardan ehtiyot qil", debdi. Bu zamin - Ona Turon ekan.

33-topshiriq. Og'zaki nutqni o'stirish uchun makon, joy nomlarini so'rash odobiga doir namunalarni yodlang.

Shahar bilan tanishib chiqasizmi?

Не хотите ли вы ознакомиться с городом?

Shahar aylanish qancha vaqt oladi?

Сколько времени займёт осмотр города?

Toshkentda sayohat avtobuslari bormi?

Есть ли в Ташкенте экскурсионные автобусы?

Vokzalga qanday boriladi?
Hozir biz qayerda turibmiz?
Hozir biz shahar markazida
turibmiz.

Как проехать к вокзалу?
Где мы находимся сейчас?
Сейчас мы находимся в центре
города.

34-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga soʻz yasovchi qoʻshimchalarning mosini qoʻyib, oʻrin-joy maʼnolarini anglatuvchi soʻzlarni namunadagidek yasang. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: mehmon-mehmonxona.

Sayil, orom, osh, daraxt, toʻy, kitob, paxta, gul, dars, qabul, lola.

35-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga berilgan joy nomlarini anglatuvchi soʻzlardan mosini qoʻyib koʻchiring.

1.Oltin barkashdek yarqiroq quyosh ... nur sochib turibdi. (H. Gʻ.)
2. ... yoqimli tong shabadasi gʻir-gʻir esmoqda. (H.N.) 3. Anora bugun ... odatdagidan barvaqt keldi. 4. Quvnoq bolalar bilan liq toʻla mashina qosh qorayganda ... kirib keldi. 5. ... Farhod togʻlari yarqiraydi. 6. Bizning ... Yoʻldosh ota degan bogʻbon bor. 7. Sen ... borib yurma, ... tura tur. 8 Murabbiy talabalarni sayohatga olib bordi.

Soʻzlar: *koʻkda, Amir Temur muzeyiga, universitetdan, bogʻda, shaharga, uzoqda, qishloqda, u yerga, bu yerda.*

36-topshiriq. Berilgan gaplarning tinish belgilarini qoʻyib koʻchiring, makon munosabatlari ifodalangan soʻzlarni aniqlang.

1. Bu yerlarda yashash va mehnat qilishning oʻzga zavqi oʻzga gashti va oʻzga latofati bor. (Shuhrat) 2. Mashhur olimlar shoirlar meʼmorlar sanʼatkorlar shu zaminda yashar edilar. 3. Shaharda ozgina ish qilsam charchab qolardim bu yerda boʻlsa sira-sira charchamayman. 4. Uyining atrofidan bir necha marta aylandik uchib ketganmi yerga kirganmi hech yerda yoʻq. 5. U kishi Sadaqayragʻoch tagidagi supaga joy soldirib talabalarga shu yerda dars bera boshladilar (H.Gʻ.) 6. Yoʻlovchilar baʼzan yalanglikda tunab qolar baʼzan karvonsaroylarga tushib bir-ikki kun dam olar edilar.

37-topshiriq. Quyidagi soʻzlar ishtirokida makon munosabatlari ifodalangan gaplar tuzing.

Koʻchaga, bozorda, universitetga, daladan, uyga, chegaragacha, Vatandan, mahallada.

38 – topshiriq. Quyidagi gaplarni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

1. Большая беда остановила часы города Ташкента 26 апреля 1966 года. 2. В нашей семье есть свои традиции. 3. Слухи о поэтическом даровании Алишера Навои дошли до многих в Герате. 4. В Африке растёт дерево баобаб, которому более 5000 лет. 5. На территории нашей страны насчитывается свыше 4 000 разновидностей растений. 6. В пустынях среди колючих растений растёт и дерево саксаул. 7. Без тебя я не добрался бы до своего дома. 8. Он тебя везде искал и нигде не мог найти.

39–topshiriq. Makon munosabatlari ifodalangan konstruksiyalarda iboralarni toping.

1. Uydan Maston kampir chiqib, toʻgʻri oʻchoq boshiga yurdi. (M. Ism.) 2. Aʼzamning hafsalasi pir boʻlib, tarvuzi qoʻltigʻidan tushdi. (Sh.) 3. Qani ogʻzinga gap kelsa, tilim oʻlgurga kaltak keldi - qoʻydi. (S. Ahm.) 4. Saidaning yuragiga qil sigʻmas edi. (A. Qahh.) 5. Qani bu yerdan tuyogʻingni shiqillat. 5. U yoshligida shunday shoʻx bola ediki, yerga ursa, koʻkka sakrar edi. 6. Qani endi onam boʻlganlarida, boshimda koʻtarib yurar edim. 7. Rejalashtirilgan ish hamirdan qil sugʻurganday oʻtdi. 8. Tolibjon juda yuvosh, qoʻy ogʻzidan choʻp olmagan yigit edi.

40-topshiriq. Matnni oʻqing va savollar tuzing.



Vatan kabi aziz timsol

Mamlakatimiz parlamenti 1992-yil 2-iyulda qabul qilgan “Oʻzbekiston Respublikasining Davlat gerbi toʻgʻrisida”gi Qonunda Davlat gerbi mustaqilligimiz ramzi ekani huquqiy asosda mustahkamlab qoʻyilishi bilan birga, uning qanday koʻrinishga egaligi yaqqol ifodalab berilgan.

Davlatimiz gerbida xalqimizning tarixi, buguni va kelajagi oʻz aksini topgan. Unda togʻlar, daryolar va soʻl tomoni bugʻdoy boshloqlaridan, oʻng

tomoni esa chanoqlari qiyg'os ochilgan go'za shoxlaridan iborat chambarakka o'ralgan, gullagan vodiya uzra quyosh zarrin nurlarini sochib turibdi.

Gerbning yuqori qismida sakkizburchak, uning ichki qismida yarim oy va yulduz, markazida Xumo qushi tasvirlangan. Pastki qismida yurtimiz Davlat bayrog'ini ifoda etuvchi chambarak tasmaiga "O'zbekiston" deb yozib qo'yilgan.

Biz uchun suyuq va buyuk ana shu yorqin tasvirdagi har bir chiziq, har bir rang, har bir belgida muayyan ramziy ma'nolar mujassam.

Gerbda o'z ifodasini topgan jannatmonand diyorimiz husn-tarovatiga ishorat etuvchi manzaralar - tog', daryo, bug'doy boshog'i, go'za va chanoqlar xalqimizning tinchlik, yaxshilik, baxt-saodat, farovonlik yo'lidagi orzu-umidlari ifodasi-quyosh, yarim oy, yulduz – jamiyatimiz jipsligi belgisi, shuningdek, omad, himmat, olijanoblik, erksevarlik va fidoyilik ramzi bo'lgan afsonaviy Xumo qushi - bularning barchasi millatimiz, xalqimiz hayoti, tarixi, ruhiyati va an'analari bilan chambarchas bog'liq timsollardir.

Gerbimizda markaziy o'rin tutuvchi Xumo qushi ramzini olib ko'raylik. Manbalarga qaraganda, xalqimiz Xumoni azaldan davlat qushi sifatida tasavvur qilib kelgan. Zaminimizda necha ming yillar ilgari paydo bo'lgan afsonalarda Xumo go'zal qush qiyofasidagi baxt, taqdir va badavlatlik timsoli hisoblangan.

Shu ma'noda, O'zbekiston xalqlarining shon-sharafi, g'ururi, tarixiy xotirasi va intilishlarini o'zida mujassamlashtirgan gerbimiz jonajon Vatanimizning betakror timsoli, o'ziga xos va o'ziga mos davlat ramzlaridan biri bo'lib qolgani bejiz emas.

Davlat gerbi tasviri muhrlarda va davlat idoralari maxsus bosma qog'ozlarida, rasmiy nashrlarda, qog'oz va tanga pullarda, qimmatli qog'oz va obligatsiyalarda, fuqarolik pasportlarida hamda qonunda belgilangan boshqa o'rinlarda aks ettirilgan.

Mamlakatimizda davlat ramzlari, shu jumladan, Davlat gerbi ham qonun bilan muhofaza qilinadi. "O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbi to'g'risida"gi Qonunda belgilanganidek, O'zbekiston fuqarolari, shuningdek, O'zbekistonda istiqomat qiladigan boshqa millat vakillari O'zbekiston Respublikasining Davlat gerbini hurmat qilishlari shart.

Davlat ramzlariga bo'lgan munosabatimiz, birinchi galda, shu ramzlar to'g'risidagi qonunlarni puxta o'rganish va ularga so'zsiz amal qilishimizda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

Davlat gerbining takrorlanayotgan tasviri, uning katta-kichikligidan qat'iy nazar, qonunda tasdiqlangan tasvirga mos bo'lishi kerak. Bu, o'z navbatida, gerbni nafaqat o'rnatish yoki tasvirini tushirish, balki targ'ib etish jarayonida ham uni qabul qilingan tasnif asosida to'g'ri talqin etishni taqozo qiladi.

O'zini mana shu tabarruk zamin fuqarosi deb bilgan, o'z mamlakati, xalqi bilan cheksiz faxrlangan har bir inson gerbimizni, shu singari boshqa bebaho ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarimiz bo'lgan davlat ramzlarini Vatanimiz kabi aziz va muqaddas deb e'tirof etishi, e'zozlashi tayin.

41-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Создание централизованного государства

Для создания централизованного, сильного государства необходимо было положить конец междоусобицам и распрям не только Мавераннахре, но и в Хорезме. Мирные переговоры Тимура с эмирами Ташкента, Термеза, Гиссара, Бадахшана и Кундуза увенчались успехом. Эти провинции признали власть Тимура. Провинции Герат, Хорезм и Шибирган ему пришлось усмирять силой.

42-topshiriq. Qayer, qayerga, qayerdan, qayerda, qayerning, qayerni, qayergacha kabi savollarga javob beruvchi so'zlarni toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

43-topshiriq. Nuqtalar o'rniga berilgan so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1. Erta bahor quyoshi kecha yog'ib o'tgan yomg'irning namini ... sug'urib olayotir. 2. O'tgan hafta Niyoz ota yarim qopcha o'g'it keltirib, ... sepib berdi. 3. Otam bugun ... ketdilar. 4. ... chiqishda otlar taqa-taq to'xtab qoldi. 5. Qalin ... qandaydir yot ovoz eshitildi. 6. Kechga yaqin ... jimlik cho'kdi.

So'zlar: uyda, butalar orasidan, dalemizga, yerdan, dam olish uyiga, urug'

44-topshiriq. Matnni o‘qing va savolli reja asosida so‘zlab bering.

O‘zbekistonning jahon iqtisodiyotidagi o‘rni

Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning turli mamlakatlari bilan tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, rivojlantirib bormoqda. Respublika Jahon bozorida yuksak mavqelarga erishib, ishonchli hamkorga aylanib, jahon xo‘jaligi munosabatlari tizimida faol ishtirok etmoqda. Buning uchun hamma zarur shart-sharoitlar yaratilmoqda. “Chet el investitsiyalari haqida” va “Chet el investorlari huquqlarini himoya qilinishi va kafolatlanishi haqida” Qonun qabul qilindi. Dunyoning 35 mamlakati bilan savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida shartnomalar imzolandi.

Tashqi savdo faoliyatida import va eksport tuzilmasida ijobiy siljishlar ro‘y bermoqda. Respublikada eksport salmog‘ini oshirish uchun dastur ishlab chiqildi va qabul qilindi. Bu dasturni amalga oshirish uchun dastur ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta‘minlash zarur. Bunga esa faqat chet el investitsiyalarini jalb qilib, korxonalarni texnik ta‘minlash orqali erishish mumkin. Yangi hamkorlar qidirish, yangi qo‘shma korxonalar tashkil qilish kerak. Respublikani jahon bozoriga o‘tishning yangi yo‘llarini izlash kerak.

O‘zbekiston avtomobil korxonalarining mahsulotlari Rossiya bozori bilan bir qatorda Minsk va Buxarest bozorlarida ham o‘z haridorlarini topmoqda. Yaqin orada, Varshava bozorida ham korxona o‘z mahsulotini sotuvga qo‘yishni rejalashtirmoqda. Shunday qilib, O‘zbekiston avtomobil korxonasining sifatli mahsulotlari jahon bozoriga ishonch bilan kirib bormoqda.

Lug‘at

Vatan – (Родина) insonning dunyoga kelib, voyaga etgan joyi, makoni

O‘zbekiston – yagona vatan (Узбекистан – единственная Родина)
O‘zbekistonda tug‘ilib o‘sganlar o‘z vatanlari bilan faxirlanuvchilar uchun yagonadir

Davlatchilik asoslari – (основы Государства) davlatning kelib chiqishi, tuzilishidagi dastlabki eng zarur omillar

Halqaro aloqalar – (Международные отношения) mamlakatlarning o‘zaro iqtisodiy – siyosiy, madaniy- ma’rifiy, ijtimoiy- huquqiy va boshqa sohalardagi munosabatlari

Tarixiy joy nomlari – названия исторических местностей

Xronologik ma'lumotlar – (хронологические справки) **ma'lum tartib** – ketma – ketlik asosida yig'ilgan **ma'lumotlar**

Tarihiy sanalar – исторические даты

Asosiylarini ajrata bilish – умение выбирать самые важные

Qayta hikoya qila olish – уметь пересказывать

Ma'lum dalil va asoslarga suyanagan holda – основываясь на определенные факты и материалы

Davlatchilikning shakillanishidagi o'rni – место в развитии Государственности

45-topshiriq. Quyidagi sxemalar bo'yicha gaplar tuzing.

1.....qayerga...-sa, o'sha yerga..... .

2.....qayerda ...-sa, o'sha yerda..... .

3.qayerga ...-sa, o'sha yerda..... .

4.....-mang, u yerda..... .

5.....-masin, o'sha yerda..... .

6. Qayerda, shu yerda..... .

46-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Вес слова в международных отношениях

Слово играет важную роль в межгосударственных отношениях, а также и во всей дипломатической деятельности. Главным оружием в дипломатической деятельности является слово, которое дает или отнимает власть над ходом событий. Слово должно быть взвешено, рассчитано на всевозможные реакции, прежде чем оно произнесено.

В истории дипломатии много случаев и примеров, когда слово, идущее во внешний мир от имени того или иного государства, будучи неосторожным или двусмысленным, наносило вред своему государству.

Слово, произносимое официальными представителями государства, обладает способностью становиться фактом международной жизни, приводить в движение сложные механизмы взаимоотношений между прямо или косвенно заинтересованными сторонами. Такое слово – обоюдоострый инструмент.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Vatan deganda nimani tushunasiz?
2. Har bir yurtida yashovchi kishi vatanparvar bo'la oladimi?
3. Ona yurtigizga qanday xizmat qilmoqchisiz?
4. "Ona yurtim - oltin beshigim" degan hikmatli so'zning ma'nosi nima?
5. Shoirlar Vatanni ulug'lagan qaysi she'rlarni bilasiz?
6. "Biz o'z Vatanimizni sevamiz, bu biz uchun nafas olayotgan havodir" shu hikmatli so'zning ma'nosi nima?

Buni bilasizmi?

SABR

Sabrli odam igna bilan quduq qaziydi.

Italyan maqoli

Kuchimizga qaraganda sabrimiz ko'p narsani hal qiladi.

Edmand Burk

Sabr - yuk ostida qolib shikoyat qilmaslikdir.

Georg Garneil

Kichik muammolar qarshisida sabrli bo'lmaganlar, katta rejalarni amalga oshira olmaydilar.

Xitoy maqoli

G'alaba - eng ko'p mashaqqat deganidir.

Napoleon

Rim bir kunda qurilgan emas.

Anonim

Qiziqqan odam bir oy sabrli bo'lsa, yuz kunlik pushaymondan qutiladi.

Xitoy maqoli

Sabr – ruhiyat olamida jabr – sitam tortish demakdir.

Anonim

Qum soatining ko'z oldingga keltir. Shovqin - suron yoki shoshilish bilan hech narsaga erisholmaysan. Qum zarralarining bir tarafdan ikkinchi tarafga o'tishini kutishga majbursan.

Jon Margenston

Sabr o'rta yoshli ayolni nam go'zallashtiradi.

Isaak Nuyuton

UNIVERSITETIM BILAN FAXRLANAMAN.

(Ob'jekt munosabatlarining ifodalanishi)

47-topshiriq. Matnni o'qing va matnga savollar tuzing



Universitetimiz tarixidan

Hozirgi zamon jamiyati taraqqiyoti shu narsani ko'rsatadiki, fuqarolik jamiyati taraqqiyoti zamon talabiga javob bera oladigan yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlashni taqozo etadi.

1918-yilda O'zbekistonda iqtisodchi xodimlarning shakllanishiga asos solingan. O'rta Osiyodagi xalq ta'limining birinchi ilm o'chog'i va birinchi o'quv muassasasi hamda iqtisodchi xodimlar tayyorlashga qo'l urgan maskan 1918- yil may oyida tashkil etilgan Turkiston milliy universitetidir.

Iqtisodchi xodimlarga ehtiyoj inqilob va fuqarolar urushi yillarida xarob etilgan o'lkani qayta tiklash davrlarida sezilarli darajada ortib ketdi. Mutaxassislarga talab ortib borayotganligini hisobga olib, 1931- yil avgustda SSSR Xalq Komissarlar Kengashi qaroriga asosan milliy universitetning iqtisodiyot va jamiyatshunoslik fakultetlari asosida O'rta Osiyo moliya-iqtisodiyot instituti tashkil etildi, natijada O'rta Osiyo respublikalarining moliya-kredit tizimlari uchun xodimlar tayyorlab beruvchi Toshkent moliya-iqtisodiyot instituti vujudga keldi.

1931-yilning birinchi sentabrida institutda birinchi qo'ng'iroq chalilib, mashg'ulotlar universitet uchun mo'ljallangan avvalgi eski binoda boshlandi.

Birinchi bino 1920- yil oxirlarida qurilgan edi. 1970-yillarda bu bino qurilishining davomi bo'ldi. U yalpi o'quv korpusi nomini oldi. Keyinroq yangi korpus bilan yonma-yon laboratoriya binosi qurildi. Unda informatika fakulteti, hisoblash markazi va bir qator laboratoriyalar joylashdi. Yangi binoda reja fakulteti va o'quv-ilmiy markaz, G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti filiali joylashgan bo'lib, u 1990- yilda qurildi.

1990- yili 14 qavatli ma'muriy bino ishga tushdi. Talabalar yotoqxonasining 2-binosi 1970- yilda, 3-binosi 1980- yillarda qurib bitkazildi. Universitet hududida yana boshqa madaniy-maishiy binolar qurilmoqda.

1981- yilda universitet yuqori malakali iqtisodchi xodimlar tayyorlashdagi yuksak xizmatlari uchun va Toshkent xalq xo'jaligi instituti

tashkil etilganligining 50 yilligi munosabati bilan “Xalqlar do‘stligi ordeni” bilan mukofotlandi.

1991-yil iyun oyida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaroriga binoan Toshkent xalq xo‘jaligi instituti Toshkent davlat iqtisodiyot universitetiga aylantirildi.

48-topshiriq. Meni, seni, uni, bizni, sizni, ularni so‘zlarini qo‘llab, savollarga javob bering.

– Bu o‘qituvchini bilasanmi?

–

– Siz meni tushunasizmi?

–

– Do‘stlaringiz sizni yaxshi ko‘radilarmi?

–

– Marat va Temurni ko‘ryapsizmi?

–

– U kimni biladi?

–

49-topshiriq. Ob‘yekt munosabatli konstruksiyalarni qo‘llagan holda savollarga javob bering.

Siz qachon va qaysi maktabni bitirgansiz? Universitetning qaysi fakultetida siz tahsil olyapsiz? Siz qaysi fanlardan test topshiriqlarini bajargansiz? Sizda hozir qanday fanlardan ma‘ruza va amaliy mashg‘ulotlar bo‘lyapti? Universitetni bitirib, siz qayerda va kim bo‘lib ishlamoqchisiz?

50-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Men bu haqda so‘radim. 2. Dekan gapirdi. 3. Talaba topshirdi. 4. Ma‘muriyat talabalar uchun hamma yaratayapti. 5. Bu maqola kim..... tarjima qilingan? 6. Yosh maslahatlarim ko‘p. 7. Unda ilmga havas katta edi. 8. Uchinchi bosqich talabalari tinglayaptilar.

(imtihon, yoshlikdan, o‘qituvchidan, tomonidan, ma‘ruza, intizom to‘g‘risida, sharoitni, talabalar uchun)

51-topshiriq. Quyidagi gaplarning xatolarini tuzatib ko'chiring.

Aql yoshga emas, boshga. Universitetda bu yil katta qurilish ishlarini olib borilyapti. Ertalab chiqqan quyoshni tushga yaqin bulut pardalari yuzini bekitdi. Xadicha xola bu gapning eshitib, boshidan ro'moli tushib ketdi. Men Narzi yoniga bo'lib, uni qutqarishim kerak edi.

Quyidagi matnlarni tarjima qiling

Третий век служит науке

Английский мыслитель, социальный реформатор и юрист Иеремия Бентам (1748-1832) оставил неизгладимый след в истории. Провозгласив основой нравственности и критерием человеческих поступков исключительно пользу (выгоду), он не только строго следовал этому убеждению всю жизнь, но не хотел изменить ему и после смерти. Органы своего тела Бентам завещал использовать для медицинских исследований, а скелет хранить, «обрядив в приличную одежду». И до сих пор скелет ученого, облаченный в его собственный костюм и увенчанный посмертной восковой маской, гостеприимно встречает студентов Университетского колледжа в Лондоне, являя наглядный образец философии утилитаризма, родоначальником которой он стал.

* * *

В США крупнейшим инвестором страны является пенсионный фонд профсоюза учителей. В этом фонде накапливаются сбережения учителей, которые затем служат основой для выплаты им пенсий. И чтобы размер этих пенсий был побольше, пенсионный фонд вкладывает временно свободные денежные средства в ценные бумаги правительства США и наиболее надежных и прибыльных фирм страны. Выигрывают и фирмы – они получают инвестиции, и учителя, которые получают доход по ценным бумагам, что позволяет им в старости жить более обеспеченно.

* * *

Банк Медичи в XV в. стал одним из крупнейших в Европе, что позволило членам этой семьи на 300 лет стать правителями города-государства Флоренции и добиться титула герцогов. Впрочем, для обеспечения защиты своих экономических интересов Медичи не ограничились герцогством. Действуя по проверенной схеме, они

сначала создали банк при престоле папы римского, а затем возвели на этот престол последовательно двух членов своей семьи.

Известны Медичи и как величайшие покровители искусства и науки: именно благодаря им Флоренция стала одним из прекраснейших городов мира. И это тоже имело экономические корни. Такой деятельностью Медичи как бы замаливали свои «банкирские грехи». Дело в том, что тогда банковский процент рассматривался церковью как... налог на время (в данном случае — время пользования заемными деньгами). А время, по мнению отцов церкви, есть дело Бога. Следовательно, банкиры наживаются на том, что принадлежит только Богу, и потому впадают в грех.

Og‘zaki nutqni o‘stirish uchun istak, niyat, xohish bildirish namunalari

Men istardimki....	Я желал бы.....
Men xohlardimki	Я хотел бы
Mening niyatim	Моё желание (пожелание) ...
Sening istaging	Твоё желание.....
O‘z xohishi bilan	По своему (собственному) желанию...
Siz bilan gaplashishni.....	желанию...
- sizga yordam berishni	Я хотел бы....поговорить с Вами, помочь Вам,проводить Вас.
- sizni kuzatib qo‘yishni istardim.	
Siz bilan gaplashib.....	
-sizdan so‘rab,.....	Мне надо поговорить с Вами
-sizdan bilib olishim kerak.	
Bir oz dam olsak.....	 спросить Вас, узнать у Вас.
- ozroq tanaffus qilsak....	Хорошо бы нам немного отдохнуть,
- hammamiz to‘planishsak...	
- ishdan keyin uchrashsak....	сделать небольшой перерыв,
- kinoga borsak....	собраться всем вместе,
- shahar tashqarisiga chiqsak.	
U	сходить в кино, поехать за город
- menga telefon qilsin.	
- mening oldimga kirsin.	
- meni (bizni) kutib tursin.	Пусть он.....

Men boshqa ishga o'tmoqchiman.
Men institutga kirmoqchiman.

позвонит мне,
зайдёт ко мне,
подождёт меня (нас).

Я собираюсь перейти на другую
работу.
Я думаю поступить в институт.

52-topshiriq. Quyida berilgan kichik matnni o'qing va mazmunini so'zlang.

Sharafli kasb

Ustoz - o'qituvchi. Bu ulug' nom, mag'rur jaranglaydi... Ustoz ko'rmagan shogird har maqomga yo'rg'alar, degan xalq maqoli bor.

Demak, jamiyatimizda, hayotimizda, turmushimizdagi barcha sohaning o'z ustasi, o'z ustoz, o'z murabbiysi, rahnamosi bor deganidir. U muhandismi, usta-duradgormi, shifokormi, bastakormi, haykaltaroshmi, rassommi unga dastlabki bilim, ko'nikma va malaka beruvchi, to'g'ri yo'l ko'rsatuvchi shaxs ustoz-murabbiy hisoblanadi.

Qadim-qadimdan ustoz va shogirdlikka katta ahamiyat berilgan. Agar biror bolani madrasaga o'qishga yoki biror kasb-hunar egallashga olib kelinsa, ustoziga "Eti sizniki, suyagi bizniki", - deyishgan. Bu bilan ota-ona o'z farzandining savodli yoki biron hunarning mohir ustasi bo'lib chiqishini yurak-yurakdan istab qolgan.

Xalqimiz ilm-hunar o'rgatuvchiga yuksak baho berib, "Ustoz otangdan ulug'" deyishining boisi ham shu.

Bu mavzuga mumtoz adabiyotimizda ham keng o'rin berilgan. Bu Alisher Navoiy ijodida ham yaqqol ko'zga tashlanadi. Shoir o'qitish va o'qish masalasiga jiddiy e'tibor beradi. U o'qituvchilik kasbini g'oyat ulug'lab, mashaqqatli va ayni chog'da sharafl bo'lgan bu kasb egalarining mehnatiga yuksak baho beradi.

53-topshiriq. Berilgan so'z birikmalarni tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Его мечты; студент университета, наша учебная комната; выполни задание, поздравил студентов; добиться больших успехов, интерес к науке; в мечтах, место в жизни; с детства, быть благодарным родителям.

54-topshiriq. Savollar o‘rniga ob’jekt munosabatlarini ifodalovchi so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

Biz (nimani?) g‘ayrat bilan tayyorlayapmiz. Men kecha kutubxonada (kimni?) ko‘rdim. Asadbek o‘zini (qayerga?) olishga harakat qildi. Men (kimga?) bayram dasturxonini tuzashda yordam berdim. Ertaga (nimadan?) so‘ng mening uyimga borasizmi?

55-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyidagi berilgan tayanch so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

1. Bugungi kunda O‘zbekiston dunyoning turli mamlakatlari bilan.....rivojlantirib bormoqda. 2. Respublika Jahon bozorida mavqega erishib, ishonchli hamkorga aylanib,faol ishtirok etmoqda. 3. Buning uchun hamma..... yaratilmoqda. 4. Chet el investitsiyalari haqida” va “Chet el investorlari huquqlarini himoya qilinishi va kafolatlanishi haqida”..... . 5. Dunyoning.....savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida shartnomalar imzolandi. 6. Tashqi savdo faoliyatida import va eksport tuzilmasida..... ro‘y bermoqda. 7. Respublikada eksport salmog‘ini oshirish uchun..... va qabul qilindi. 8. Bu..... dastur ishlab chiqarishni zamonaviylashtirish va mahsulot raqobatbardoshligini ta'minlash zarur. 9. Bunga esa faqat..... korxonalarni texnik ta'minlash orqali erishish mumkin. 10. Yangi hamkorlar qidirish, yangi qo‘shma korxonalar tashkil qilish kerak va respublikani.....

Tayanch so‘zlar: (dasturni amalga oshirish uchun , zarur shart-sharoitlar, tashqi iqtisodiy aloqalarni mustahkamlab, jahon xo‘jaligi munosabatlari tizimida, qonun qabul qilindi, 35 mamlakati bilan, ijobiy siljishlar, dastur ishlab chiqildi, chet el investitsiyalarini jalb qilib,jahon bozoriga o‘tishning yangi yo‘llarini izlash kerak.

56-topshiriq. Maqollarni o‘qing va ma’nolarini izohlang.

Ilmli o‘g‘il otadan ulug‘.
Orzuga ayb yo‘q.
Intilganga tole yor.
Oz-ozdan o‘rganib olim bo‘lar.

Образованный сын – почтение отца
Мечта не порок
Стараться будешь –счастья
добудешь

Takrorlash - bilimning onasi.

Кто учится понемногу, мир
покоряет
Повторенье – мать ученья

57-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

О счастье

По-моему, человек должен сам приближать своё счастье. Иначе говоря, надо как можно раньше и как можно смелее вступать в жизнь, помнить: Своими руками делается будущее.

.....На мой взгляд, счастье начинается с уверенности, что ты нужен людям, Родине и готов им служить. Здесь и лежит грань счастья. Ты начинаешь чувствовать себя сильнее и готов отдаться целиком делу, которое тебе доверили.

58-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga kerakli qo‘shimchalarni qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Ishchan yer yashnatur, dangasa yer.... qaqshatur. 2. To‘g‘ri so‘z tosh.... yoradi, egri so‘z bosh.... . 3. Ot.. tepmaydi, it... qopmaydi dema. 4. Oltin o‘t.. bilinar, odam mehnat... . 5. Yaxshi yaxshi... yondashtirar, yomon yo‘l... adashtirar. 6. Do‘st bilan sirdosh bo‘l, ishi.... yo‘ldosh bo‘l. 7. Bekorchi... bemaza gap chiqadi. 8. Yaxshi.... ot qoladi, yomon... dod. 9. Dangasa.... ish buyursang, sen... aql o‘rgatar. 10. Bilim bilan hikmat- oltin... qimmat. 11. Bilim.... ortiq boylik yo‘q. 12. Tiling bilan diling... bir tut. 13. Bosh... aql bo‘lmasa, oyoq... tinim bo‘lmaydi. 14. Yigit kishi... yetmish hunar oz. 15. Kishi... hurmati o‘z qo‘li..... . 16. El... oshma, el... qolishma. 17. Elchi.... o‘lim yo‘q.

59-topshiriq. Quyida berilgan so‘zlarni tartib bilan qo‘yib, gaplar tuzing.

1. Kamida, o‘n, piyoda, yurgan, chaqirim, har, kishi, kuni, boradi, sog‘lig‘ini, mustahkamlab. 2. Buvimlarnikiga, kuzda, boraman, dadam, bilan, har, qishloqqa, yili, men. 3. Tushadi, oyog‘i, mushuk, tomdan, bilan, ham, tashlasang. 4. Osmonda, chaqnay, yulduzlar, boshladi, qoramtir, birin-ketin. 5. Kuni, shanbalik, kutubxonachiga, yordam, fakultet, Aziz, berdi. 6. Yo‘l, tushdan, oldik, so‘ng, bog‘bonlarga, biz, uchun, olmazor, yordam, tomon, berish. 7. Yaxshi, hamisha, kishi, yaxshiroq, xohlayveradi, undan, bo‘lishini, ham, hayot. 8. O‘zidan, istamagan, kishi, qolishni,

doim, ehtiyot, uyalib, bo'лади. 9. Orzu, barchasi, o'qishning, ham, chidayvermaydi, qilganlarning, o'qishning, uni. 10. Uchun, yangi, o'rganish, lozim, doimiy, so'zlarni, til, ravishda, yodlab, bormoq. 11. Gullab-yashnashi, ayamayman, men, uchun, yurtimning, o'z, kuchimni, bor. 12. Lozim, talabalar, bunday, uchun, imkoniyatlardan, yaratilgan, foydalanish. 13. Ko'rkam, yildan, shu, beri, akam, binoda, mana, yetti, ishlaydi. 14. Imkoniyatlaringdan, doim, sen, harakat, har, to'liq, o'z, foydalanishga, qilgin.

60-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.

Bilimlar maskani

Kutubxona – bu kitoblar to'plami saqlanadigan hamda barcha savodxon va ijodkorlar uchun ilm-ma'rifat maskanidir.

Kutubxonalar bir necha ming yillardan beri mavjud. Mamlakatimizda ham dastlabki kutubxonalar bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan. Sharqda kitobni nondek e'zozlaydilar. Sohibqiron Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Husayn Boyqaro, Bobur hukmronlik qilgan paytlarida kutubxonalar madrasalar qoshida, saroylarda bo'lgan.

Vatanimizdagi eng katta kutubxona Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston davlat kutubxonasidir. Bu kutubxona 1870-yilda tashkil etilgan. Kutubxonada dunyoning ko'pgina tillaridagi besh milliondan ortiq kitob mavjud. Bundan tashqari bu kutubxonada O'zbekiston, O'rta Osiyo tarixi, ilm-fani, adabiyoti, madaniyatiga oid bir necha minglab noyob qo'lyozmalar saqlanmoqda.

Samarqand shahri ham qadimiy ilm-fan markazlaridan hisoblanadi. U yerdagi eng katta va boy kutubxona SamDU ning ilmiy kutubxonasidir. Bu kutubxona 1927- yilda tashkil topgan. Hozir bu kutubxonada qariyb uch millionga yaqin ilmiy, badiiy va ilmiy-ommabop kitoblar mavjud.

Lug'at

O'quv yurtim – моё учебное заведение

Istiqbol – (перспектива, светлое, счастливое будущее) har tomonlama o'sish, rivojlanish, kelajagi porloqlik

Fan sirlari cheksiz – (тайны науки безграничны) fanlarni o'rganish hech qachon to'htab qolmaydi, fan sirlari cheksiz –chegasizdir

O'z kasbining ustasi – (мастер своего дела, профессионал) biror kasbni puhta egallagan shaxs

Yetuk mutaxassis bo'lish – стать высококвалифицированным

Soha yo'nalishlari - направления специальностей

Bosqichma-bosqich o'rganish – (поэтапное изучение) biror narsani osondan murakkabga tomon tamoyili asosida o'rganish.

61-topshiriq. Gaplarni tugating.

1. Men ko'rib turibmanki, ... 2. Siz shunga e'tibor beringki,
3. Uning o'zi ham eshitdi-ku, ... 4. Nimaga e'tibor bersangiz, 5.
Ko'nglingiz nimani istasa, 6. Men shunga hayronmanki,... . 7.
Men o'ylaymanki,... . 8. Tan olish kerakki,... . 9. Achinarlisi
shundaki,... . 10. Ta'kidlab o'tish lozimki,.....

62-topshiriq. Gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Мы должны делать то, что требуется по закону. 2. Он понял, что для больших успехов необходимо большое старание. 3. Я возьму себе напарником того, кого вы посоветуете. 4. Вы же знаете, что я не люблю ложь. 5. Мне нравится, что ваше отношение к учёбе изменилось. 6. Нас в детстве учили тому, чтобы мы не прятались от трудностей. 7. Мать хотела, чтобы сын гордился отцом. 8. Я убедился, что он изменился за эти годы. 9. Мне жаль, что он так с тобой поступил. 10. Они поняли, что она никогда не вернётся. 11. Всем ясно, что знание – это сила. 12. Нужно признаться, что в последнее время молодёжь стала агрессивней.

63-topshiriq. Quyida berilgan kichik matndan ob'yekt munosabatlari ifodalangan konstruksiyalarni toping.

.... Samarqandda muttasil qirg yil hukmronlik qilgan Ulug'bek zamonida talaygina yangi binolar qad ko'tardi. Ammo bobosi asosan masjid, maqbaralar qurdirgan bo'lsa, Ulug'bek fan saroylari qurdirish bilan shuhrat topdi. U harbiy shon-shavkat ketidan quvmadi. Hamma narsadan ko'proq uni matematika va astronomiya qiziqtirar edi. Bu fanlar sohasida beqiyos yuksaklikka ko'tarildi, osmon sayyorolari harakatini sharhladi va astronomik jadval yaratib, butun jahonga dong taratdi. O'zi kabi fanga sodiq do'stlari bilan birgalikda osmon sayyoralarini kuzatadigan asboblar yaratdi. Kishilarda ilmu ma'rifatga muhabbat uyg'otishga intildi. Qo'l ostidagi shaharlarda maktab va madrasalar qurdirdi.

64-topshiriq. Kerakli tinish belgilarni qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Biz shunga erishmog'imiz zarurki birorta ham talaba sababsiz darsdan qolmasin. 2. Men shuni istaymanki hamma o'z zimmasidagi vazifani vijdonan bajarsin. 3. Darsni qunt bilan tinglamagan talaba uni yaxshi o'zlashtira olmasligini unutmasligi kerak. 4. Ulug' muallimdan sen olgin o'rnak yulduzlar quyoshdan nurin olgandek. 5. Xalqlar taraqqiy etib o'sa olishi shon-sharafga burkanib muvaffaqiyatli ravishda fikrlay va ishlay olishi uchun - hayotlarining negizida taraqqiyot g'oyalari yotadi. 6. Taraqqiyot tasodif emas balki zaruratdir. 7. Tarix shuni ko'rsatadiki kurashsiz taraqqiyot bo'lishi mumkin emas. 8. Agar fanlar va san'atlar bo'lmaganda inson va insonning hayoti bo'lmas edi.

65-topshiriq. Matnni o'qing va matnda berilgan savolga javob bering.

Matematikasiz yashash mumkin emas.

Bu voqea Amerikadagi kichik bir shaharda bo'ldi. Tyuson maktabida "Matematikasiz kun" o'tkazmoqchi bo'ldilar.

O'sha kuni sanash, soat va taqvimdan, ya'ni har qanday raqamdan foydalanish mumkin emas edi. Shuning uchun maktabda tartib qolmadi.

Kunning oxiriga kelib ishyoqmas o'quvchilar ham matematikasiz yashash mumkin emas, dedilar. Shuning uchun ular matematikani yaxshi o'rganishga va'da berdilar.

Hamsuhbatlaringizdan so'rang, qaysi fanlar bo'yicha bilimsiz yashash mumkin emas va nega?

66-topshiriq. Quyidagi maqollarni izohlang.

Kimki bo'lsa dilozor, undan elu yurt bezor.
Kimki oro kirmas joningga, sherik bo'lmasin u shirin noningga.
Kimki ilmga qo'lini ursa, u minglab buloqni cho'l tomon burgan bo'ladi.

Ilm ko'pu umr oz, keragini olu toshga yoz.
Bilim- boylik axir, zavoldan yiroq,
Uni ola bilmas qaroqchi biroq.
Oz-oz o'rganib dono bo'lur.
Bilmaganin so'rab o'rgangan olim,
Orlanib so'ramagan o'ziga zolim.
Olim bo'lsang, olam seniki.

67-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni tartib bilan qoʻyib, gaplarni koʻchiring.

1.Egalarining, har, nafi, koʻpchilikka, aql-idrok turadi, doim, tegib. 2. Qoronqi, mashʼalga, oʻquv-idrok, oʻxshaydi, tundagi. 3.Kishi, kepakka, teng, hovuch, bilan, bir, oʻquv-idroksiz. 4.Aslida, oʻxshash, bilim, boylikka, bitmas-tuganmas. 5.Insonni, saqlaydi, xayrli, turli, va halokatlardan, ishlar, savobli. 6.Voz, asosi, ham, fandan, boʻlmagan, kechsa, boʻladi. 7. Insonning, har, bajarishda, bir, qadr-qiymati, ishini, oʻz, qoyil, qilib. 8.Mevasidir, qaytarish, bilim, takrorlash,va.

Ogʻzaki nutqni oʻstirish uchun maʼlumot soʻrash namunalari

Siz kimsiz? Siz kim boʻlasiz?	Кто вы?
Qayerda ishlaysiz?	Где вы работаете?
Kim boʻlib ishlaysiz?	Кем вы работаете?
Men oʻqiyman.	Я учусь.
Men ishlayman va oʻqiyman	Я работаю и учусь
Ismingiz nima?	Как Вас зовут?
Bu qaysi koʻcha?	Эта какая улица?
Bu qanday bino?	Это какое здание?
Ayting-chi, Markaziy telegraf qayerda joylashgan?	Скажите, пожалуйста, где находится Центральный телеграф?
Qayerdan telefon qilish mumkin?	Откуда можно позвонить?
Siz qayerda yashaysiz?	Где вы живёте?
Soat necha boʻldi?	Который час?
..... qachon boshlanadi?	Когда начинается...
..... qachon tayyor boʻladi?	Когда будет готово.....
..... necha pul?	Сколько стоит....
Ayting-chi....	Скажите, пожалуйста,...
..... qayerdaligini ayta olasizmi?	Могли бы вы сказать, где....?
..... bilmaysizmi?	Не знаете ли вы.....?
..... qayerdan sotib olsa boʻladi?	Где можно купить....?
Qanday yangiliklar bor?	Что нового?
Sizga nima boʻldi?	Что с вами?
Bu nima ekan?	Что это такое?

1. TDIU qachon tashkil topgan? Uning tarixi haqida nimalarni bilasiz?
2. Universitetning tamal toshini qo‘yganlardan kimlarni bilasiz?
3. Universitetimizdan qanday mashhur kishilar yetishib chiqqan?
4. Universitetimizning boshqa Oliy o‘quv yurtlari bilan bo‘lgan munosabatlari haqida so‘zlab bering.
5. Universitetda qanday fakultetlar bor? Ularda qanday mutaxassislar tayyorlanadi?
6. Universitetimiz qanday nomlar bilan yuritilgan? TDIU qachon va nima uchun “Xalqlar do‘stligi” ordeni bilan mukofotlangan?
7. O‘zbekistonda iqtisodchi xodimlarni shakllantirishda universitetimizning tutgan o‘rni qanday?

Buni bilasizmi?

AZM – SHIJOAT

Achiqni totmagan, shirin nimaligini bilmaydi.

Olmon maqoli

Umidini yo‘qatgan kishining yo‘qotadigan boshqa narsasi yo‘q.

Bolse

Yo‘ bir yo‘l topamiz yoxud o‘zimiz quramiz.

Hanni Bal

Dunyo g‘am-g‘ussasi bilan to‘la bo‘lish bilan birga, buni yengish yo‘llari bilan ham to‘ladir.

Helen Keller

Etti marta yiqil, sakkiz marta o‘rningdan tur.

Yapon Maqoli

Bolg‘a shishani chil – parchin qiladi, biroq cho‘yanni yanada toblaydi

Rus xalq maqoli

Azm bor joyda yana bir yo‘l bordir

Gerg Klason

“Hozir voz kech”, baribr qo‘lingdan kelmaydi! “Ana shu” tavsiyaga aldamasangiz, yo‘lning yarmini bosib o‘tgan bo‘lasiz.

David Zucher

Udalamoqning yagona yo‘li chidamoqdir

Dan O‘brayn

Inson azm – shijoati nisbatida kuchlidir

Anonim

INSON VA JAMIYAT

(Maqsad munosabatlarining ifodalanishi)

68-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.

Mening shaxsiy konstitutsiyam

AQSH Konstitutsiyasini yaratuvchilardan biri amerikalik davlat arbobi va alloma Benjamin Franklin (1706-1790) edi. Benjamin bolaligidanoq insonga omad keltiruvchi narsalar va uni ulug' insonga aylantirish haqida ko'p bosh qotirgan. Maktabda ikki marotaba arifmetikadan "pachavasi chiqqani"dan keyin darslikni qo'lga oldi va uni mustaqil o'qib o'zlashtirdi. Ana shu harakatni u o'zining ilk mustaqil qadami deb bilgan.

Keyin u o'z turmush tarzini belgilab bergan va uning shaxsiy konstitutsiyasiga aylangan qoidalar ro'yxatini o'zi uchun tuzib olgan edi, jumladan:

1. *Mo'tadillik.* Har ishda.
2. *Jimlik.* Behuda suhbatlardan nariroq yurish.
3. *Batartiblik.* Har bir narsa o'z o'rnida bo'lsin; har ishni o'z vaqtida qilish.
4. *Qat'iylik.* Bajarishi shart bo'lgan ishlarni qat'iyat bilan ado etish.
5. *Tejamkorlik.* Isrofgar bo'lmaslik.
6. *Tirishqoqlik.* Vaqtni behudaga o'tkazmaslik, hamisha qandaydir foydali ish bilan mashg'ul bo'lish.
7. *Samimiylilik.* Aldamasdan fikrlarni toza va odil ifodalash.
8. *Odillik.* Nohalol harakatlar bilan birovga zarar yetkazmaslik.
9. *Bosiqlik.* Zo'ravonlikdan, alamzadalik va adolatsizlikdan tiyilmoqlik.
10. *Ozodalik.* Tanani ozoda tutib, kiyim-kechak va turar joyda ozodalikka rioya etish.
11. *Osoyishtalik.* Behuda narsalar va odatiy yoki muqarrar vajlardan bekorga tashvishlanmaslik.

69-topshiriq. Chap ustunda joylashgan siyosiy atamalarning har biriga o'ng ustundagi ta'riflardan mosini toping.

Davlat	Umumiy ishlarni hal qilishda ishtirok etish bo'yicha alohida majburiyat va huquqlarga ega bo'lgan kishi.
--------	---

Davlat ramzlari	<i>Jamiyatning asosiy negizi</i>
Konstitutsiya	<i>Xalq tomonidan saylangan vakil</i>
Qonun chiqaruvchi hokimiyat	<i>Qonunlarni ijro etish va kundalik umumiy ishlarni hal qilish asosiy vazifasi bo'lgan davlat hokimiyati tarmog'i</i>
Deputat	<i>Qonunlarni ishlab chiqish va qabul qilish bilan shug'ullanuvchi davlat hokimiyati tarmoqlaridan biri</i>
Fuqaro	<i>Egalik qilish, foydalanish, tasarruf etish huquqi</i>
Oila	<i>Gerb, madhiya, bayroq</i>
Mulkdorlik huquqi	<i>Umumiy ishlarni hal qilish uchun butun jamiyatni uyushtirish</i>
Ijro etuvchi hokimiyat	<i>Davlat tuzilishini mustahkamlab qo'yuvchi asosiy qonun</i>

70-topshiriq. Gaplarni davom ettiring.

- | | |
|----------------------------|-------------------------|
| 1. Davlat - bu.... | 4. Soliq- bu..... |
| 2. Referendum - bu.... | 5. Qonun- bu.... |
| 3. Huquqbuzarlik - bu..... | 6. Demokratiya- bu..... |

71-opshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

Oilada burchlarning taqsimlanishi

Oila - mustahkam qo'rg'on: u turli yoshdagi, fe'l-atvori, kasb-kori, e'tiqodi, turfa xil kishilar boshini qovushtiradi. Ulardan har biri alohida olganda- shaxs, birgalikda esa qarindoshlar, oiladir. Oila a'zolarini mehr-muhabbat, o'zaro tushunish, madad berish istagi bog'lab turadi. Uyda qandaydir ishni bajara turib, biz bir-birimizga yordam beramiz.

Ko'pgina oilalarda farzandlar ota-onalariga uyni yig'ishtirish, ovqat tayyorlash, hayvonlarga qarash va hokazo uy yumushlarini bajarishda yordam berishga intiladilar.

Davlatimiz oila a'zolari burchlarini bajarishini zarur va muhim deb hisoblaydi hamda bu narsani Konstitutsiyada mustahkamlab qo'ygan: "Ota-onalar o'z farzandlarini voyaga yetgunlariga qadar boqish va tarbiyalashga majburdirlar" (64-modda).

Ota-onalar farzandlari voyaga yetgunga qadar ularning xatti-harakatlarini nazorat qilgan holda bolalari bilan birgalikda hal qiladilar. Masalan, ota-onalar farzandlari qayerda yashashini, qanday ovqatlanishi kerakligini, qanday kiyim kiyishini, qanday ta'lim olishini hal qiladilar, ularning salomatligi va rivojlanishi xususida qayg'uradilar.

Aynan shu narsa ota-onalarning burchi bo'lib, farzandlariga g'amxo'rlik qilishga, ularga yordam berish va muhofaza etishga qaratilganidir. Basharti, oilada o'zaro bir-birini tushunish, bir-biriga mehribonlarcha munosabat va g'amxo'rlik muhiti qaror topsa, ota-onalar farzandlariga o'z irodasini o'tkazishiga hojat ham qolmaydi.

Ayrim oilalarda esa qandaydir ishni ota-onalari xohlaganidek qilmagani uchungina bolalarga tanbeh beradilar.

72-topshiriq. O'qing va gapirib bering.

<i>Ota-ona burchlari</i>	<i>Farzand burchlari</i>
Sog'lom farzandni dunyoga keltirish.	Ota-onani hurmat qilish.
Unga chiroyli ism berish.	Ularni dillarini ranjitmaslik;
Tarbiya berish.	Itoatli bo'lish.
Ilm o'rgatish.	Keksayganda moddiy va ma'naviy qo'llab – quvvatlash.
Kasb-hunarli qilish.	Ularning do'stlari,
Balog'atga yetganda	birodarlarining
uylantirish.	ham izzat-hurmatini joyiga
Hayotda to'g'ri yo'l ko'rsatish.	qo'yish.
	Olamdan o'tganlarida
	xotiralarini doimo qadrlash va
	yodda saqlash.
	Oilaning axloqiy-ma'naviy
	poyde-vorini mustahkamlash,
	saqlash. An'analarni doimiy
	davom ettirish.

73-topshiriq. *Maqsadida, niyatida, umidida* kabi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Bugungi kunda O'zbekiston dunyo mamlakatlari bilan munosabatlarni mustahkamlash **maqsadida** tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib bormoqda.

74-topshiriq. Namunalarga qarab gaplar tuzing

<i>Bog'lovchi vositalar</i>	<i>Gaplar</i>
1. ... deb, ...	Saylovga boraman deb, bugun erta turdim.
2. ... uchun, ...	Fuqaro burchlarini chuqurroq o'rganish uchun "Konstitutsiya" kitobidan foydalandim
3...-sin deb,	Kursdoshim o'z burchini bilsin deb, "Talaba burchlari" kitobini tavsiya etdi.

75-topshiriq. Quyidagi matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Понятие «гражданин» существовало в истории не всегда. В древности принадлежность человека к роду или племени определялась по признаку кровного родства. Позже, когда перестали жить в общине, родственные отношения потеряли прежнее значение. Начали создаваться государства. Люди жившие на территории того или иного государства, становились его гражданами т.е. брали на себя обязательство соблюдать законы этой страны. Государство, в свою очередь, с помощью законов заботилось о своих гражданах и защищало их интересы.

76-topshiriq. Quyidagi sxema bo'yicha gaplarni davom ettiring.

Namuna:Respublika jahon xo'jaligi munosabatlari tizimida faol ishtirok etsin deb, hamma zarur shart-sharoitlar yaratilgan.

1. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozga bag'ishlangan asar tushunarli bo'lsin deb,.....
2. Moliyaviy iqtisodiy yangiliklarni eshitish uchun,.....
3. Anjumanda notiqlikdan xabardor iqtisodchi ma'ruza qilganida.....
4. Boshlagan ishni oxiriga yetkazish uchun,.....
5. Yurtimizdagi har bir inson baxtli yashasin deb,.....
6. Chegaralarimiz tinch bo'lsin deb,
7. Moliyaviy-iqtisodiy inqiroz o'z ta'sirini o'tkazmasin deb,.....
8. Respublikamiz rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda bo'lish uchun,
9. Savdo-iqtisodiy hamkorlik haqida shartnomalar tuzish uchun,.....

10. Moliyaviy-iqtisodiy inqirozga bag‘ishlangan anjumanga tayyorlanaman deb,

77-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.

Oila - muqaddas dargoh

Oila har bir xalqning, millatning davomiyligini saqlaydigan, milliy qadriyatlarning rivojini ta‘minlaydigan, yangi avlodni dunyoga keltirib, ma‘naviy va jismoniy barkamol qilib tarbiyalaydigan, jamiyatning asosiy negizi hisoblanuvchi muqaddas maskandir.

Oilada mehr-muhabbatning ustuvorligi barcha millatlarga xos fazilatdir. Biroq oila, o‘z mazmun-mohiyatiga ko‘ra har bir xalq, har bir millat uchun o‘ziga xos xarakterli hissiyotlarga ham ega. Sharqda oila qurish va uning mustahkamligi, farovonligi va barqarorligini ta‘minlash insonning o‘z millati, avlod-ajdodlari, jamiyati oldidagi muqaddas burchi hisoblanadi. Ayniqsa, o‘zbek xalqi uchun oila eng muqaddas dargohdir.

Oila kichik bir jamiyat bo‘lib, u katta bir jamiyatning barpo bo‘lishi uchun asosdir. Shuning uchun oilalarni mustahkam, barqaror, ma‘naviy va iqtisodiy jihatdan yuksak davlat, mamlakatlarning ham kelajagi buyuk bo‘ladi.

Lug‘at

Konsitutsiya – qonunlar yig‘indisi, majmuasi

Hayotimiz qomusi – (правила нашей жизни) insonning butun hayoti davomida rioya qilishi shart bo‘lgan qonun- qoidalar yig‘indisi

Insoniylik burchi – человеческий долг

Burch – (долг) insonning o‘z Vatani xalqi, ota –onasi, qarindosh-urug‘lari oldidagi bajarishi shart bo‘lgan vazifasi

78-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Говорят, что семья – это 7 «я» : она объединяет в единое целое людей разных возрастов, характеров, профессий, убеждений. Каждый из них сам по себе личность, а вместе они – родственники, семья. Членов семьи связывают друг с другом любовь, взаимопонимание, желание помочь. Выполняя какую-либо работу по дому, мы тем самым помогаем друг другу.

79-topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Bolalar o‘ynab kelgani..... .
2. ataylab keldim.
3. Ovozingizni eshitish uchun..... .
4. Farzandini voyaga yetkazish uchun..... .
5. Bolam baxtli yashasin deb..... .
6. Oilam tinch bo‘lsin deb
7. Dadamning jahli chiqmasin deb
8. Onam xavotir olmasliklari uchun
9. Farzand tantiq bo‘lmasligi uchun
10. Buvamga yordam beray deb

80-topshiriq. Oilangizda burchlar qanday taqsimlangan? Jadvalni to‘ldiring.

Oiladagi burchlarim	Onamning uy ish-tashvishlari	Otamning burchlari	Oila a'zolarining burchlari	Birgalikdagi ishlarimiz

81-topshiriq. *Maqsadida, niyatida, umidda* kabi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Namuna: Bugungi kunda O‘zbekiston dunyo mamlakatlari bilan munosabatlarni mustahkamlash **maqsadida** tashqi iqtisodiy aloqalarni rivojlantirib bormoqda.

82-topshiriq.

Keys-stadi
(taxminiy variant)

Sizning muzlatgichingiz buzilib qoldi. Ustani telefon orqali uyingizga chaqirasiz. (Dialogda ikkita talaba ishtirok etadi.)

У вас сломался холодильник. Вызовите по телефону мастера домой. (В диалоге участвуют двое студентов.)

DIALOG

1-talaba. Ustaxonaga to'g'ri qo'ng'iroq qilganingiz haqida so'rang.

2-talaba. Ijobiy javob

1-t. Ustani chaqirmoqchi ekanligingizni ayting.

2-t. Muzlatgichingizning kafolatli xizmat muddati tugaganmi-yo'qmi, shu

haqida so'rang.

1-t. Muddati tugaganligini ayting..

2-t. Muzlatgichga nima qilganligini so'rang.

1-t. Muzlatgichga nima bo'lganligini aytib bering .

2-t. Muzlatgichning markasi haqida so'rang.

1-t. Muzlatgichning markasini ayting.

2-t. Mabodo, juda jiddiy buzilish ro'y bergan bo'lsa, buyurtmachi muzlatgichni ustaxonaga o'zi olib kelib berishi haqida ogohlantirasiz

1-t. Rozi bo'lasiz. Xizmat haqi qancha bo'lishi haqida so'raysiz.

2-t. Buyurtmachining uyiga keladigan kun va vaqtni, manzilni so'raysiz.

Xizmat haqi haqidagi savolga javob bering

1-t. Manzilingizni ayting va ustaxona ishchisiga buyurtma olganligi uchun minnatdorchilik bildiring.

1-студент. Спросите, правильно ли Вы позвонились в мастерскую.

2-студент. Положительный ответ.

1-с. Скажите, что вы хотите вызвать мастера.

2-с. Спросите, не истек ли гарантийный срок вашего холодильника.

1-с. Скажите, что гарантийный срок истек.

2-с. Спросите, что случилось с холодильником.

1-с. Расскажите, что у вас случилось.

2-с. Поинтересуйтесь, какой марки холодильника.

1-с. Назовите марку холодильника.

2-с. Предупредите, что в случае серьезной поломки, заказчик должен доставить холодильник в мастерскую.

1-с. Согласитесь. Спросите о стоимости услуги.

2-с. Укажите день и время прихода к заказчику, поинтересуйтесь, по какому адресу нужно прийти. Ответьте на вопрос о стоимости услуг.

1-с. Назовите адрес и поблагодарите работника мастерской, что заявка принята.

Kafolatli xizmat ko'rsatish turlariga doir dialog

Matbuot do'koni

Sizda o'zbekcha gazetalar bormi?

Sizda bugungi qanday gazetalar bor?

“Народное слово” va

“O'zbekiston ovozi” gazetalarini bering.

Menga “Toshkent oqshomi” gazetasini bering.

Mana bu markalarni ko'rsating

Maishiy xizmat

Sartaroshxonada

Ayollar zalida

Men sochimni

turmaklatmoqchiman.

Men sochimni tekislatmoqchi edim.

Mumkin bo'lsa, o'ngdan farq oching.

Men manikur qildirmoqchiman.

Erkaklar zalida

Men sochimni, soqolimni

oldirmoqchi edim.

Sochimni kaltaroq qilib oling.

Shaklini eskicha qoldiring.

Orqa tomondan ozgina oling, farq ochmang.

Kimyoviy tozalash

Men mana buni tez tozalash uchun topshirmoqchi edim.

Mana bu dog'ni mening oldimda ketkazib berasizmi?

Bir oz kutib turing.

Bugun kechqurun

Союзпечать

У вас есть газеты на узбекском языке?

Какие сегодняшние газеты у вас есть?

Дайте газеты «Народное слово» и «Ўзбекистон овози».

Дайте мне газету «Тошкент оқшоми».

Покажите вот эти марки.

Бытовое обслуживание

В парикмахерской

В дамском зале

Я хотела бы сделать прическу.

Я хотела бы слегка подровнять волосы.

Сделайте, пожалуйста, пробор справа.

Я хотела бы маникюр.

В мужском зале.

Я хотел бы побриться, постричься.

Постригите покороче.

Оставьте форму прежней.

Снимите немного на затылке.

Не делайте пробора.

Химчистка

Мне нужно сдать это в срочную чистку.

Вы можете вывести это пятно при мне?

Подождите немного.

Будет готово сегодня вечером

.....ertaga ertalab
.....bir kundan keyin tayyor
bo‘ladi.

.....завтра утром
.....через день.

83-topshiriq. Quydagi gaplarni davom ettiring.

1. Kafolat muddati tugab qolmasligi uchun.....
2. Mijozni ko‘paytirish maqsadida,
3. Jihozlarni tuzattiray deb,
4. Tishimni davolatish maqsadida,
5. Taqdimot marosimiga borish uchun.....
6. Xatim do‘stimga tezroq yetib borsin deb,
7. Uyimni ta‘mirlash maqsadida.....
8. Qishki kiyimlarim toza bo‘lsin deb,.....

84-topshiriq. Maqsad munosabatlarini ifodalovchi *atayin, jo‘rttaga, ataylab* kabi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

85-topshiriq. Gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Клиент попросил книгу жалоб и предложений для того, чтобы оставить свою благодарность фирме. 2. Чтобы было много клиентов, мастер качественно выполняет свою работу. 3. Чтобы клиент остался довольным, работник из мастерской доставил холодильник на дом. 4. Чтобы стать преуспевающим бизнесменом, нужно много и упорно трудиться. 5. Чтобы добиться высоких показателей, фирма привезла современные оборудования. 6. Представители фирмы «Нестле» приехали из разных стран, чтобы участвовать на презентации новой продукции. 7. Чтобы было больше клиентов, мастерская дала рекламу и объявления в газету. 8. Он с нетерпением ожидал вечера, чтобы услышать её голос. 9. Директор фирмы пригласил в свой кабинет своего работника, чтобы объявить о его повышении. 10. Совместное предприятие «УзТобако» отправило своих работников в Англию, с целью повышения их квалификации.

86-topshiriq. Quydagi sxema bo‘yicha gaplar tuzing.

1.deb,..... .
2.-sin deb,..... .
3.—di deb,..... .
4.-ar deb,.....

5.-sa deb,..... .
6.-mi ekan deb,..... .
7.deya,..... .
- 8 uchun..... .

Buni bilasizmi?

ISHONCH

O‘ziga ishongan bir kishi qiziquvchan to‘qson to‘qqiz kishilik armiyaga tengdir.

Jon Styuart

Ishonishni istamaganni mantiq ham ishontira olmaydi.

Janob Shahobiddin

O‘zingiz haqingizda nimalarni o‘ylasangiz boshqalar siz haqingizda nima deb o‘ylashdan muhimroq.

Seneka

Insonlarni g‘azablantiradigan haqiqat emas, balki haqiqat ekanligiga ishonishlaridir.

Anonim

Biron ishni bajarish uchun aqliga ishongan odam omadga erishadi. To‘la ishonch bor joyda muvaffaqiyat bo‘ladi.

Arnold Shvarsneger

Ishonch faqat aqlda mavjud bo‘lgan fikir emas, balki fikrining aqlga egalik qilishi hamdir.

Robert Bolt

Tugaamas omad – faqat omadga erishishga ishongan insonlar tomonidan egallanadi.

Garren Bennis

Ishonmoq insonning omad omad binosiga qo‘ygan dastlabki g‘ishtidir.

Frank Gifford

MILLIY QADRIYATLAR E'ZOZI.

(Aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlarining ifodalanishi)

87-topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing

Milliy va zamonaviy bayramlar

Bayram - muhim tarixiy voqea, hodisa sifatida shodlik, rasmiy tantana o'tkazish uchun belgilangan muborak kun. Bunday muborak kunlar xalq tomonidan quvonch, shodlik, tantana, o'yin-kulgi bilan tantanavor nishonlangan.

Har bir xalqning asrlar davomida shakllangan, ardoqlab-e'zozlaydigan o'ziga xos bayramlari, an'analari bo'ladi. Bayramlar qadimgi davrlardan boshlab xalq hayotining eng muhim va tarkibiy qismiga aylanib ketgan.

Bayramlarda xalqning qadimiy udumlari, tarixi, madaniyati o'zining yorqin ifodasini topadi va kishilarning diniy, ijtimoiy, madaniy, ma'naviy yutuqlari namoyish etiladi. Bu quvonchli kunlarda kishilar bir-birlarini tabriklaydilar, yaxshi niyatlar izhor etadilar, muvaffaqiyatlar tilaydilar.

O'zbek xalqi eng qadimgi davrlardan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug'ullanib kelgan. Shuning uchun ham xalq orasida Navro'z, gul sayli, ekin ekishga kirishish, qovun sayli, uzum sayli, hosil sayli kabilar keng tus olgan. Keyinchalik islom dini bilan bog'liq Ramazon va Qurbon hayitlari ham keng nishonlanadigan bo'lgan.

Bayramlar ichida Navro'z va Yangi yilni bolalar ham, kattalar ham intizorlik bilan kutadilar. Bu bayramlarga imkon qadar jiddiy tayyorgarlik ko'riladi.

Hayit va Navro'z bayrami arafalarida uylar, hovli-joylar, choyxonalar, sayilgohlar, bozorlar, qabristonlar tozalangan. Daraxt va gul ko'chatlari ekilgan. Marhumlarning qabrlari ziyorat qilingan. Kishilar otionalari, qarindoshlari, do'stlari bilan diydorlashganlar. Bu kun xonadonlarda sumalak, yalpiz somsa, ko'k chuchvara, go'ja, halim, palov kabi taniqli taomlar, nisholda va turli shirinliklar pishirilgan.

Bayramlar kishilar o'rtasida mehr-muhabbat, bir-biriga g'amxo'rlik, o'zaro hurmat-e'tiborni, kuchaytirishda muhim ahamiyatga egadir.

88-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Древний добрый обычай

Что такое «хашар»? Каждый житель в Узбекистане скажет вам, что «хашар»- это праздник. В этот день строить выходят все. Это древняя восточная традиция- «всем миром» строить соседу дом.

Хашар – это древний добрый обычай, продолжает жить. Воду к хлопку вели – хашар, новую школу строили – хашар. Все работали – старые и молодые. А потом накрывали большие столы прямо на улице, ели плов – наше любимое блюдо, пели и танцевали.

Добрые обычаи не умирают!

89-topshiriq. Quyidagi so‘z birikmalari ishtirokida gaplar tuzing.

Xalq udumlari, diniy marosimlar, zamonaviy bayramlar, milliy liboslar, sharqona urf-odatlar, tansiq taomlar, quvonchli kunlar, ko‘k somsa, keksalik gashti, oltin to‘y, qora choy, choyxona palov, devzira guruch.

Mustaqil o‘qish uchun matn

Axloq

Insonni ma’naviy jihatdan go‘zal qiladigan odamiylik va mehnatsevarlik kabi sifatlar orasida axloq sharti yana muhim o‘rin tutadi. Odam bolasi bilimi, tajribasi, shijoati, tashqi qiyofasi bilan xavas uyg‘otishi mumkin. Ammo axloqi buzuk, xulqi yomon bo‘lsa, bu yaxshi sifatlarning hammasi ikki chaka bo‘lib qoladi. Shuning uchun har kim u xox katta yoshda, xox kichik yoshda bo‘lsin odamlar nazaridan qolmaslikka, biron nojo‘ya harakat yo xunuk so‘z bilan o‘zini badnom qilmaslikka tirishadi. Uni shunday qilishga axloq sharti majbur qiladi.

Ma’lumki, inson onadan axloqsiz yo bezori bo‘lib tug‘ilmaydi. Uni yo ijtimoiy tuzum, yo tor muhit buzadi. Bizning jamiyatimizda esa odamning buzilishiga na zamin bor van a asos. Shuning uchun bizdagi ba’zi axloqsizlik, bezorilik, tekinxurlik xillari faqat tor muhit ta’siri ostida siqilib yashayotgan yaramas illatlar bo‘lishi mumkin. Aks xolda, tuppa-tuzuk yigit-qizlarimiz yoshlikdek katta davlatni bexudaga sovurmasdan, ko‘cha-kuyda sang‘ishni emas, biror hunar o‘rganishni; tekin-tomoq

bo'lishni emas, mehnat bilan yashashni; ota-onani qaqshatishni emas, rozi qilishni o'ylar edi.

Axloqsizlik tug'ma illat emas. Shuningdek, bunday yomon xulq-atvorlar tabiiy ofat singari osmondan ham yog'ilmasligini bilamiz. Bularning asl tug'iladigan, qulansa hid tartadigan joylari: boshbog'siz oila, tor muhit, maslaksiz jo'ralar ulfatchiligi. Bunday beboshlar ota-ona tarbiyasidagina emas, axloqi tuban kishilar ko'proq odamlar taqdiriga, ularning buguni-yu ertalariga panja orasidan qaralgan joylarda uchraydi.

90-topshiriq. Nuqtalar o'rniga qavs ichidagi so'zlarga mos qo'shimchalar-ni qo'shib, gaplarni ko'chiring.

1.arava qaysi yo'ldan yursa,..... ham shu yo'ldan yuradi (katta, kichik). 2.bola elga manzur (odob). 3. bola betga chopar (odob). 4. o'g'il ot mindirar, otdan indirar (qobil). 5. Bola....., odobi undan (shirin). 6. so'z - qilichdan o'tkir (rost). 7. bosh qayda, osh qayda (tashvish, mehnat). 8. kishi bor,kishi yo'q (do'st, dushman). 9..... gul bo'lmas, mashaqqatsiz- hunar (tikan). 10. mehnat, odat, berur senga saodat (halol, yaxshi). 11. ish ko'ngilni qiladi xush (ertalab). 12. ishni ertaga qo'yma (bugun). 12. boshni qilich kesmaydi (egmoq). 13. do'st- rohat, do'st - ofat (aql). 14. ko'ngli- dog' ko'ngli tog' (baxil, saxiy) 15. uy - bozor, uy - mozor (bola). 16. so'zning ozi yaxshi, so'zning o'zi yaxshi (ko'p, oz). 17. so'z jon ozig'i, so'z bosh qozig'i (yaxshi, yomon). 18..... ish, g'isht (reja, qolip).

Og'zaki nutqni o'stirish uchun material

Tabriklash. Tilak bildirish

Bayramingiz qutlug' bo'lsin!
Bayram bilan tabriklayman!
Tug'ilgan kuningiz qutlug' bo'lsin!
Yangi yilingiz qutlug' bo'lsin!
Sizni bayram bilan....
Tug'ilgan kuningiz bilan...
Yangi yil bilan.....tabriklayman
Muvaffaqiyatlar bilan tabriklayman!
Sizni tabriklashga ijozat bering
Mening tabrigimni qabul qiling
Sizga mustahkam sog'liq.....

Поздравления. Пожелания

С праздником!

С днём рождения!
С новым годом!
Поздравляю Вас с праздником!
... с днём рождения.
.....с новым годом .
.....с успехом!
Разрешите мне поздравить Вас
Примите мои поздравления...
Желаю крепкого Вам здоровья....

Ulkan baxt, uzoq umr !

Kasal bo‘lmang, sog‘ayib keting.
Yoqimli ishtaha! Osh bo‘lsin!
Yaxshi tushlar ko‘ring!
Yaxshi yotib turing! Xayrli tun!

Taklif

Biznikiga mehmonga keling
Biznikiga kiring
Keling.....
Kino (teatr, kutubxona)ga boraylik

Yuring....
..... taklif qilmoqchiman.
Marhamat, kiring!
....., o‘ting
....., o‘tiring

.....огромного счастья, долгих
лет жизни!

Не болейте. Поправляйтесь
Приятного аппетита
Приятных сновидений!
Спокойной ночи!

Приглашение

Приходите к нам в гости
Заходите
Давайте....
Давайте пойдём в кино (театр,
библиотеку)
Пойдёмте.....
хочу пригласить Вас.....
Входите, пожалуйста!
Проходите,.....
Садитесь,

91-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.

Mehmondo‘stlik

Mehmondo‘stlik - xalq an‘analaridan biri bo‘lib, axloq va nafosat manbaidir. Mehmondo‘stlik xalqimiz tarixida ming yillardan beri o‘rin olib kelayotgan an‘analardan biri. Mehmondo‘stlikda do‘stlik, o‘rtoqlik, odamgarchilik, insonparvarlik, poklik, saxiylik, himmat kabi insoniy fazilatlar mujassam.

Mehmondo‘stlik - o‘zbek xalqining oliy fazilati. O‘zbek xalqi mehmondo‘stligi butun olamga mashhur. Bu bejiz emas. O‘zbek xalqining mehmonni samimiy kutib olishdan to izzat hurmatni bajo keltirib kuzatib qo‘yishgacha bo‘lgan o‘z an‘ana va qadimiy urf-odatlar bor.

Xalqimiz, mehmonning katta-kichigi bo‘lmaydi, - deydi. O‘zbek uchun ostona xatlab, uyingizga kirib kelgan har qanday inson alohida izzat, alohida e‘tiborga loyiq. Mehmonga dasturxon yozilib, shirinlik keltiriladi. Shirin so‘z va tavoze bilan choy uzatiladi. O‘zbek uchun mehmonni hurmat bilan kutib olib, izzat-hurmatini joyiga qo‘yish doimiy odat tusiga aylanib qolgan, chunki xalqimiz mehmondo‘stlikni yaxshilik ramzi deb bilgan.

O'zbeklar uchun har qanday mehmonni kutish ham qarz, ham farz bo'lgan milliy urf-odatlardan biridir.

Mehmon kelishi oilada doimo ozodalik va pokizalik bo'lishini taqozo etadi. Odatda mehmon kelishi oldidan uy-joy, hovli va ko'chalar supuriladi, suvlar sepiladi, mehmonga atab nonlar yopiladi. Insonning kasb-kori, tutgan mavqeidan qat'iy nazar mehmon sifatida chegara belgilab qo'yilmagan. Chunki xalqimiz "Mehmon otangdek ulug'" degan naqlga amal qiladi.

Ma'naviyatimizning shakllanishi uchun bizda boy manba - milliy qadriyatlar mavjud. Mehmondo'stlik xalqimiz hayotida alohida o'rin egallab kelayotgan milliy qadriyatlarimizdandir.

92-topshiriq. Matnni o'qing, aniqlovchi va aniqlanmish konstruksiyali gaplarni toping.

Ikki xil muomala

Fozillardan biri hikoya qiladi:

- Bir kuni otga minib safarga chiqdim. Dala-dashtda borar ekanman yo'limni yo'qotib, adashib qoldim. Kech ham kirdi. Uzoqdagi bir uyni ko'rib qoldim. Darhol o'sha uyga borib, eshikni taqillatdim. Uy egasi - erkak yo'q ekan. Uning xotini chiqdi-da, salom berib, "Kimsiz?" deya so'radi. Men musofir bir kishi ekanimni, yo'ldan adashganimni, ruxsat etilsa, bu kechani shu uyda o'tkazish umidida ekanimni aytdim.

Ayol meni ochiq yuz bilan:

- Xush keldingiz, aziz mehmon! Erim bir yerga ketgan edilar, hozir kelib qoladilar, qani marhamat qiling, - deb ichkariga taklif qildi. Otimni otxonaga bog'lab, uyga kirdim. U obu taom keltirdi. Yeb-ichib, istirohat qilib o'tirgan edim, eri kelib qoldi.

Meni ko'rib xotinidan kimligimni so'radi. Xotin mehmon ekanligimni aytgan edi, achchiqlanib:

- Nega qabul qilding? Menga mehmonning keragi yo'q, - deb baqirdi.

Men darhol o'rnimdan turdim. Otinga minib, u uydan chiqib ketdim. Ertasi kun yana bir uyga yetib bordim, eshikni taqillatdim. Bir xotin chiqib, mening kimligimni so'radi. Men musofirligimni bildirgan edim, u achchiqlanib:

- Bizga musofirning keragi yo'q, mehmon qila olmayman, boring, keting, - deb eshikni yopmoqchi bo'lgandi, shu choq eri kelib qoldi.

Xotinidan mening kimligimni so‘radi. Xotini musofir ekanimni aytgan edi, u kishi ochiq yuz bilan:

- Xush keldingiz, aziz mehmon! - deb meni uyga taklif qildi. Otimni otxonaga bog‘lab, uyga kirdik. U kishi ochiq yuz, shirinso‘zlik bilan hol-ahvolimni so‘radi. Izzat-hurmat qilib o‘tqazdi, yaxshi taomlar bilan ziyofat qildi. Bu uydagi va kechagi uydagi eru xotinlarning muomalasiga ajablanib, tabassum qildim. U kishi tabassum qilganimning sababini so‘radi. Men kechagi voqeani so‘zladim:

- Ajablanmang, kecha siz tushgan uydagi xotin mening singlim. Mening xotinim esa uning eriga singil bo‘ladi.

93-topshiriq. Quyidagi antonimlarni o‘qing va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Baho (оценка) - bebaho (бесценный), vaqt (время) – bevaqt (преждевре-менный), maslahat (совет) - bemaslahat (не посоветовавшись), tartib (порядок) - betartib (беспорядок), toqat (терпеливый) - betoqat (нетерпеливый).

94-topshiriq. Quyida berilgan paronimlarning sifatga oidlarini aniqlang, tarjima qiling va gaplar tuzing.

harom–haram	quruq-qo‘riq	yaroqsiz–yarog‘siz
ertangi–ertagi	chirik-churuk	halol–xalal
sodda–soda	kuzgi–ko‘zgu	ijobiy–ijodiy
ziyrak–zirak	yorug‘–yoriq	buyuk–bo‘yoq
anqov–anqo	oriq–ariq	azim–azm

95-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

Mehmondorchilik odobi

Agar uyingizga bir odamni taklif qilgan bo‘lsangiz yoki chaqirmagan bo‘lsangiz ham ko‘ngli tortib, siz bilan bir oz suhbatlashib o‘tirish maqsadida uyingizga mehmon bo‘lib kelgan bo‘lsa, siz uni xush qabul qilib, hurmat bilan qarshi oling, salom berib, ko‘rishing, yo‘qlab kelgani uchun minnatdorchiligingizni bildiring. Uyga taklif qilib, to‘rga o‘tqazing. Hol-ahvol so‘rashganingizdan keyin darhol dasturxon yozib, ovqat keltirishga harakat qiling. Nonni yetarli ushating, ortiqcha ushatsangiz non isrof bo‘lib qoladi, isrofgarchilikdan saqlaning. Mehmonga: “Qani, ovqatga marhamat qiling”, deb taklif eting. Avval o‘zingiz boshlab bering.

Mehmondan ilgari qo‘lingizni ovqatdan tortmang, oz-oz bo‘lsa ham birgalashib olib turing, bo‘lmasa mehmon uyali, taomdan qo‘l tortishga majbur bo‘ladi.

Mehmonni “Qani oling” deb, haddan ziyod qistamang, uch marta taklif qilsangiz kifoya qiladi. Keltirgan ovqatingiz oz bo‘lsa, o‘zingiz oz-oz olib, ko‘pini mehmonga yediring. Mehmon to‘yib qo‘l tortgandan keyin, darhol toza sochiq berib, qo‘liga suv quying. Mehmon bilan suhbat qilib o‘tirar ekansiz, uning ahvoli-ruhiyatiga e‘tibor berib so‘zlang, ruhiy holati ko‘tara olmaydigan so‘zlar og‘zingizdan chiqmasin. Ba‘zi so‘zlaringiz unga og‘ir tuyulib qolishi mumkin. Mehmon oldida oila a‘zolaringizning birortasini urishib, qattiq so‘zlar so‘zlamang, ko‘ngliga turli fikrlar kelishi mumkin. U ketish uchun ruxsat so‘rab o‘rnidan tursa, uni eshikkacha kuzatib chiqib, sog‘-salomatlik tilab xayrlashing, yana kelib turishini so‘rab qoling.

Agar siz ko‘p kishini mehmon qilib chaqirsangiz ham yuqorida aytilganidek, mehmondorchilik odobiga rioya qiling, qo‘lingizdan kelguncha ularni xursand etishga harakat qiling.

Lug‘at

O‘zbek udumlari – (узбекские традиции) o‘bek xalqi qadim-qadimdan rioya qilib kelayotgan, faqat shu millatning o‘zigagina xos bo‘lgan odatlar

Yaxshidan bog‘ qoladi – (Хороший человек оставляет след в жизни)

Nikoh to‘yi – свадьба – бракосочетание

Beshik to‘yi – торжество в честь рождения ребенка

Hashar - (безкорысная помощ кому либо) ko‘pchilik birga bir ishni beminnat, sidqidildan bajarishi.

Mehmondo‘stlik – гостипреимство

96-topshiriq. Maqollarni o‘qing va ma‘nolarini izohlang

- Mehmon kelar eshikdan, rizqi kelar teshikdan.
- Mehmon izzatda, mezbon xizmatda.
- Supurilmagan uyga mehmon kelar.
- Kelish izmi mehmonda, ketish izmi mezbonda.
- Mehmonni hatto it ham qopmaydi.
- Mehmonning oldiga osh qo‘y, ikki qo‘lini bo‘sh qo‘y.
- Mehmon aziz, mezbon laziz.
- Mehmondorchilik- turmush ziynati.
- Uying keng bo‘lguncha, ko‘ngling keng bo‘lsin.

- O‘zi kelgan mehmon- mezbanning izzati.
- Mehmon avval kuni-tilla, ikkinchi kuni-kumush, uchinchi kuni-mis, to‘rtinchi kuni-pes.
- Kunda kelgan kul yeydi, oyda kelgan moy yeydi.
- Mehmonning ketishini so‘rama, kelishini so‘ra.
- Mehmon oldida mushugingni “pisht” dema.

97-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga berilgan so‘zlarning mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. mehmonlar xonaga kirishdi. 2. Uyning ichidagi gaplar, unga tinchlik bermas edi. 3. mehmonlar xursand edilar. 4.kishi boshini quyi solib, uyga kirdi. 5. Bir xonada Ergashni kishi kutib oldi. 6.Shu kezda eshigi ochildi. 6. U ichkariga kirganda, bir qiz kulib qarab turar edi.

So‘zlar: barcha, kelgan, oriqqina,chiroyli, notanish, shov-shuv, uyning

98-topshiriq. Matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Как рассадить за столом гостей? Наиболее почётные места - посередине стола. Первым считается место напротив входной двери, на той стороне стола, которая обращена к окнам. Второе место – напротив первого, третье – справа от первого, четвёртое- справа от второго. Особую учтивость проявите к пожилым людям, посадив их ближе к центру.

С приходом гостей выключаем телевизор и полностью посвящаем себя гостям.

99-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan belgi ma’nosini bildiruvchi so‘zlardan mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1.Aeroport bayroqlar, rasmlar, gullar bilan bezatilgan. 2 poyezd qo‘zg‘aldi,binolar va daraxtlarga o‘ralgan shahar ko‘zimizdan yo‘qoldi. 3. Erta tongda shabada esib, yaproqlar astagina shitirladi. 4. Universitetning talabalari sayrga bordilar. 5. brigada rejani orttirib bajardi. 6.toshning og‘irligi yo‘q.

Tayanch so‘zlar:*kerakli, oppoq, ko‘m-ko‘k, mayin, 4-kurs, ikkinchi,rang-barang, tezyurar.*

Og‘zaki nutqni rivojlantirish bo‘yicha namunalar

Mehmonda

(Dialog)

Salom! Marhamat kiring.	Добрый вечер! Проходите, пожалуйста.
Palto (plash) ingizni bering.	Давайте ваше пальто (плащ).
Tanishing: (mening) rafiqam, (mening) o‘g‘lim, (mening) qizim.	Знакомьтесь: моя жена, мой сын, моя дочь.
Kechirasiz, uning ismi nima?	Простите, как его зовут?
Uning ismi Alisher (Karim, Umid).	Его зовут Алишер (Карим, Умид).
Uning ismi Salima (Karima, Umida).	Ёе зовут Салима (Карима, Умида).
Juda yaxshi.	Очень приятно.
Siz bilan tanishganimdan xursandman.	Рад(а) с вами ознакомиться.
Bu yoqqa (bu xonaga) o‘ting.	Проходите сюда (в эту комнату).
Bu – mehmonxona.	Это гостиная.
Bu - bolalar xonasi.	Это детская.
Bu - yotoqxona.	Это спальня.
Bu - ishxona.	Это кабинет.
Bu yerda oshxona.	Тут кухня.
Dasturxonga marhamat.	Прошу к столу.
Yoqimli ishtaha.	Приятного аппетита.
Siz nima ichasiz?	Что вы будете пить?
Mineral suvmi yoki sharbatmi?	Минеральную воду или сок?
Mineral suv.	Минеральную воду.
Mana bu baliqdan, mana bu salatdan oling.	Возьмите ... эту рыбу, этот салат.
Jonim bilan.	С удовольствием.
Tuzi yetarlimi?	Соли достаточно?
Yana choy kerakmi?	Еще чая?
Yo‘q, tashakkur sizga.	Нет, благодарю вас
Vaqtni juda ham yaxshi o‘tkazdik.	Мы очень приятно провели время.
Hammasi uchun rahmat.	Спасибо за все.
Katta rahmat.	Большое спасибо.
Hammasi juda yaxshi bo‘ldi.	Всё было очень хорошо.

100-topshiriq. Matnni o'qing va unga reja tuzing.

Nafis kitob va xattotlik san'ati

Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik san'ati ham rivoj topadi. Uzoq tarixiy o'tmishda bosmaxona bo'lmagan. Kitoblar qo'lda ko'chirilgan. Qo'lda ko'chirilgan kitoblar nafaqat mazmunan, balki tashqi ko'rinishi va bezagi jihatidan ham kitobxonlarning talab-ehtiyojlari va didiga javob berishi, odamlarda ma'naviy va estetik dunyoqarashini shakllantirishga xizmat qilishi lozim edi. Shu boisdan ham Temur va temuriylar davrida nafis kitob va xattotlik buyuk san'at darajasiga ko'tariladi. Bu nafis kitob yaratish jarayonining mislsiz darajada murakkab va og'irligi turli xil kasb-hunar egalari mehnatining ma'lum bir dasta singari jamlanishi bilan belgilanadi. Chunki kitob yaratish jarayonida qog'oz kesuvchi xattot (kalligraf), musavvir, lavvoh (lavha chizuvchi), sahhof (muqovachi) ishtirok etadi.

Ota-bobolarimiz tomonidan nafis kitob yaratishda ishlatilgan Samarqand, Buxoro qog'ozlarining dovrug'i doston bo'lgan. Kitoblarni yaratishda unga turli xil suyuqlik moddalar va ranglar ishlatilgan. Kitobdan yoqimli va xushbo'y hid kelib turishi uchun juda sifatli gulob yoki anbar siyohga qo'shib yozilgan. Musavvirlar ishlatadigan bo'yoqlarda oltin va kumush eritmaları aralashtirilgan, sahhof esa muqovaning go'zal bo'lishi uchun charmlardan ustalik bilan foydalangan.

Og'ir va mashaqqatli mehnatlar evaziga yaratilgan har bir kitobning o'zi, shubhasiz, katta bir san'at asari edi. Bunday kitoblar asosan shohlar, amirlar, xonu sultonlar buyurtmalari asosida yaratilgan va maxsus kutubxonalarda e'zozlab saqlangan.

XIV- XVI asrlarda nafis kitob va xattotlik san'atining buyuk namoyandalari o'sib yetishib chiqqan. Bular Mir Ali Tabriziy, Abdurahmon Xorazmiy, Sulton Ali Mashhadiy, Mirak Naqqosh va boshqalardir.

101-topshiriq. Quyidagi so'z birikmalaridan aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlarini ifodalovchi konstruksiyali gaplar tuzing.

Ajoyib asar, chiroyli surat, mohir rassom, tasviriyl san'at, hayotiy lavha, ma'naviy meros, badiiy asar, ulkan ijod, buyuk rassom, ta'sirli kuy, salbiy obraz, betakror asar, mashhur bastakor.

102-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Научное и литературное наследие Омара Хайяма, которое служило и служит человеку, является яркой страницей в культуре народов мира. 2. До сих пор покоряют читателей стихотворные строчки, в которых поэт размышляет о мире, о жизни, о счастье и любви. 3. Есть такие люди, которые во всём являются примером для других. 4. Рубаи - в восточной поэзии четверостишие, которое выражает законченную мысль. 5. Рафаэль Санти - великий итальянский живописец, который жил в эпоху Возрождения.

103-topshiriq. Matnni o‘qing va aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlari ifodalangan konstruksiyali gaplarni toping.

Xorazmiy

Xorazmiy ilk matematika faniga asos solgan allomalardan. U Farg‘oniy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino kabi allomalar bilan zamondosh. Bu olimlar o‘z asarlarini arab tilida yozganlar. Chunki o‘sha davrda mamlakatimizga islom dini bilan birga arab tili va madaniyati ham kirib kelgan.

Abu Abdulla Muhammad-Ibn Muso 780-yilda Xiva shahrida tug‘ilgan. U yoshligidan matematikaga juda berilgan va o‘zining qobiliyati bilan xalq o‘rtasida hurmatga sazovor bo‘lgan edi. U Sharq kutubxonalarida mavjud bo‘lgan ilmiy asarlarni qunt bilan o‘rganadi. Matematika, astronomiya, geometriya, geografiya, meditsina va tarixni chuqur egalladi. Xorazmiy arab, fors, hind va yunon tillarini ham o‘rganadi, bu tillarda yozilgan asarlarni mutolaa qilib o‘z bilimini oshiradi.

Xorazmiy tomonidan yozilgan “Qisqargan Sindirhund” kitobida astronomiya, matematikaga oid fikrlar bildirilgan.

Xorazmiy algebra fanining asoschisidir. U birinchi bo‘lib “Aljabr va muqobala” degan asarini yozadi. Asar lotin va boshqa tillarga tarima qilinib, butun dunyoga tanildi. Bu kitobning bir qismi hozirgi Aljabr (algebra) ga aylanib ketdi.

Muhammad Muso Xorazmiy butun dunyo olimlari tan olgan buyuk siymo edi. G‘arbda Xorazmiyning lotinlashgan nomi “Algoritmus”.

Xorazmiy Bag‘dodga kelgandan so‘ng, astronomik va geodezik kuzatishlarga rahbarlik qiladi. Bu yerda “Yangi astronomik jadvallar” (ZIJ)ni yozadi. Asar 1126-yilda lotin tiliga tarjima qilingan.

Muhammad Muso Xorazmiy geografiya sohasida “Yer sur’ati kitobi”ni yozadi.

Xorazmiy yerni 7 iqlimga bo‘lib, yer xaritasini chizadi. Olimning to‘rttagina xaritasi bizgacha yetib kelgan. (Yaqin va O‘rta Sharq xalqlari, Azov dengizi va Nil daryosi xaritasi).

Xorazmiy sathlarni o‘lchash haqida, quyosh soati to‘g‘risida va boshqa sohalarda ham ko‘p asarlar yozgan. Lekin olimning arab tilida yozilgan asarlarining asl nusxasi bizgacha yetib kelmagan. Uning asarlaridan faqat Yevropa tillariga tarjima qilinganlarga saqlanib qolgan.

Xorazmiy 847-yili vafot etgan.

104-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga quyida berilgan so‘zlardan mosini qo‘yib ko‘chiring.

Kamoliddin Behzod

O‘z zamonasining rassomi va qobiliyat egasi Kamoliddin Behzod 1455-yilga yaqin Hirotida tug‘ilgan. Ota-onadan yoshlikdan yetim qolgan Behzodni Husayn Boyqaro kitobdori Mirak Naqqosh o‘z tarbiyasiga olib, unga homiylik ko‘rsatadi. O‘zining qobiliyati va iqtidorligi bilan boshqalardan ajralib turadigan Behzod yoshlikdan rassomlik san’atiga qiziqadi. Ko‘p o‘tmay u ilm-fan, san’at va adabiyot ahlli orasidan o‘ziga ... o‘rin topadi. Ma’rifat va madaniyat homiysi Alisher Navoiy iste’dod va qobiliyat egasi bo‘lgan Kamoliddin Behzodga e’tibor beradi va unga yordam qo‘lini cho‘zadi. 1510- yilgacha bo‘lgan umrini Hirotida o‘tkazgan Behzod keyinchalik Ozarbayjonga - Tabrizga ketadi. U yerda Behzodni safaviylar poytaxti kutubxonasi va san’atkorlarining boshlig‘i etib tayinlaydilar. Kamoliddin Behzod shu yerda taxminan 1533-1537- yillar orasida vafot etadi.

Kamoliddin Behzod o‘zining rassomchilik san’ati bilan “Sharq Rafaeli” nomi bilan jahonga mashhur bo‘lgan.

So‘zlar: *hayratomuz, munosib, noyob, mohir, alohida, har tomonlama, o‘ta noyob.*

105-topshiriq. Quyida berilgan sxemalardan foydalanib, gaplar tuzing.

- Shunday..... - ki,
- shunday.....-ki,
- qaysi.....-sa, o‘sha

106-topshiriq. Quyida berilgan soʻzlarni tartib bilan qoʻyib, matn tuzing. Gaplarda aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlari ifodalangan konstruksiyalarni aniqlang.

Bahor

Kunlari, erta, bahorning, serzavq. Uriladi, yam-yashil, giyohlardan, adirlardagi, xushboʻy, dimoqqa, hidlar, taralgan. Charaqlaydi, oftob, tiniq, shishadek, osmonda, koʻm-koʻk. Tushgan, toʻnlar, olaquroq, paxtali, yelkadan. Yaktak, xom, boʻlgan, surpdan, egnida, mehnatkash, dehqonning. Sochpopuk, bor, tol bargakdan, qop-qora, xushchaqchaq, sochlarida, qizlarning. Marjondek, gullar, och, oʻriklarning, pushti, novdalarida, katta-kichik. Anqiydi, ariq, yalpizlarning, boʻylaridagi, xushboʻy, hidi. Oʻrmaydi, devorlar, baland-baland, qumursqalar, tagida. (Said Ahmad)

107-topshiriq. Aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlarini davom ettiring

Ajoyib (удивительный) - aktor,

Nodir (редкостный) - asar,

Qiziqarli (интересный) - kino,

Betakror (неповторимый) – isteʼdod,

Chiroyli (красивый) - rasm,

Ulugʻ (великий) - inson,

Mashhur (известный) –sanʼatkor,

Qobiliyatli (талантливый) - rassom,

Ijobiy (положительный)- obraz,

Salbiy (отрицательный)- qahramon,

Ommabop (популярный) - kitob,

Badiiy (художественный)- film,

Odobga doir hikmatli soʻzlarni, xalq maqollarining rus tiliga tarjimasi

Odobni kimdan oʻrganding-
beodobdan

Odob bozorda sotilmas.

Odotsiz yuz kishi bilan ham
yolgʻiz.

Yaxshi otga bir qamchi,

Yomon otga ming qamchi.

Учись воспитанности у не
воспитанного

Воспитанность не продаётся

Невоспитанный одинок и среди ста
людей

Хорошей лошади довольно одного
удара, а плохой- и тысячи мало.

108-topshiriq. Matnni o‘qing va o‘z fikringizni og‘zaki bayon eting.

To‘rt nasihat

To‘rt narsa ko‘ngildagi orzularni ro‘yobga chiqaradi: g‘ayrat, shijoat, matonat, himmat.

To‘rt narsa tadbirkorlik belgisi: boshga tushgan og‘irlikni sabru-toqat va tadbir bilan yengish; isrofgarchilikka yo‘l qo‘ymaslik; do‘stlarning nasihat va maslahatlariga quloq solish; fursatni qo‘ldan boy bermaslik.

To‘rt narsa hammaga ma‘qul va maqbul: sharm-hayo, qanoat; rahm-shafqat, muruvvat.

To‘rt narsa odamga rohat baxsh qiladi: ochiq yuzli, shirin so‘zli, tejamli xotin; samimiy do‘st; halol mehnat; to‘g‘rilik.

* * *

To‘rt narsa pushaymonlik bilan natijalanadi: qo‘ldan kelmas ishga kirishish, yalqovlik, toqatsizlik, do‘stlarning nasihat va maslahatlariga kirmaslik.

To‘rt narsadan chekinish kerak: qahr-g‘azabdan, maqtanchoqlikdan, ziqnalikdan, ta‘madan.

To‘rt narsa to‘rt xil kishida bo‘lmaydi: yolg‘onchida - muruvvat; baxilda - saodat; hasadchida - rohat; janjalkashda - buyuklik.

To‘rt narsa insonga falokat keltiradi: ichkilik, zino, qimor, dilozorlik.

* * *

To‘rt narsa rohatda umr kechirish sababchisi: xotirjamlik; mustahkamlik; farog‘at; xayr- ehson.

To‘rt narsa to‘rt narsani keltiradi; sukut saqlash - tinch yashashni; yaxshilik qilish - saodatni; saxovat – ulug‘likni; xushmuomalalik - xalq muhabbatini.

To‘rt narsa odamni barkamol qiladi: samimiy do‘st maslahatlari bilan ish olib borish, dushman bilan xushmuomalada bo‘lish, achchiq so‘zni yutish, nafs orzusini susaytirish.

To‘rt narsa baxtu iqbol darakchisi: mehru muhabbat, vafodorlik, muloyimlik, tavoze.

* * *

To‘rt narsa gumrohlik belgisi: adovat, hasad, g‘iybat, xiyonat.

To‘rt narsadan hazar qilish kerak: johillikdan, qo‘rslikdan, takabburlikdan, ig‘vodan.

To‘rt narsa to‘rt narsa bilan tugaydi: ablahlik rasvolik bilan, g‘azab pushaymonlik bilan, qo‘pol so‘zlik ko‘ngil qolish bilan, yalqovlik xoru zorlik bilan.

To‘rt narsa odamning obro‘cini to‘kadi: hazil - mazah, ochko‘zlik, sir saqlay olmaslik, shoshqaloqlik.

109-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Это стоит запомнить

В разговоре старайся затронуть такую тему, которая может интересовать твоего собеседника.

Учись внимательно слушать говорящего. Не перебивай его. Жди, когда он кончит свой рассказ. Дослушай то, что он хотел сказать, до конца, а потом уже возражай, если не согласен.

Не старайся говорить громче собеседника. Это не выгодно тебе же: кто говорит, не повышая голоса, к тому прислушиваются внимательнее, чем к крикуну.

Если в разговоре тебя перебьют, не пытайся заглушить перебившего, остановись и выслушай его возражения. Ведь, если вы оба будете говорить одновременно, всё равно ни он тебя не услышит, ни ты его.

110-topshiriq. Quyidagi sxemalar bo‘yicha gaplar tuzing.

1. Shunday - ki,..... .
2. shunday -ki,

111-topshiriq. Kerakli tinish belgilarni qo‘yib chiqing.

1. Shunday odamlar borki ular hayotlarini xalq xizmatiga bag‘ishlaydilar xalq baxtini o‘z baxtlari deb biladilar. 2. Kim ko‘p mehnat qilsa u ko‘p haq oladi. 3. Kimning tili achchiq bo‘lsa uning suhbatidan el qochadi. 4. Shunday odamlar borki boshqaning mulkiga hasad qiladilar. 5. Kimki o‘z mehnatini sevsa unday kishini hamma hurmat qiladi. 6. Kimning ko‘ngli to‘g‘ri bo‘lsa uning yo‘li ham to‘g‘ri. 7. Shunday inson haqida xabar keltirdimki uning har bir so‘zi gavhardir. 8. Oramizda shunday yoshlar borki ular kompyuterdan foydalanishni yaxshi bilmaydilar.

112-topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Biz shunday zamonda yashayapmizki, 2. Ba'zi oilalar borki,..... .
3. Oramizda ayrim talabalar borki, 4. Qaysi bir oilada totuvlik bo'lsa,
5. Kishi hayotida shunday daqiqalar bo'ladiki, 6. Ko'rib turibmanki,..... .
7. U shunday inson ediki, 8. Men senga shunday sovg'a keltirayki,.....

113-topshiriq. Quyidagi maqollarni izohlang.

Yaxshi niyat -yarim davlat.	Доброе намерение –половина богатства.
Yaxshi gap bilan ilon inidan chiqar.	Ласковыми словами и змею из норы выманишь.
Hunarli kishi och qolmas.	Умелец мастер никогда не останется голодным.
Haq so'z-achchiq so'z.	Правда –горька.
Ilmli o'g'il otadan ulug'	Образованный сын- почтеннее отца.
Janjalli uyda baraka bo'lmas	В доме есть , где есть ссора, нет достатка.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. “Mehmon kelgan uydan baraka arimaydi” degan naql to'g'rimi?
2. “Mehmon o'z rizqi bilan keladi” degan fikrga qanday qaraysiz?
3. Mehmondo'stlik an'anasi boshqa millatlarga ham xosmi?
4. Mehmonning belgilangan vaqtda kelmasligi nimalarga sabab bo'ladi?
5. “Dasturxon atrofida mehmonning odob saqlash madaniyati” deganda nimani tushunasiz?
6. “Taom lazzati - mehmon izzati” deganda nimani tushunasiz?
7. “Iltifotli bo'lish” nima degani?
8. Sertakalluf mezbon mehmonni noqulay ahvolga soladimi?
9. “Mehmon otangdek ulug'” degan maqolga qanday qaraysiz?
10. “Osh egasi bilan mazali” degan fikrga siz qanday qaraysiz?

11. “Har qanday taomga avval mehmon, keyin mezbun qo‘l uzatadi” degan fikrni izohlang.

Buni bilasizmi?

XATO QILISH

Oldingdagi to‘siq nima uchun qo‘yilganini bilmasdan turib uni olib tashlama

Robert Jorst

Omadli odam xatolaridan foydalanadi va uni yana boshqacha shakllarda ham sinab ko‘radi.

Deyl Karnegi

Bir ishni to‘g‘ri qilish uning xato ekanini tushuntirib berishga nisbatan kam vaqt oladi.

Genri Vordevord

Birgina xato ham katta bir – omad uchun zarur narsaga aylanishi mumkin.

Genri Ford

Xato qilmagan inson hech narsa qila olmaydi

Bernard Shou

Xato qilishdan qo‘rqma. Lekin xatoni yana takrorlashdan qo‘rq.

Okio Marito

Xato bilan o‘tgan hayot sharaflı emas biroq hech narsa qilmasdan o‘tgan hayotdan ko‘ra yaxshiroqdir.

Bernard

Xato qilmagan odam hech narsani kashf etolmaydi.

Samuel Smayls

Hech kimning hatosini yuziga solmang. Insonga o‘z xatosini boshqa birov misolida tushuntiring.

Ali (p.a.)

TARIX VA ZAMONAMIZ

(Zamon munosabatlarining ifodalanishi).

114-topshiriq. Matnni o‘qing va unga reja tuzing.

Buyuk Ipak yo‘li



G‘arb bilan Sharqni bir necha ming yillar davomida bir-biriga bog‘lab kelgan yo‘llardan biri “Buyuk Ipak yo‘li” dir. Bu yo‘l fanga “Ipak yo‘li” nomi bilan faqat XIX asrning 70-yillaridan boshlab nemis olimi Ferdinand fon Rixtgofen tomonidan kiritildi. Unga qadar bu yo‘l “G‘arbiy meridional yo‘l” deb atalar edi

“Buyuk Ipak yo‘li” orqali Sharq va G‘arb mamlakatlari savdo va elchilik aloqalarini qilganlar. Jumladan, Xitoy hukmdorlari o‘z elchilarini katta sovg‘a-salomlar bilan Markaziy Osiyo, Eron, Mesopotamiya va Kichik Osiyo davlatlariga yuborganlar.

Shimoli-g‘arbiy ipak yo‘li faqat iqtisodiy jihatdan ahamiyatli bo‘lib qolmasdan, ayni paytda u diniy, madaniy meros yutuqlarini tarqatuvchi, mamlakatlararo diplomatik aloqalarni ta‘minlovchi yo‘l ham edi. Xitoy hukmdorlari yollagan turkiy suvoriylariga ipak parchalaridan xom ashyo tarzida maosh to‘laganlar. Ipak Xitoydan arzon narxlarda Markaziy Osiyoga So‘g‘d savdogarlari orqali olib kelingan. Xususan, samarqandlik so‘g‘dlar xalqaro savdoda ustasi farang bo‘lganlar. Qadim zamonlarda savdogarlar xalq orasida eng nufuzli, obro‘li insonlar edilar. Chunki ular faqat mol olib, mol sotuvchi va undan foyda oluvchi jamiyatning qatlamigina emas edilar, balki uzoq safarlarga katta savdo karvonlari bilan boruvchi savdogar-elchilar, ziyo va madaniyat, yangiliklar tarqatuvchilar, u yoki bu hududdan yangi joylarga ilg‘or xo‘jalik ixtirolarini olib boruvchi nufuzli kishilar ham bo‘lganlar. Ayni paytda ular o‘zga mamlakatning urf-odatlarini, kuchi va qudrati, hududiy joylashishi, tabiati va davlatni boshqarish tizimini chuqur bilishda o‘ta hushyor davlat ayg‘oqchilari ham bo‘lganlar.

“Ipak yo‘li” orqali Xitoydan g‘arb mamlakatlariga, asosan, ipak, ilk o‘rta asrlardan boshlab qog‘oz chiqarilgan bo‘lsa, g‘arb mamlakatlaridan Xitoyga shisha, jundan ishlangan har xil gazlamalar, gilam, palos, oyna, metall, zeb-ziynat bezaklari, qimmatbaho toshlar, har xil dorivorlar, otlar olib borilgan.

Xullas, “Buyuk Ipak yo‘li” Markaziy Osiyo xalqlarini siyosiy, iqtisodiy, madaniy va savdo sohasidagi hayotida katta o‘rin tutgan, o‘lka xalqlari bu yo‘l tufayli G‘arb va Sharq dunyosi hamda ularning xo‘jalik ixtirolaridan foydalanganlar.

115-topshiriq. Quyida berilgan payt ma’nolarini anglatuvchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Tunov kuni, endi, ilgari, bultur, har qachon, kunduzi, kuni bilan, hozir, erta-indin, tez orada, kechqurun, indin.

116-opshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Великий Шёлковый путь

Великий Шёлковый путь, основанный во II веке до н. э., сыграл огромную роль в развитии всего человечества.

История донесла до нас следующие свидетельства возникновения караванного пути.

В 125 году до н. э., после двенадцатилетнего отсутствия, в столицу Китая Лоян вернулся офицер дворцовой стражи Чжан Цань с далёкого Запада, куда его посылали с посольством. Император, двор, учёные и купцы – словом, весь Лоян был потрясён его рассказами. Они были уверены в том, что на свете живут только кочевники-скотоводы да бродячие охотники, и были убеждены, что только их страна сумела создать высокую цивилизацию, и служит центром вселенной.

Оказалось, что за Великой китайской стеной, за степями и пустынями существуют могущественные государства, такие как Хорезм, Согдиана и др. Они обладают высокоразвитой самобытной культурой. Китайский император решил установить прямую связь со странами Средней Азии и Индией и продолжить через степи и пустыни удобные и безопасные торговые пути.

Так встретились древние цивилизация Китая и Средней Азии, а затем и стран Средиземноморья и отчасти Индии.

Великий Шёлковый путь начинался от города Сиана на берегу реки Хуанхэ в Древнем Китае и достигал Самарканда. От Самарканда Великий Шёлковый путь разветвлялся к странам Средиземноморья, в Россию, Сибирь, Закавказье и Черному морю.

Через Памир, Тянь–Шань Великий Шёлковый путь пролегал в Афганистан, а оттуда в Индию.

«Великим» его называли за огромную протяженность и уникальность международной связи.

Великий Шёлковый путь существовал на протяжении 17 веков.

117-topshiriq. Quyidagi zamon ma'nolarini anglatuvchi so'zlarning sinonimlarini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Avval - ilgari,....;

ba'zan -.....;

hamisha -

118-topshiriq. Matnni o'qing va tarjima qiling.

SAMARQAND

Samarqand ham dunyoga mashhur Bobil, Afina, Rim shaharlari kabi boy tarixga ega. Uning yoshi 2500 yildan ortiq.



Samarqand dastlab Siyob daryosi sohilida qad ko'targan. U o'n yarim kilometrli mudofaa devori bilan o'ralgan bo'lib, shaharga uchta darvoza orqali kirilgan.

Amir Temur saltanatining poytaxtiga aylanganidan so'ng shaharda ma'muriy binolar, masjidlar, madrasalar, hammomlar, savdo markazlari, karvonsaroylar ko'plab qurildi. Shahar atrofi olti darvozali mudofaa devori bilan o'rab olindi. Registon maydoni, Go'ri Amir maqbarasi, Shohi-Zinda majmuasi qurilishi shaharni juda ham go'zallashtirdi. Shahar atrofida Bog'i shamol, Bog'i dilkusho, Bog'i baland, Bog'i maydon, Bog'i behisht, Bog'i zag'on kabi 12 ta ko'rkam bog' barpo etildi.

Amir Temurdan so'ng Mirzo Ulug'bek hukmronligi davrida Samarqandni obo-donlashtirish ishlari davom ettirildi. Ulug'bek rasadxonasi, Ulug'bek, Sherdor, Tillakori madrasalari qurildi. O'sha davrda qurilgan Ko'ksaroy va Bo'ston saroyida davlat idoralari, qurol-yarog' ustaxonalari, xazina, zarbxona va qamoqxona joylashgan edi.

XVI asrda Buxoro xonligi tashkil topgandan so'ng poytaxt Buxoroga ko'chirildi. XVII-XVIII asrlarda Samarqand yana turli bosqinchilar tomonidan talanib, vayron etilgan. Mehnatkash shahar aholisi uni yana va yana qayta tiklayvergan.

XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlab Samarqandda zamonaviy binolar qurila boshladi. 1924-30-yillarda u O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'ldi. Hozirgi paytda Samarqand shahri aholi soni va sanoat korxonalari ko'pligi jihatidan respublikamizda ikkinchi o'rinda turadi.

Samarqand shahri va viloyat hududida joylashgan Doniyol payg'ambar, Imom Ismoil Buxoriy, Mahdum A'zam, Xo'ja Ahror Valiy, Qusam ibn Abbos, Amir Temur maqbaralarini ziyorat qilish uchun har yili millionlab sayyohlar kelishadi.

119-topshiriq. Nuqtalar o'rniga so'zlarning mosini qo'yib ko'chiring.

1.O'zbekistondagi tarixiy shaharlar chet el sayyohlarining diqqat markazida bo'lgan. 2.Buxoro shahrida yodgorliklari ko'p. 3. Samarqand shahriga poyezd yetib keldi. 4.Samarqand O'zbekiston Respublikasining poytaxti bo'lgan.

Tayanch so'zlar: *o'rta asr, hozirgina, dastlab, hamisha.*

120-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.



Легенда о Хиве

В древние времена Бог дал знать своему наместнику на земле, пророку Ною о грядущем наводнении. Бог приказал ему построить большой корабль и поместить в него всех верующих, а также попарно каждой живущей твари. Когда произошло наводнение, Ной приказал своему сыну Сому найти высокий холм и построить там крепость. Эта крепость была названа сначала Хейвак, а потом название изменилось на «Хива». Это – только одно из многих легенд о Хиве.

Один из наиболее примечательных городов Центральной Азии – Хива находится на левобережье Амударьи на юге современной Хорезмской области Узбекистана. Это уникальный, единственный целиком сохранившийся в регионе город – памятник. В 1967 году был объявлен городом заповедником, а с 1990 года внутренняя часть Хивы – Ичан-Кала признана ЮНЕСКО историческим памятником мирового значения.

121-topshiriq. Quyidagi soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Burun, hamisha, ertalab, hozir, qishin-yozin, kecha, ertayu kech, erta sahar, yarim tun, kechqurun, tushdan soʻng, oʻtgan yil, kelgusi yil, oʻtgan kun

122-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga zamon maʼnolarini bildiruvchi kerakli soʻzlarni qoʻyib koʻchiring.

1. Sen biznikiga kelasanmi? 2. Bugun gidan, ertaga gidan yaxshiroq ishlash lozim. 3. Otam ishdan qaytdi. 4. Farida qaytgani uchun, onasidan uzr soʻradi.

123-topshiriq. Nuqtalar oʻrniga zamon maʼnolarini ifodalovchi soʻzlaridan mosini topib koʻchiring.

1. Erta bahor quyoshi yogʻib oʻtgan yomgʻirning namini yerdan sugʻurib olayotir. 2. Aziz matematika bilan shugʻullanadi. 3. Biz radio tinglardik. 4. Akmal Termiz shahriga uchib ketdi. 5. U Samarqanddan qaytib keladi. 6. Xiyobonda oʻyin-kulgi davom etdi. 7. Toshkent shahri goʻzallashib bormoqda. 8. Oʻzbekistonning koʻhna shaharlaridagi tarixiy obidalar taʼmirlanyapti.

124-topshiriq. Matnni oʻqing va savollar tuzing.

TOSHKENTNING OʻN IKKI DARVOZASI

Movarounnahrning eng qadimiy shaharlaridan biri boʻlgan Shosh (Toshkent) oʻzining uzoq va qiziqarli tarixida oʻzaro feodal urushlar hamda xorijiy bosqinchilar istilosi natijasida necha bor buzilib, necha bor qayta tiklangan. Sharq mamlakatlarida, jumladan, Oʻrta Osiyoda yirik shaharlar qoʻrgʻon bilan oʻrab olinganligi, ularning bir necha darvozasi boʻlganligi bizga qadar yetib kelgan tarixiy maʼlumotlardan ayon.

Oʻtgan XVIII- XIX asrlarda bu shaharning 12 ta darvozasi boʻlib, bular: Samarqand, Koʻkcha, Chigʻatoy, Sagʻbon, Qorasaroy, Taxtapul, Labzak, Qashgʻar, Beshyogʻoch, Qoʻqon, Qaymast va Komolon darvozalaridir. Ushbu darvozalardan kirilgach, eng avval guzarli keng maydonga chiqilgan, bu guzargohlar 1920 - yillarning oxiriga qadar juda obod boʻlgan.

Afsuski, shaharning ko'hna darvozalari shu kunlarda saqlanib qolmagan. Lekin ularning nomi va qayerda joylashganligi to'g'risida yetarli ma'lumotlar bor.

Darvozalar shaharning hozirgi o'zaro joylashishiga nisbatan taxminan quyidagi joylarda joylashgan: Komolon – hozirgi “Baxt” ko'chasida; Qaymast - O'zbekiston ko'chasidan 9-yanvar ko'chasiga burilish yerida; Qo'qon – Mustaqillik maydonida; Beshyog'och - Beshyog'och dehqon bozori bilan madaniyat va istirohat bog'i oralig'ida; Qashg'ar – Qashg'ar mahallasi guzari (hozirgi Markaz – 4 mikrorayonida); Labzak – Xurshid ko'chasi bilan Anhor kesishgan joyda; Taxtapul – Sobir Rahimov ko'chasidagi Kaykovus anhoriga qurilgan ko'prik yaqinida; Qorasaroy – Qorasaroy ko'chasining guzarida; Sag'bon – Sag'bon ko'chasidagi 11-maktab bilan Kaykovus oralig'ida ; Chig'atoy – Chig'atoy ko'chasidagi Chig'atoy darvozasi guzarida; Ko'kcha – Ko'kcha guzarida; Samarqand – hozirgi “Samarqand darvozasi” ko'chasining guzari atrofida bo'lgan.

Bu darvozalar faqat qamal paytlaridagina emas, balki tinch vaqtlarda ham har kuni qoronqu tushishi bilan berkitib qo'yilar edi. Ertalab barvaqt ochilar, karvonlar sayyohlar va darveshlar, boyonlar va amaldorlar yayov va foytunlarda viqor bilan kech oqshomga qadar kirib-chiqib turganlar. Bu darvozalarni doimo maxsus soqchi (darvozabon) lar qo'riqlab turar edilar.

Kechqurun darvozalar taqa – taq yopilib, shahar ichkarisiga tashqaridan hech kim kiritilmagan. Keluvchilar kim bo'lishidan qat'iy nazar darvoza tashqarisida tunab qolishga majbur bo'lishgan.

Go'zal shahrimizning o'n ikki darvozasining o'n ikki kaliti nusxalari hozirgi kunda O'zbekiston xalqlari tarixi muzeyining ko'rgazma bo'limida tartib bilan terib qo'yilgan. Ularning oltindan yasalgan asl nusxalari esa Moskvada – sobiq SSSR Davlat bankida saqlanmoqda.

125-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.



МЕДРЕСЕ КУКАЛДОШ

Медресе было построено в 1523 год визирем Дарвешхана Кукалдашом. Дарвешхан был средним сыном правителя того времени Навруза Ахмадхон-Барокхона.

При строительстве медресе придерживались стиля традиционной композиции: это - широкий двор, вокруг которого комнаты- худжры, айваны – веранды. «П» образная дорожка соединяет худжры с мечетью. Количество комнат до 40.

К концу XVIII века медресе остаётся без присмотра и оно используется пользуются в качестве каравансарая. Медресе Кукалдош и расположенная рядом с ним мечеть Ходжы Ахрора Вали были разрушены при взятии Ташкента генералом русской армии Черняевым в 1865 году. Частичные восстановительные работы были проведены после землетрясений 1866, 1886, 1946 годов. Полностью медресе было реконструировано в течении 30 лет с 1930 года.

126-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga zamon ma’nolarini bildiruvchi kerakli so‘zlarni qo‘yib ko‘chiring.

1. Imtihonlar bo‘ladi. 2. maktabim yonidan o‘tdim. 3. Nafasimni, tikilibroq qaradim. 3. Buni sezib qoldim. 4. siznikiga kirib o‘tamiz. 5. o‘qiyman.

Tayanch so‘zlar: o‘qiyotganimda, yozda, rostlagach, qo‘lim bo‘shida, qaytishda.

127-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing

ABU RAYHON BERUNIY

Bu voqeaning bo‘lganiga ming yildan oshdi. Sakkiz-o‘n yoshli do‘mboqqina bola har kuni ertalab Amu sohili bo‘ylab aylanib yurar, har xil o‘t, giyoh va gullarni, shuningdek, meva, don, mayda toshlarni yig‘ishga oshiqardi. Kunlarning birida yiqqan giyohlarni ko‘tarib, mahallasidagi hamma taniydigan tabibga keltirdi: “Bobo, bu o‘tlarning oti nedir?” - deb so‘radi. Tabib bobo jilmaydi, bolaning qiziqishidan xursand bo‘lib: “Barakalla, bo‘tam, qanday yaxshi ish qilibsiz. Qara-ya, bular dorivor o‘tlar - giyohlar-ku”, -dedi. Shu tariqa tabib bobo har xil giyohlar va donlarning nomini aytib berar va bolaning tabiatga qiziqishini yanada oshirar edi.

Bu bolakay bo‘lajak olim Abu Rayhon Beruniy edi.

U 973- yil 4-sentabrda Xorazmda tug‘ildi. Erta yetim qolgan bo‘lsa ham yaxshi odamlarning qo‘lida tarbiyalandi. Yoshligidanoq ilm-fanga juda qiziqdi. Ayniqsa, matematika, astronomiya, geografiya va tibbiyot fanlariga doir ko‘p kitoblarni o‘qib chiqdi. Qadimgi Xorazm tilini, turkiy,

forsiy va arab tillarini puxta o'rganib oldi. Boshqa tillarni ham mashq qildi.

So'ngra o'zi ham matematika va astronomiya, geografiya va tarixdan kitoblar yoza boshladi. Yulduzlarni kuzatdi, daryo oqimini o'lchadi. Qum ostida qolgan baliq suyaklarini topdi va o'rgandi, tabiat sirlari bilan qiziqdi. Turli fanlar sohasida kuzatishlar olib borish maqsadida o'zi ko'pgina tajriba asboblari ixtiro qildi. Asta-sekin uning bilimdonligi va kashfiyotlari haqida olimlar o'rtasida gapiriladigan bo'ldi.

Beruniy kamtar va odobli, haqgo'y va olijanob inson bo'lgan.

Beruniyning jahon fani oldidagi buyuk xizmatlari jamoatchilik tomonidan e'tirof etilgan. Uning yubileyleri tug'ilgan shahri va boshqa ko'pgina mamlakatlarda nishonlandi, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining Sharqshunoslik instituti, Toshkent texnika universiteti Beruniy nomi bilan ataldi. Beruniy nomidagi O'zbekiston Respublikasi Davlat mukofoti ta'sis etildi.

Lug'at

Tarix va zamonamiz - история и современность

Ona shahrim – родной город

Buyuk allommalar – Великие мыслители

Byuk Ipak yo'li – Великий Шелковый путь

Tarixiy yodgorliklar – исторические памятники

Qadimiy obidalar – исторические достопримечательности

Ulug' siymolar – Великие личности

Ko'hna shaharlar – Древние города

Amir Temur saltanati – государство Амира Темура

Zamonaviy binolar – современные здания

Mirzo Ulug'bek hukumronligi davri – Во времена управления

Мирзо Улугбека

Xiva haqidagi afsonalar - легенда о Хиве

Bu yurtda yashovchi kishi – Человек проживающий в этой стране

Qosh qorayganda – сумерки

Tarixiy shaharlar – исторические города

Kelib chiqish – возникновение

Istoriografiya – (историография) tarixiy yozuvlani o'rganish

128-topshiriq. Quyidagi gaplarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

1. Вокруг города Самарканда много садов и хлопковых полей. 2. Мои родители раньше жили в городе Гулистане. 3. Большой

Ферганский канал был прорыт в 1939 году за сорок пять дней. 4. В 1012 году Ибн Сина переехал в Иран, жил в Хорасане и Хамадане, где был придворным врачом и визирем. 5. В 1930 году Ташкент был объявлен столицей Узбекистана.

129-topshiriq. Soʻzlarni tartib bilan qoʻyib, gaplar tuzing.

1. Toshkent, soʻng, boʻlmas, 1966-yilgi, tanib, zilziladan, oʻzgardi, darajada. 2. Tushdi, 1977, oʻrta Osiyoda, boʻlgan, metrosi, Toshkent, yagona, ishga, yili. 3. Teleminora, 375, qurildi, ulkan, boʻyi, 1985- yili, metrli

130-topshiriq. Maqollarda zamon munosabatlari ifodalanagan konstruksiyalarni toping va rus tiliga tarjima qiling.

1. Yaxshi bola-tuganmas xazina. 2. Koʻz qayerda boʻlsa, mehr ham shu yerda boʻladi 3. Baxilning bogʻi koʻkarmas. 4. Katta kema qayoqqa yursa, kichik kema ham shu yoqqa yuradi. 5. Avval taom, baʼdaz kalom. 6. Soʻraganning aybi yoʻq. 7. Temirni qizigʻida bos. 8. Tani sogʻliq- tuman boylik. 9. Oʻzing suv ichadigan quduqqa tupurma. 10. Har toʻkisda bir ayb. 11. Qozonda boʻlsa, choʻmichga chiqadi. 12. Jahl kelganda, aql qochadi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Nima uchun «Buyuk Ipak yoʻli» ni buyuk deb atashgan?
2. Qachon va kim tomonidan bu yoʻl «Buyuk Ipak yoʻli» deb nomlangan?
3. Qachon «Buyuk Ipak yoʻli»ga asos solingan?
4. Yana shaharlar?
5. Olimlar?
6. Yoʻllar?
7. Savdo bilan birga.
8. Dunyoda qanaqa shaharlar bor?

Buni bilasizmi?

OMADGA BOSHLOVCHI SOʻZLAR

Orzu	Tuygʻular	Azm – shijoat
Ishonch	Maqsadlar	Qarz qilish
Xayollar	Xato qilish	Xatti - harakat
Jasorat	Omadsizlik	

ADABIYOT VA SAN'AT – MA'NAVIYAT O'CHOG'I (O'zbek tili leksikasi)

131-topshiriq. Matnni o'qing va savollar tuzing.



ALISHER NAVOIY

Alisher Navoiy o'zbek adabiyoti tarixida yangi sahifa yaratgan ulug' shoir, jahon adabiyotining buyuk siymolaridan biridir. Navoiy yaratgan ulkan adabiy meros keyingi asrlar o'zbek adabiyoti va san'ati taraqqiyotiga kuchli ta'sir ko'rsatdi. U 1441 – yilning 9 – fevralida Xurosonning madaniy va siyosiy markazi - Hirot shahrida tug'ildi. Alisher bolaligidanoq tiyrakligi, o'tkir zehni, she'r o'qish va yodlashga qobiliyatligi bilan ko'pchilikning diqqat – e'tiborini o'ziga jalb qildi. Alisher 10-12 yoshlardanoq ilk she'rlari bilan shoir va olimlarni hayratga soldi. Alisher Navoiy zullisonayn (ikki tilda ijod qiluvchi) shoir bo'lib yetishdi. Fan tilidagi she'rlarini “Foniy” taxallusi ostida yoza boshladi. Buyuk davlat arbobi sifatida Alisher Navoiy mamlakat obodonchiligi va xalq farovonligi uchun kurash olib bordi: xalq zimmasidagi soliqlarni cheklashga harakat qildi, maktab-madrasalar, ariq va kanallar, shifoxonalar, kutubxonalar qurdirdi, ilm va san'at ahllariga rahnamolik qildi, podsho va shahzodalarni adolatga da'vat etdi. 1476 – yilda vazirlik vazifasidan iste'fo bergach, Alisher Navoiy ijodiy ishga berilib, o'zining o'lmas asarlarini yaratdi. 1483 – 1485 – yillarda besh dostonni o'z ichiga olgan “Xamsa” asarini yozdi.

1490 – 1500 – yillar orasida ellik ming misrani o'z ichiga olgan to'rt devondan tashkil topgan “Xazoyin-ul maoniy” devonini, qirqqa yaqin adabiy, ilmiy va tarixiy asarlarini dunyoga keltirdi.

Hozirgi kunda Alisher Navoiyning o'zbek tilida 20 jildlik, rus tilida 15 jildlik asarlari va “Navoiy qomusi” nashr qilinmoqda. Ulug' mutaffakir va olim Alisher Navoiy 1501 – yilning 3 – yanvarida Hirot shahrida vafot etdi.

132-topshiriq. Quyidagi to'rtlikni ko'chiring, tarjima qiling va undagi omonim so'zlarni izohlang.

Qo'lingdan kelgancha chiqar yaxshi ot,
Yaxshilik qil, bolam, yomonlikni ot.
Nasihatim yod qilib ol, farzandim,
Yolg'iz yursa, chang chiqarmas yaxshi ot.

133-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning oʻzlashgan qatlamga xoslarini belgilang, tarjima qiling va gaplar tuzing.

Qumgʻon – oftoba, kumush – nuqra, askar – zobit, tugʻro – gerb, koʻk – osmon, yulduz – rasad, soʻz – kalom, oy – qamar, oʻrtoq – doʻst, Tangri – Alloh, shams – quyosh.

134-topshiriq. Matnni oʻqing va unga savollar tuzing

ERKIN VOHIDOV

Erkin Vohidov hozirgi zamon oʻzbek sheʼriyatining yirik vakilidir. Shoir 1936- yilda Fargʻona viloyati Oltiariq tumanidagi qishloqda oʻqituvchi oilasida dunyoga kelgan. Otasi tarix oʻqituvchisi, bilimdon, dilkash, quvnoq odam boʻlgan, onasi ham savodli, oʻtkir zehnli ayol boʻlgan.

Erkin Vohidovda sheʼriyatga havas-ishtiyoq juda erta tugʻildi. Yettinchi sinfda oʻqiyotgan vaqtidayoq “Mushtum” da birinchi sheʼri bosildi va 1961 – yilda, 25 yoshida “Tong nafasi” degan ilk toʻplami nashr etildi. Shu vaqtdan boshlab Oybek, Gʻafur Gʻulom, Abdulla Qahhor, Mirtemir, Shayxzodalar eʼtiboriga tushdi va nomi el orasida tobora keng yoyila boshladi. “Yoshlik devoni”, “Muhabbat”, “Ruhlar isyoni” kabi sheʼriy kitoblari, dostonlari va “Oltin devor”, “Istanbul fojiasi” kabi drama asarlari kitobxonlarning muhabbatiga sazovor boʻldi. Uning kitoblari Yoshlar mukofoti, Hamid Olimjon nomli mukofot, Xamza nomli Oʻzbekiston davlat mukofotlarini oldi, shoirga “Xalq shoiri” degan unvon berildi, qator orden va medallar bilan taqdirlandi.

Erkin Vohidov ijodi bugungi oʻzbek adabiyotida noyob hodisadir. Uning sheʼriyati xalq qalbiga chuqur kirib bordi. Bunga sabab shoirning ijodga, sheʼriyatga katta muhabbat va chuqur eʼtiqod bilan yondashib, uni insonning baxt-saodati uchun kurash vositasiga aylantirishidir. Shoir shunday degan edi: “Xalqni maqtagan shoir ulugʻ emas, uning oʻzligini oʻziga koʻrsatib bera olgan, ayovsiz gapni ayta olgan shoir ulugʻ”.

Erkin Vohidov 1999 – yilda “Oʻzbekiston qahramoni” degan yuksak unvonga sazovor boʻldi.

135-topshiriq. Quyidagi gaplardagi ajratilgan soʻzlarning sinonimini toping.

Yirik adabiyotshunos, *iste'dodli* dramaturg Izzat Sulton hunarmand oilasida tugʻildi. Shoir Mirtemir Tursun oʻgʻli Turkiston shahrining Iqon qishlogʻida *tugʻildi*.

Mahmudxoʻja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat - *buyuk* maʼrifatparvar adiblardan.

Erkin Vohidov, Abdulla Oripov - zamonamizning *koʻzga koʻringan* shoirlaridan.

136-topshiriq. Quyidagi soʻzlarning antonimlarini keltiring va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Ijobiy, komediya, muhabbat, ilk, yosh, davom ettirish

137-topshiriq. Matnni oʻqing va savollar tuzing

Kitob tarixi haqida

Kitob bir necha ming yillar avval paydo boʻlgan, bu davrda u turli xil koʻrishishlarni olgan.

Bobilliklar, osuriyaliklar va boshqa qadimgi xalqlar kitobni loydan tayyorlashgan. Buning uchun ular yumshoq loydan tayyorlangan plitalarga uchli yogʻoch bilan maxsus belgilar tushirilgan. Soʻngra uni oftobda quritishgan yoki olovda pishirishgan. Kitoblar, hatto, kutubxonalar mana shunday maxsus loy plitalardan tashkil topgan.

Shoh Anshurbannipal (miloddan avvalgi VII asr) ga qarashli shunday kutubxonani yuz yil muqaddam qadimgi Osuriya davlatining poytaxti boʻlgan joydan qazib topilgan.

Xitoyda esa, dastlab kitobni yupqa bambuk plastinkalarga yozishgan va plastinkalardan pishiq tizimga oʻtkazib qoʻyishgan. Keyinchalik xitoyliklar oʻz kitoblarini moʻyqalam (choʻtkacha) va tush bilan ipakka, milodiy II asrdan boshlab qogʻozga yozishgan.

Qadimgi Misrda kitob matnlarini tosh plitalarga oʻyib yozishgan. Keyin papirusni ixtiro qilishgan. Jips qilib bostirilgan qamish plastinkalarni bir necha oʻn metrgacha uzunlikdagi lenta shaklida yelimlaganlar. Ularni oʻrogʻliq holda saqlaganlar. Misr papiruslaridan deyarli ikki ming yil davomida Yunoniston va qadimgi Rimda yozish uchun yaxshi material sifatida foydalanishgan.

Miloddan avvalgi II asrda Pergan podsholigidagi ustalar yozuv uchun hayvon terisidan yangi material - pergament tayyorladilar. Yunoniston va qadimgi Rimda papirus va pergament juda qimmatbaho material bo'lganligi uchun xomaki matn va xatlarni uchi o'tkir tayoqcha bilan ustiga mum surtilgan taxtachaga yozganlar.

XIII asrdan boshlab, Evropada qog'oz asosiy yozuv materiali bo'lib qolgan.

Quyida berilgan matnni o'qing va o'zbek tilida so'zlab bering

Мир музыки

Музыка сопровождает человека всю его жизнь, в ней он находит выражение самых высоких чувств и самых тонких душевных переживаний.

В горе и в радости, в труде и на отдыхе – музыка всегда с человеком. Она настолько полно вошла в нашу жизнь, что её принимают как должное, как воздух, которым дышат не задумываясь, не замечая. А между тем попробуем-ка на минуту представить, что из жизни человека ушла музыка. Насколько беднее стал бы мир, лишившись прекрасного своеобразного языка, помогающего людям лучше понимать друг друга.

Музыка не сразу стала такой, какой мы слышим её сейчас. Многие тысячи лет прошли, прежде чем появились оратории и симфонии, кантаты и сонаты, балет и опера, современные песни и рок музыка. Мир, в котором мы живем, полон всевозможных звуков. Пение птиц, свист ветра, раскаты грома, шум морского прибоя. Но эти звуки – ещё не музыка. Не бывает музыки без музыкантов. Не существует её и без музыкальных инструментов. Первые музыкальные инструменты появились ещё за 13 тысяч лет до нашей эры. Раньше всех возникли ударные инструменты, затем духовые. И позже всех струнные инструменты.

Наверное, нет человека, который не любил бы музыку, - классическую или современную, народную или эстрадную, инструментальную или симфоническую.

138-topshiriq. Quyidagi gaplardagi ajratib ko'rsatilgan so'zlarning o'z yoki ko'chma ma'noda kelganligini aniqlab yozing.

Namuna : 1) *qanot - qush qanoti (o‘z ma‘n.)* 2) *qanot - samolyot qanoti (ko‘chma ma‘n.)*

1. Salima opa xontaxtaga yangi *dasturxon* yozdi. Qani mehmonlar, *dasturxonga* qaranglar. 2. Uning qora *ko‘zlari* g‘azabdan chaqnar edi. Buloqning *ko‘zi* yopilib qolibdi. 3. Men *ellik birga* chiqib, Besh yog‘ochga bordim. Qirq oltiga beshni qo‘shsa, *ellik bir* bo‘ladi. 4. Shuhratning ko‘nglida *uxlagan* xotiralar uyg‘onib ketdi. Sobir kech *uxlagan* bo‘lsa ham, sahar payti uyg‘onib ketdi.

139-topshiriq. Quyidagi tez aytishni o‘qing.

Termizlik Toshtemiru Toshpo‘lat tengdosh. Tongda Toshpo‘lat Toshtemirni turtib turg‘izdi. Turgan Toshtemir Toshpo‘latni tayinsiz turtkilagani-chun tergadi. Taajjublangan Toshpo‘lat tomorqa tomon taraddudlandi. To‘satdan Toshtemir Toshpo‘latga tashlandi-yu, tarsaki tushirdi. To‘polonga Toshbolta to‘g‘onoqlandi. Tongdagi to‘polonni Toshtemirning tog‘asi Temur to‘laligicha tushundi. Tuturiqsiz Toshtemirni tergadi. Ters Toshtemir tixirlandi. Tortishuv to‘laligicha Toshpo‘lat tomon tinchidi. Tuturiqsiz Toshtemir tushundiki, Toshpo‘lat to‘g‘riso‘z.

140-topshiriq. Quyidagi matnni tarjima qiling.

О КНИГАХ

Как велико было моё изумление когда я почувствовал, что почти каждая книга как бы открывает предо мною окно в новый неведомый мир, рассказывая мне о людях, чувствах, мыслях и отношениях, которых я не знал, не видел.

Чем больше я читал, тем более книги роднили меня с миром, тем, ярче, значительнее становилась для меня жизнь.

Нередко я плакал, читая, - так хорошо рассказывалось о людях, так милы и близки становились они.

Og‘zaki nutqni o‘stirish uchun material

Madaniy hayot (Teatr)

Men kechqurun teatrga
bormoqchiman.

Qaysi sahna asarini ko‘rishni
maslahat berasiz?

Bu zamonaviy spektaklmi?

Культурная жизнь (Театр)

Я хочу вечером пойти в театр.

Какой спектакль вы
советуете посмотреть?

Это современный спектакль?

Spektaklni kim sahnalashtirgan?
 Bu spektaklda qaysi aktyorlar
 o‘ynashadi?
 Bu pyesaning muallifi kim?
 Bu spektaklga bilet topish
 osonmi?
 “Muqimiy” teatrida bugun qanday
 spektakl ketyapti?
 “Milliy ” teatrida yangi spektakl
 ketyapti.
 Spektaklning rejissori kim?
 Bosh rolni kim o‘ynaydi?
 Bu filmni ko‘rishni xohlardim.

Keling, soat 8 ga bilet olamiz.

Кто поставил спектакль?
 Какие актёры заняты в этом
 спектакле?
 Кто автор пьесы?
 На этот спектакль легко
 достать билеты?
 Какой спектакль идет сегодня
 в театре «Мукими»?
 В театре «Milliy» идет новый
 театр.
 Кто режиссер спектакля?
 Кто играет главную роль?
 Я хотел бы посмотреть этот
 фильм.
 Давайте, возьмем билеты на 8
 часов.

Teatrda:

-Iltimos, xonim, shlapangizni yechib qo‘ysangiz. Men spektakl ko‘rish uchun 2 marka to‘ladim. Shuning uchun hamma narsani ko‘rishni xohlayman.

- Janob, men esa shlapamni 20 markaga sotib olganman. Shuning uchun uni hamma ko‘rishni xohlayman.

Savol: Ayting-chi, sizningcha, bu tomoshabinlarning bahsi nima bilan tamom bo‘ladi?

141-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.



Madaniyat maskanlaridagi etiket

1. Teatrda, kinoda, muzeyda, qiroatxonada, kutubxonada, auditoriyada, ko‘rgazmada bo‘lganingda, bu yerda sen o‘zing yolg‘iz emasligingni hech vaqt unutma. Sen bilan yonma-yon o‘tirganlar sening do‘stlaring.

O‘zingni shunday tutki, sening harakatlaring ularga xalal bermasin.

2. Teatrda vaqtida yetib kel.

3. O‘z o‘rningga borayotganingda, qator oralab o‘tirganlarga yuzlanib o‘t. Agar qiz bola bilan kelgan bo‘lsang, o‘zingdan oldin uni o‘tkaz va birinchi bo‘lib joyiga o‘tqiz.
4. Agar sen o‘tirib olgan bo‘lsang, yoningdan birov o‘tayotganida o‘rningdan tur va unga yo‘l ber.
5. Albatta, chiptangda ko‘rsatilgan joyga o‘tir. Agar sening joyingda birov o‘tirgan bo‘lsa, va u bo‘shatishni istamasa, u bilan aytishib o‘tirma. Bunday anglashilmovchilikni aniqlash uchun chipta tekshiruvchini chaqirib kel.
6. Musiqi ohangiga moslab tiqillatib o‘tirma - yoningda o‘tirganlarga xalaqit berasan.
7. Ko‘rinish tugamay qarsak chalma. Ko‘rinish tugashini kutib tur.
8. Sahna ko‘rinishi tugagandan keyin “bis” deb baqirma. Bu italyancha so‘z “ikkinchi” degan ma’noni anglatadi. Shunday qilib, bu bilan sen hozirgina artistlar ijro etgan voqeani ikkinchi marta takrorlashini so‘ragan bo‘lasan. Tomoshabinlarga juda yoqib qolgan ariya yoki raqsni takrorlash mumkin bo‘lgan konsertda “bis” deb qichqiriladi, ammo spektaklda bunday talab qilib bo‘lmaydi.
9. Spektakl vaqtida taom yema. Tanaffusgacha sabr qil. Sahna pardasi yopilmaguncha o‘rningdan qo‘zg‘alma. Yoningda o‘tirganlarga pyesani oxirigacha ko‘rishlariga xalaqit berma.

Lug‘at

Adabiyot va san‘at – ma’naviyat o‘chog‘i – искусства и литература – очаг нравственности

Mumtoz adabiyot – классическая литература

Adabiy meros – литературное наследие

Yirik nomoyondalari – крупные деятели

Amaliy san‘at – прикладное искусство

O‘zbek san‘ati ustalari - мастера узбекского искусства

O‘zbek she‘riyatining yirik vakili- крупный деятель узбекской поэзии

Ilk to‘plam – первый сборник

She‘riy doston – в стыках поэма

Yuksak unvon- высокая награда

Isde‘dodli – талантливый

Men sevgan asar - моё любимое произведение

142-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Дутар

Дутар..... Во многих узбекских семьях на почётном месте хранится этот инструмент. Он оживает под рукой и молодых, и старых, и мужчин, и женщин. Во многих семьях звучат песни, сопровождаемые его глуховатым рокотом. Народы Востока любят музыкальные досуги в кругу родных друзей. Звучат долгие песни, а в них - рассказы о трудностях жизни и её радостях, о волшебных приключениях, о сказочных красотах природы. Жизнь на Востоке не проста, она течёт под жарким солнцем, в постоянной заботе о глотке воды, в постоянной борьбе с суровостью гор или в кочевых странствиях по пустыням. Слушая дутар, люди на какое-то время забывали о трудностях и бедах, становились добрее, вспоминали о том, что человек создан не для вечного горя и нужды, а для счастья.

143-topshiriq. Quyidagi so'zlarning sinonimini keltiring.

Barvaqt-vaqtli, noiloj-ilojsiz, serhosil-hosildor, boodob-odobli, hamkasb- kasbdosh, bemaza -mazasiz

144-topshiriq. Quyidagi so'zlarning antonimini toping va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Yorug', kun, uzoq, o'tkir, tashqi, shodlik, keksa, muhabbat, baxil, tinchlik, dangasa, yolg'onchi.

145-topshiriq. Quyidagi frazeologizmlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ko'zi moshdek ochildi, sabr kosasi to'ldi, ko'ngli joyiga tushdi, boshi ko'kka yetdi, yerga urdi, yuragi g'ash bo'ldi, ko'zi to'rt bo'ldi, gap tegdi.

146-topshiriq. O'ng tomondagi so'zlardan chap tomondagi so'zlarning sinonimlarini toping va har bir sinonimik qatorni alohida- alohida ko'chirib yozing.

yuz	Iljaydi, bet, qidirdi, aft, jilmaydi, bashara, axtardi,
kuldi	chehra,
avval	betob, jamol, diydor, oldin, oraz, xaxoladi, quvonmoq,
izladi	ruxsor, qadim, bemor, kulimsiradi, tirjaydi,
sevinmoq	suyunmoq, quvnamoq, burun, shodlanmoq, ilgari

147-topshiriq. Quyidagi berilgan sinonimlar qatorini davom ettiring.

Ayyor, mug‘ombir,.....

Aniq, yaqqol,.....

Bitirmoq, tugatmoq,.....

Darrov, darhol,.....

To‘satdan, qo‘qqisdan,...

Quyidagi matnni tarjima qiling

Изобразительное искусство

Изобразительное искусство – это живопись, графика, скульптура. В каждом из них имеются присущие только ему одному художественные средства.

Живопись – один из главных видов изобразительного искусства, передающего разнообразное многоцветие окружающего мира.

Графика – искусство рисования на бумаге.

Скульптура – это создание фигур в камне, дереве, металле.

Человек не сразу рождается художником, скульптором или архитектором. Он им становится. Драгоценным даром для этих творцов прекрасного является своеобразное видение мира, как для музыкантов, например, - абсолютный слух.

Мастера, создающие эти великолепные произведения искусства, учат нас чувствовать и правильно оценивать прекрасное в природе, искусстве, общественной жизни. Они развивают умение видеть в окружающем мире его красоту, величие и неповторимость.

Монументы, памятники, архитектурно–скульптурные сооружения, связанные с памятью народа, с его историей, со временем становятся достопримечательностями страны, их символами.

Главным музеем России является Эрмитаж в Санкт-Петербурге, Лувр – в Париже, Пизанская башня – в итальянском городе Пиза, Египетские пирамиды, Тадж-Махал в индийском городе Агра и т.д.

В Государственном музее Республики Узбекистан собрана богатая коллекция произведений изобразительного искусства народов мира. Посетители музеев получают эстетическое наслаждение, духовно обогащаются и развивают свой художественный вкус.

148-topshiriq. Gaplarni tarjima qiling, ularda qoʻllangan frazeologizmlarning oʻzbek tilidagi muqobillarini topishga harakat qiling.

Он умел держать язык за зубами. Мальчик бежал сломя голову. Соседи жили душа в душу. Весь день дети работали не покладая рук. Никто не работал спустя рукава.

149-topshiriq. Quyidagi omonim soʻzlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ot (hayvon), ot (ism), ot (otmoq); yoz (yozmoq), yoz (fasl), yoz (yoymoq); oʻt (olov), oʻt (maysa), oʻt (oʻtmoq).

150-topshiriq. Quyidagi paronimlarni tarjima qiling va ular ishtirokida gaplar tuzing.

Amr-amir, asr-asir, zirak-ziyrak, davo-daʼvo, sher-sheʼr, shoh-shox, hol-xol, azm-azim.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Behbudiyning “Teatr ibratxonadur” degan iborasi haqida oʻz fikringizni ayting..
2. Sizning eng yaxshi koʻrgan sahna asaringiz qaysi? Uning muallifi kim?
3. Uni kim sahnalashtirgan? Undagi aktyorlar kimlar?
4. Sahna asari tomoshabinni nimasi bilan oʻziga jalb qila oladi?
5. Adabiyot nima?
6. Adabiyotning qanday turlarini bilasiz?
7. Uning qanday janrlari bor?
8. Adabiyot vakillaridan kimlarni bilasiz?
9. Sanʼat deganda nimani tushunasiz?
10. Uning qaysi turlarini bilasiz?
11. Mashhur sanʼatkorlardan kimlarni bilasiz?
12. Siz biror sanʼat turi bilan shugʻulanasizmi?
13. Qaysi sahna asarlarini bilasiz?
14. Oʻzbek kino yulduzlaridan kimlarni bilasiz?
15. Yunus Rajabiy kim?
16. Zamonaviy musiqa turlarini sanab bering.

KELAJAK YOSHLAR QO‘LIDA (Shart munosabatlarining ifodalanishi)

151-topshiriq. Matnni o‘qing va unga savollar tuzing.

O‘n besh nasihat

Bir donishmandning o‘z farzandiga qilgan nasihatlari:

- Yaxshi vatanparvar bo‘lish, hayotda muvaffaqiyat qozonish, jisman va ruhan mukammal bo‘lish uchun mehnatni sev, ish odami bo‘l.
- Yalqovlikdan uzoqlash, g‘ayratli bo‘l, vujudingni harakatga bag‘ishla, tinma, tirish, olg‘a bos!
- Ehtiyot bo‘l, hamma ishingda tartib va intizomga rioya qil.
- Senga jamiyat tomonidan topshirilgan vazifani bekamu ko‘st ado qil.
- Sharafing, nomusing va hayotingni qo‘riqla, boshqalarning ham sharaf va nomuslarini hurmat qil.
- Haqiqatni sev, yurish-turishingda sodda va tabiiy yo‘lni tut.
- Samimiy, pok qalbli va haqiqatgo‘y bo‘l.
- Muloyim, lutfli, marhamatli va do‘stparvar bo‘l.
- Mutaassib (fanatik) bo‘lma, hur fikrli bo‘l.
- Mutolaa va tekshirish bilan aqlingni, zehningni, fahm va idrokingni tarbiyat qil, o‘stir.
- Qanoatli, hammaga mehribon va g‘amxo‘r bo‘l.
- Hurmatga sazovor bo‘lgan kishilar va narsalarga ehtirom qilishni unutma.
- Mardlik, jasorat va shijoatni o‘zingga shior qilib ol.
- Sharaf va nomusingga dog‘ tushirish ehtimoli bo‘lgan har turli zavq-safodan kech.
- Go‘zal axloqning matonati, hissiyotning olijanoblighi bilan vujudingga sihat va latofat bag‘ishla.

152-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Какой лучше?

Однажды падишах тешил себя беседой с придворными. В это время пришёл Бирбал.

- Бирбал!- позвал падишах.- Ну-ка, скажи. Какой плод всех лучше? Чьё молоко лучше? Какой из листьев лучше? Какая сладость всех лучше?

Падишах уже спросил всех придворных, да они не сумели как следует ответить.

Бирбал, не долго думая, стал отвечать:

-Владыка мира! Лучший из плодов-сын. Благодаря ему имя отца и дедов передаётся из поколения в поколение. Наилучшее молоко – материнское, оно всех питает и возвращает. Лист пана – лучший, угости паном врага – и он обойдётся с тобой по-дружески, дай пан слуге- и он готов отдать за хозяина жизнь. Сладость речи – лучшая, она без денег покоряет людей.

Ответы Бирбала глубоко обрадовали падишаха и придворных. Падишах щедро наградил своего главного советника.

153-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘qing va shart munosabatlari ifodalangan konstruksiyalarni toping.

- Olim bo‘lsang, olam seniki.
- Birni kessang, o‘nni ek.
- Oshing halol bo‘lsa, ko‘chada ich.
- Zamon senga boqmasa, sen zamonga boq.

154-topshiriq. Matnni o‘qing.

Klarkson Indastriz kompaniyasidagi hodisa

Syuzen Xarrington barmoqlari bilan stolni taqillatishda davom etardi. U juda katta muammoga duch kelib, qanday tushunishni bilmas edi. U Djek Ridga ishonar edi, ammo ofislardagidan faqat ugina Djekka ishonadigandek tuyulardi. Ehtimol, Syuzen butun voqeani boshdan eslasa, to‘qri qaror chiqara olar edi.

Syuzen 20 yildan buyon Klarkson kompaniyasida menejer distribyuter bo‘lib ishlardi. Avval qonun bilan muammolar, keyin qamoqdagi qisqa muddat uni mehnatsevarlik va rostgo‘ylik qadrini bilishga majbur qilgandi. Syuzen qamalib chiqqaniga qaramay, Genri Klarkson unga yana bir imkoniyat berdi va u bu imkoniyatdan to‘liq foydalandi. Endi u kompaniyaning eng hurmatli menejerlaridan edi. Uning o‘tmishidan ko‘pchilik bexabar edi.

Syuzen Djekni olti oy oldin qamoqdan chiqishi bilan ishga yollagan edi. Djek o‘zining o‘tmishini so‘zlab berayotgan va yana bir imkoniyat

so'rayotgandagi holatini Syuzen juda yaxshi tushunar edi va Genri qachonlardir unga imkoniyat bergandek, u ham Djekka imkoniyat berdi. Djek o'zining ishiga xursandchilik bilan kirishdi va ozgina vaqt o'tib jamoadagilardan qolishmaydigan darajada tovarlarini yuk mashinaga yuklay boshladi.

Hammasi yaxshi edi. Djek hammaga yoqadigan va, hattoki, yangi do'stlar orttirgandek tuyulardi. Ammo Djekning jamoasidagi ishchilardan birining karmoni (hamyoni) yo'qolishi Syuzenni xavotirlantirdi. U ochiqchasiga borib Djekdan yo'qolgan narsa haqida so'radi. Djek esa osongina begunohligini aytdi. Bir qancha vaqt o'tib, karmon topilgandan so'ng, bu ish tugatildi. Ammo hafta so'ngida sodir bo'lgan hodisalar ko'pgina qiyinchiliklarni yuzaga keltirdi. Avval kadrlar bo'limining xodimi Djekning hujjatlariga to'qnashib qoldi. Djekning tarixi hammaga ma'lum deb o'ylab, xodim – "Djekdek odamlarga yana bir imkoniyat berish qanday yaxshi", degan fikrlarini kasbdoshlari bilan o'rtoqlasha boshladi. Keyingi kuni esa, buxgalteriyadagi bir xodim kassada mayda harajatlar uchun pul yetishmayotganligini sezib qoldi. Boshqa xodim esa, avvalroq Djekni ish vaqtida ochiq qolgan seyfning oldida ko'rganini aytdi.

Ko'pchilik bu voqeada Djek aybdor degan xulosaga kelishdi. Hattoki, o'z hamyonini topib olgan odam ham Djekdan shubhalana boshladi, go'yoki Djekni so'roq qilishgandan so'ng u hamyonni qaytargandek. Bir necha xodimlar Syuzendan Djekni bo'shatishni talab qildilar. Syuzen pul yo'qolgani haqida Djekni so'roq qilayotgan paytda Djek o'zini g'alati tutib, bu pullarni olmaganini aytdi.

Afsuski, Syuzen bu voqeani eslab, aniq bir yechimga kela olmadi. U Djekni ishdan bo'shatish kerakmi yoki yo'qmi? Djekka qarshi hamma dalillar to'liq emas edi, ammo boshqalar bu hodisani aniq tasavvur qilgandek bo'ldilar. Syuzen Djekni ishdan bo'shatmasa, odamlarning ishonchini yo'qotishdan va odamlar Syuzen qilayotgan harakatlaridan shubhalana boshlashlari mumkinligidan qo'rqr edi.

Savol:

Hodisani odamlarning bu ahvolga qarashi va munosabati nuqtai nazaridan tushuntirib bering. Shaxsiyat (индивидуальность) qanday ahamiyatga ega? Syuzen qanday ish tutishi kerak? U Djekni ishdan bo'shatishi yoki yana bir imkoniyat berishi kerakmi? Inson hayotida qilingan yagona xato uning taqdiriga qanday ta'sir qiladi?

Mustaqil o'qish uchun matnlar

Hunar-zar, hunarmand zargar.

Xalqimizda: “Odam bolasiga qirq bir hunar ham oz”, - deyilgan yaxshi gap bor. Agar kasbkor, hunar barmoq bilan sanaladigan qadimdagi shunday deyilgan ekan, hozirgi atom asrining sanagan bilan ado bo‘lmaydigan haddi-hisobsiz kasbkorlari, behud ixtisoslari zamonida: “Yoshlarga qirq bir ming hunar ham oz”, - deyilsa to‘g‘ri bo‘lar? Ha, shunaqaga o‘xshab qoldi. Qani, shu gapning mag‘zini bir chaqib ko‘raylik. Hozirgi talabchan, murakkab hayotimizda bir hunar yo bir ixtisos egasi qulochini keng yoyib, ishini bitirib ketaveradi, deb bo‘lmaydi. Bir hunar yo bir ixtisos – katta davlat, albatta. Ammo tor ma‘nodagi davlat. Hayot esa bir-biri bilan uzviy bog‘langan shunday bir xalqalardan iboratki, bir xalqanin tilini bilsang – u, boshqalarinikini bilmasang – katta ishda albatta qoqilasan. Shuning uchun har bir hunar sohibi bitta xitisos bilan kifoyalanib qolmay, o‘z kasbiga bog‘liq bir necha hunarni egallab olsa faqat o‘zigagina emas, u ishlayotgan, mehnat qilayotgan korxonaga ham katta foyda. Agar masala faqat shunga qarab qolganda edi, malakali hunar egasi bitta ixtisos bilan ham bermalol yashashi mumkin bo‘lar edi. Ammo hgozirgi yoshlarimizni, ongli kishilarimizni bir necha ixtisosni o‘rganishga majbur qilayotgan narsa – jamoa, xalq manfati. Demak, mehnatga kasb-korga bo‘lgan munosabatni odamning fuqarolik qiyofasi desa bo‘lar ekan. Bino barin, bu munasbat xunuk bo‘lsa, hech qanday jismoniy go‘zallik odamdagi ijtimoiy nogironlikni yopib ketaolmaydi.

Madaniylik

Madaniylik, shirinsuhanlik, ko‘ngilxonlik inson husnining shartlaridandir. Bularsiz insonda na go‘zallik bor va na abadiylik. Darhaqiqat har bir odam xulq-atvori, xatti-harakati, yurish-turishi, o‘zini tutishi, demak ma‘daniy saviyasi jihatidan el orasida yo yaxshi, yo yomon qoldiradi. Hurmat bilan tilga olinishiga ham, nafrat bilan yuz o‘girilishiga ham odamning o‘zi sababchi.

Yahshi fazilat shunday ulug‘ narsaki, uni odam hayotining ma‘naviy xazinasida bo‘ladi, bu hazinada inson husnining durdonalari saqlanadi. Bu durdonalarni har bir odam o‘zi bitta bittadan terib, husun xazinasiga keltirib to‘kadi. “Inson” deganda biz shu ma‘naviy boylik xazinasining ajoyib sohibkorlarini tushunamiz.

El orasida odam qaddini raso qilib tuttiradigan fazilat durdonalaridan biri madaniylikdir. Odamda bu yahshi fazilat bo‘lmasa, u har qadamda qoqilishi, el nazaridan qolishi ehtimoldan holi emas. Shuning uchun madaniylikka faqat va faqat o‘qish, bilim olish yo‘li bilangina erishiladi,

deb bo'lmaydi. To'g'ri, ilm ma'rifat madaniylikni orttiradi, mustahkamlaydi, lekin birdan bir sharti bo'lib qolmaydi. Shuning uchun madaniyatni odamning olgan ilmida deb tushunish noto'g'ri bo'ladi.

155-topshiriq. Matnni o'qing va unga savollar tuzing.

Ota vasiyati

Qadim zamonda bir kambag'al kishi yashagan ekan. Uning hovlisida uch-to'rt tup toki bor ekan. Bu kishi tokdan olgan hosilini sotib tirikchilik qilar ekan. Bir kuni u kishi kasal bo'lib yotib qolibdi. U yolg'iz o'g'lini chaqirib, shunday debdi:

- O'g'lim, mening o'limim yaqinlashganga o'xshaydi. Senga aytadigan bir gapim bor. Shuni yaxshilab eslab qol. Gapim shuki, tokimizning tagiga ikki joyga ikki xum tilla ko'milgan. Shu tillani ikki marta - bahorda va kuzda kavlab olib, tirikchiligingga yaratgin, shu bilan boyib ketishing mumkin.

Otasi shu gaplarni gapirib bo'lib, olamdan o'tibdi. Bahor kelibdi. Yigit ketmonni qo'liga olib, toklarning tagini kavlay boshlabdi. Oltin chiqmabdi. Shu orada toklar ko'karib, uzum qilibdi. Yigit tilla qidirishni vaqtincha to'xtatibdi, toklarni parvarish qilibdi.

Shu yil tok juda ko'p uzum qilibdi. Uzumlarni yigit sotib, ancha pul to'plabdi. Kuz kelibdi. Yigit yana tokning tagini kavlab, oltin qidira boshlabdi. Bahorda yana hamma yog'ini kavlabdi. Hech narsa topilmabdi. Lekin tok ikkinchi yili yana juda ko'p hosil qilibdi. Uzumlarni sotib, yigit boyib ketibdi.

Kuz kelganda yana yigit qo'liga ketmon olib, kavlay boshlaganida otasining do'sti kelib qolibdi. Yigit otasining gaplarini unga aytib beribdi. Shunda kekxa otaxon:

- Bolam, otang aytgan oltinlarni kavlab olibsan-ku,- debdi.
- Yo'q, men hech qanday oltin topganim yo'q,-debdi.
- Axir sen boyib ketding, chunki yilda ikki marta tokning tagini kavlab, uning hosilini oshirding. Otang aqlli odam edi, uning aytgan oltinlari sen mehnat qilib topgan pulingdir,- debdi.

156-topshiriq. Quyidagi matnlarni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Гибельная оптика?

Несколько лет тому назад во Франции торговцы антиквариатом обратились к гражданам и представителям прессы с довольно странной просьбой. Они категорически не рекомендовали

коллекционерам приобретать старинное кривое зеркало с надписью на раме: "Луи Арпо, 1743 год". Причиной предубеждения явилась неожиданная пропажа этого антикварного изделия. Дело в том, что зеркало Луи Арпо почти целый век находилось... в заключении. А точнее - хранилось на складе полицейского управления Парижа, поскольку с ним связывали гибель 38 человек. В 1997 году профессор криминалистики попросил разрешения взять зеркало для демонстрации на лекциях, но оказалось, что на складе его нет...

Солнечная башня

Башня высотой с километр скоро появится в Австралии. Ее уже окрестили восьмым чудом света. Этот грандиозный проект затеяла компания Enviro Mission, чтобы решить проблему электроснабжения 200 домов. Проект состоит в возведении железобетонной трубы, внутри которой будет установлена турбина, подключенная к электрогенератору. Вращать турбину придется потоку горячего воздуха, поступающего из огромного "парника" диаметром 7 км, который будет построен вокруг башни. К тому времени, когда поток дойдет до основания башни, его скорость достигнет 60-65 км/час, а его температура повысится до 65 градусов. В отличие от обычных ветряков, простаивающих в часы безветрия, Солнечная башня будет работать круглые сутки: ночью из солнечных аккумуляторов будет освобождаться тепло, накопленное за день, и энергия горячего воздуха продолжит вращать турбину. Строительство башни начнется через несколько месяцев.

Сюжет на будущее

(отрывок из лекции Сьюзен Гринфилд)

... Достижения науки и техники в ХХІ веке, вполне возможно, изменят до неузнаваемости то, как мы живем, думаем, чувствуем и видим. По мере развития окружающего мира наш разум, сама природа человека тоже будет трансформироваться. Вероятно, мысль о грядущем переустройстве разума многим покажется спорной... Мозг удивительно пластичен – все в окружающем мире, что может воздействовать на ассоциативные связи, меняет и структуру мозга на клеточном уровне, и сознание человека.

Возможно, наиболее показательный пример такой точки зрения недавно представлен в отчете Королевского института: у лондонских таксистов, постоянно «прокручивающих в мозгу» расположения и

названия улиц, определенный участок мозга по размеру больше, чем у других людей.

...Так что же может случиться с нашим разумом в XXI веке, когда все научные открытия XX столетия воплотятся в жизнь?

157-topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring.

1. Agar siz Andijonga bormasangiz,
2. Sportchi musobaqada yutqazsa,
3. Darsni o'z vaqtida tayyorlasang edi,
4. Kun isisa,
5. Yozgi ta'til boshlansa,
6. Ertaga havo ochiq bo'lsa,

158-topshiriq. Nuqtalar o'rniga shart mayli qo'shimchalarini qo'yib, gaplarni ko'chiring.

1. Dam olish kuni kel..., birga dala hovliga borib gullar ekamiz. 2. Kutubxonaga bor..., senga ham o'zbekcha-ruscha lug'at olib kelaman. 3. Bu yil ham imtihonlarni yaxshi topshir..., Buxoroga sayohatga bormoqchiman. 4. Qani endi har yili, bahor mana shunday seryog'in bo'l... . 5. Kimki mehnatga chidamli bo'l..., u har doim muvaffaqiyatga erishadi. 6. Bugun ishdan ertaroq kel..., hovlidagi gullarga suv quyaman. 7. Yerga qanchalik ko'p o'g'it solinib, yaxshi ishlov beril..., hosil mo'l bo'ladi. 8. Universitetni imtiyozli diplom bilan tugat... magistraturada o'qishim mumkin. 9. Agar sen Erkinni uchrat..., unga xat borligini ayt. 10. Kamtar bo'l..., obro'ying ortar.

159-topshiriq. Matnni o'qing.

Bo'sh vaqt mazmuni

Vaqt muammosi qadim-qadimdan insoniyatni o'ylantirib keladi. Dunyoning eng buyuk mutafakkirlari vaqtga turlicha ta'rif berganlar.

Vaqtни qadrlash xalqimizning maqol va hikmatlarida ham o'z aksini topgan. "Vaqtning ketdi - naqding ketdi", "Fursat - oqar suv", "Vaqt - odil hakam" kabi maqol va hikmatlar shular jumlasidandir.



Ertalab inson o'rnidan turadi, nonushta qiladi, so'ngra ishga yoki o'qishga boradi, tushda ovqatlanadi. Kech bo'lgach, uyiga qaytadi va dam oladi. Bularning barchasi inson hayotidagi muayyan tartibni ko'rsatadi. Bu tartib esa vaqt bilan bog'liq.

Yoki yosh bola bilan keksa odamning harakatlarini olib ko'ring. Yosh bola hali unda burch, mas'uliyat tuyg'usi bo'lmaganligidan asosan o'z huzurini, vaqtini zavqli o'tkazishini o'ylaganligidan, boshqalar dardiga beparvo, o'yinqaroq bo'ladi. Keks kishi esa iloji boricha ko'proq foydali ish qilib qolsam, deydi. Shuning uchun ham unga har doim vaqti kamlik qiladi.

Demak, vaqtning inson hayotiga ko'rsatadigan ta'siri g'oyat kuchli. Binobarin vaqtdan unumli foydalanish, vaqt mezonini asosida harakat qilish ma'naviyatning muhim omillaridandir.

Bo'sh vaqt - insonning muayyan doimiy, asosiy faoliyati bilan shug'ullanmagan vaqti. Bo'sh vaqtda inson dam oladi, jismoniy va aqliy faoliyatini tiklash maqsadida turli ko'ngilochar, maroqli ishlar bilan shug'ullanadi. Bunga kitobxonlik, sport, san'at bilan shug'ullanish, dam olish, sayr qilish kabi mashg'ulotlar kiradi. Faqat uyqu va bekorchilik bilan o'tkaziladigan vaqt bo'sh vaqtning faoliyatsizlik qismiga misol bo'la oladi. Insonning bo'sh vaqtiga kitobxonlik darajasini o'stirish maqsadida mustaqil mutolaa qilish, estetik madaniyatni o'stirish, ekologik madaniyatni shakllantirish, jismoniy chiniqish bilan band bo'lish kabi mashg'ulot turlari kiradi.

Bo'sh vaqt qanday tashkil etish har kishining o'ziga bog'liq. Biroq zamonaviy talablar asosida yashaydigan insonning bo'sh vaqti uning asosiy faoliyat turi bilan bog'liq bo'lishi, uni yanada mustahkamlashga, qiziqarli tashkil etishga, faoliyatining unumdorligini oshirishga, hayotda o'z o'rnini topishga ko'maklashishi lozim. Chunki mehnat unumdorligi bo'sh vaqtning qanday tashkil etilishiga bog'liq.

Bo'sh vaqt insonning barkamol shakllanishiga xizmat qiladigan bebaho boylikdir. Shuning uchun uni tashkil etish faqat shaxsiy ish bo'lib qolmasdan, balki ijtimoiy ahamiyatga molik masala hamdir. Shu bois bo'sh vaqt to'g'ri tashkil etish har bir odamdan qunt va sabot talab etadi.

160-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Цена минуты

Ты, наверное, слышал такое выражение: «Время - деньги»? Эти слова пошли от знаменитого учёного Вениамина Франклина. Но так ли справедливы знаменитые слова знаменитого человека?

Время - дороже денег! Потерянный гривенник можно заработать снова, а вот упущенная минута исчезнет навсегда. И нет на свете ни силы, ни средства способных вернуть самое крошечное мгновение.

161-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga shart mayli qo‘shimchalarini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Ertaga kel..., birga dars tayyorlaymiz. 2. Agar dars davomida kerakli ballni yig‘ ..., qayta javob bermasding. 3. Hozir o‘z kasbingni egalla..., ishda qiynalmaysan. 4. Sen kel....., u xursand bo‘lar edi. 5. Agar havo dim bo‘l., qaldirg‘ochlar pastlab uch., yomg‘ir yog‘adi. 6. Bugun mehmonlar kelma..., bozorga bormoqchimiz. 7. Men o‘z kun tartibimga rioya qil..., ko‘p narsaga ulguraman. 8. Agar siz ruxsat ber, men borar edim. 9. Agar shaharda zarur ishingiz bo‘lma..., men bilan bir yerga borib kel.....ngiz. 10. Sen ko‘p kitob o‘qi....., dunyoqarashingni boyitasan.

162-topshiriq. Quyidagi fe’llardan shart maylidagi fe’l shaklini yasang va shaxs- sonda tuslang.

Namuna: qursam, qursang, qursa...

Qurmoq, yasamoq, o‘qimoq, tejamoq, taqsimlamoq, bajarmoq, rejalashtirmoq, saqlamoq.

163-topshiriq. Quyidagi maqollarni o‘qing va o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Дерево сначала пускает корни, а потом растёт вверх. 2. Одна пчела немного мёду натаскает. 3. Победа находится впереди, а трус прячется позади. 4. Кто много говорит, тот мало делает. 5. Кто учится прилежно, тот и работает хорошо. 6. Материнский гнев - что весенний снег: много выпадает, да скоро тает. 7. Не той собаки бойся, которая громко лает, а той, которая тихонько кусает. 8. Готовь сани летом, а телегу зимой. 9. Тише едешь - дальше будешь. 10. Меньше будешь говорить - больше услышишь.

164-topshiriq. Matnni o‘qing va savollar tuzing.

Ilm va olam

Odamzod paydo bo‘libdiki, dunyoni bilishga harakat qiladi. Momaqaldir oq chaqmoqlari-yu, yer tebranishlari, fasllar aylanishi-yu, jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlari uzoq asrlardan buyon insoniyat ongini band etib keladi. Tabiat sirlarining ochilishi insonga bitmas-tuganmas qudrat va kuch baxsh etdi, yangi jumboqlar sari ilhomlantirdi, odamzod ahli ikki karra ikki to‘rt ekanligini bilishdan, kosmik kemalarni kashf etishgacha bo‘lgan uzoq va mashaqqatli yo‘lni bosib o‘tdi. Bunday aql karvoni yo‘lida qanchadan-qancha ilm shaydolari azob chekmadilar, qanchadan-qancha insoniyatning asl farzandlari qurbon bo‘lmadilar. Ammo ularning umri, hayoti va kashfiyotlari kelajak avlodlarning yo‘lini yoritib turgan abadiy so‘nmas mash‘al bo‘lib qoldi. Haqiqat uchun qurbon bo‘lish, ilm tantanasi uchun jon fido etish kishilik jamiyati erishgan buyuk ma‘naviy qudratning zavol bilmas haykali, buyuklik timsolidir.

Aqlning o‘lchovi, ilmning poyoni yo‘q. Ammo insoniyat ilmi, dunyo haqidagi haqiqatlar katta ijtimoiy kurashlar, to‘qnashuvlar asosida qo‘lga kiritildi.

Lug‘at

Yoshlik hayotning bebaho tuhfasidir – молодость бесценный подарок жизни

Hayot- ibrat manbai – жизнь – источник примеров

Vaqtni tejashni o‘rganing – научитесь экономить время

Bilim olish baxtli kelajakning kafolati - знания гарантия счастливого будущего

Kafolatli xizmat-daromatning garovidir – гарантийная услуга – гарантия доходов

Yoshlikni yerga sovurish jinoyatdir – напрасно потраченная молодость, - преступление

165-topshiriq. Quyidagi matnni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

Коллекция мичмана Даля

Многие из вас, наверное, видели на книжных полках четыре толстых тома с золотыми буквами на корешке «Толковый словарь живого великорусского языка». Но знаете ли вы, что эти тома

являются своеобразной коллекцией и её почти всю жизнь в течении 53 лет, собирал один человек ?

В 1819 году 18 летний мичман, Даль Владимир Ильич, окончив морской корпус в Петербурге, получил назначение в город Николаев. Путь по тем временам был не близкий. Сам Даль вспоминает: “В этой первой моей поездке по Руси я положил бессознательно основание к моему словарю, записывая каждое слово, выражение, которое дотеле не слышал”.

166-topshiriq. Quaidagi sxema bo'yicha gaplar tuzing.

1. (Agar).....-sa,.....
2. (Agar).....-sa edi.....
3. (Agar).....-ganda,.....
4. (Agar).....-ganda edi,.....
- 5.(Mobodo).....gan ekan,.....
6. (Bordi-yu).....-r (ar) ekan.....
7. (Agar).....moqchi ekan.....
8.-mi,.....
9.,bo'lmasa.....
10.,yo'qsa.....
11.-may,.....
12.-masdan avval,.....
13.bo'lay desang,.....
14.-sinki,..... .

TABIAT VA INSON

(Sabab- oqibat munosabatlarining ifodalanishi)

167-topshiriq. Matnni o'qing.



O'zbekistonning o'simlik dunyosi

Mamlakatimiz hududida to'rt mingdan ortiq o'simlik turi mavjud. Ularning ko'pchiligi yovvoyi, ayrimlari madaniy holda va ba'zilar madaniy o'simliklar orasida begona o't sifatida o'sadi.

O'zbekiston tabiati nihoyatda xilma-xil va go'zaldir. Baland tog'qlar, lalmikor qiradirlar, qumloq cho'llar, suv omborlari, daryolar, serhosil dalalar, ko'm-ko'k o'rmon va mevazor bog'lar O'zbekistonning ko'rkidir.

Cho'llarda suvsizlikka chidamli tikanli o'simliklar bilan bir qatorda, namni kam bug'lantiruvchi saksovul daraxtlari o'sadi. Yurtimiz tog'larini bog'ga qiyos qilish mumkin.

Insoniyat hayoti o'simliklar olami bilan uzviy bog'liq, chunki o'simliklar insonni to'ydiradi, kiyintiradi, havoni tozalaydi, xo'jalik va qurilish materiallari bo'ladi, tuproqni eroziyadan saqlaydi, namlikni ushlab turadi, tuproqni oziqlantiradi.

O'simliklarning eng ajoyib xislatlaridan biri - ularning shifobaxshligidir. Insoniyat qadim zamonlardan beri o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlaridan bahramand bo'lib kelgan. Serquyosh dala va bog'larimizda yetishtirilayotgan shirin-shakar mevalar, darmon-dorilar manbai bo'lgan sabzavotlar, poliz mahsulotlari o'zlarining shifobaxshligi bilan boshqa joylarda yetishtirilgan mahsulotlardan ajralib turadi. Qishin-yozin dasturxondan meva va sabzavotlarning arimasligi salomatligingizning garovidir.

Shuni esda tutish kerakki, ko'pchilik o'simliklarning tarkibida zaharli moddalar bo'ladi. Bunday dorivor o'simliklardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bo'ladi. Ulardan tayyorlangan dorilarda zaharli moddalar bir oz ortiqroq bo'lsa ham, kuchli zaharlaydi yoki turli kasalliklarga yo'liqtiradi. Bunday o'simliklarni og'izga olmaslik, ularni yig'ib olayotganda qo'lni ko'zga urmaslik va ish tugagach qo'lni yaxshilab yuvish kerak.

O'simliklar bo'lmasa, hayotning o'zi ham bo'lmaydi. Shuning uchun ularni asrab avaylash, o'sib, ko'payishiga yordam berishimiz lozim. Yashil

olam insoniyatning eng yaqin do'sti ekanligini unutmaylik.

168-topshiriq. Quyidagi gaplarni davom ettiring..

1. Barglarning to'kilishi sababli, 2. Yomg'ir ko'p yog'ganligi sababli, 3. Yer yuzasi muzlagani uchun, 4. Bahor kelgani sababli, 5. Iqlimimiz mo'tadil bo'lgani uchun, 6. Dengiz suvi sho'r bo'lgani uchun, 7. Kuchli shamol esgani sababli, 8. Kuchli sel yoqqani uchun, 9. Bemavrid qor yoqqani sababli, 10. Muzlar erigani uchun, 11. Yoz chillasi issiq kelgani sababli, 12. Tog' havosining musaffoligidan, 13. O'simliklarning shifobaxshligidan, 14. Noyob hayvonlarning qirilib ketishi natijasida,.... .

169-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Объявить природу заповедником!

Современное поколение людей, видимо, последнее, которое ещё может сохранить островки жизни в таком виде, в каком создала их сама природа. Нет богатства на нашей планете дороже этого.

«Красная книга» всё больше, если можно так, выразится, краснеет. Был один том, теперь, вот появились сразу два...

Навсегда исчез, например, туранский тигр. Два - три десятилетия назад его ещё можно было встретить в Средней Азии. Теперь –увы... Практически можно считать истреблённым гепарда. Почему это происходит? Не успели вовремя принять охранные меры.

Кое-что в этом плане уже сделано. Например, удалось восстановить в численности зубра, новоземельского северного оленя..... создан бухарский питомник по производству джейранов, питомник по выращиванию крупных соколов.

170-topshiriq. *Sababli, natijada, oqibatda kabi so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.*

Namuna: Kuz erta kelganligi sababli, daraxtlarning bargi barvaqt sarg'aydi.

171-topshiriq. Matnni rus tiliga tarjima qiling.

O‘zbekiston - jannatmakon o‘lka

O‘zbekiston Respublikasi O‘rta Osiyoning markaziy qismida joylashganligini hammamiz bilamiz. U 447,4 ming kv. km. maydondan iborat.

O‘zbekiston Respublikasini dunyoning qariyb barcha davlatlari tan oldi va ular bilan o‘zaro elchixonalar ochilib, mustahkam aloqalar o‘rnatilmoqda. O‘zbekiston yoshlari yangi ochilayotgan universitetlar, institutlar, kollejlari, litseylarda ta‘lim olayotirlar. Yoshlar bilim olish, malaka oshirish, tajriba almashish uchun chet ellarga borib kelmoqdalar.



O‘zbekiston qadimiy va boy tarixga ega. Har yili Samarqand, Toshkent, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlaridagi tarixiy obidalarni ko‘rish uchun ko‘plab sayyohlar tashrif buyurishadi.

Respublikamizda 12 viloyat, 1 avtonom respublika, 130 ga yaqin shahar, minglab qo‘rg‘on va qishloqlar mavjud. Vatanimiz tuprog‘i bebaho konlarga boy, tabiati go‘zal, xalqi mehmondo‘st. Neft, gaz, ko‘mir, oltingugurt, osh tuzi, rux, qo‘rg‘oshin, mis, volfram, oltin konlari muntazam ishlab turibdi. O‘zbekistonning asosiy ekini paxta va g‘alladir. Shuningdek, makkajo‘xori, meva, uzum, tamaki va poliz mahsulotlari ham ko‘plab yetishtiriladi. Keng yaylovlarda zotdor qo‘y va echkilar, qoramol, yilqi, tuya podalari boqiladi. Pillachilik ham rivojlangan sohadir.

172-topshiriq. Matnni o‘qing.

Suv - tabiiy boyligimiz

Hozirgi vaqtda atrof-muhit va tabiiy resurslardan foydalanishning eng muhim muammolaridan biri aholini yetarli miqdorda toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashdir.

Umumiy sanoat korxonalari mavjud suv manbalarining 20% ini tashkil etadi. Sanoat ishlab chiqarishdan chiqqan oqava suvlar tarkibida o‘ta zaharli moddalar, og‘ir metallar mavjud. Kon-ruda sanoati korxonalari oqava suvlarida og‘ir metallar ruxsat etilgan me‘yordan 50 barobar, neft undan ham ko‘p uchraydi. Tahliliy nazoratga ixtisoslashgan davlat

inspektsiyasi mutaxassislari ma'lumotiga ko'ra, 626 sanoat korxonalaridan ko'p miqdorda yetarli tozalanmagan oqavalar chiqib turibdi.

Ulardagi oqavalarni tozalaydigan qurilmalarning ishlash samaradorligi 50-90% o'rtasidagi quvvat bilan ishlatilmoqda. Bu esa oqava suvlarning ifloslik darajasining keskin oshib ketishiga sabab bo'lmoqda. Nemis olimi G.Libman aytganidek, bizning sayyoramizda kishilarning salomat qolishlari uchun texnikaning mo'jizalari emas, balki ichish uchun yaroqli suv yetarli bo'lishi kerak.

Sayyoramizning 3/4 qismini dengiz, ko'l va daryolarning suvi egallagan. Ammo iste'mol qilishga yaraydigan toza ichimlik suvi miqdori juda oz, Yerdagi jami suv zahirasining o'rtacha 0,6 % ini tashkil etadi.

Qarshi kanali atrofida joylashgan quvurlarning oqavalari kanalga oqizib qo'yilgan. Oqibatda viloyatning quyi qismidagi ko'p xo'jaliklarning minglab gektar unumdor yerlari zax bosib, sho'rlanib ketdi. Suv muhofazasining muhim asosiy shartlaridan biri - uni tejimli sarflash. Suvni tejashda oqava suvlarni yig'ib, uni tozalash va qayta ishlatish katta ahamiyatga egadir. Bu ish foydalaniladigan suvni tejaydi, yerning, suvning sho'rlanishi va suv ifloslanishining oldini oladi. Yapon yozuvchisi Xiroshi Noma: "Mabodo kelgusida Yerda hayot tamom bo'lsa, u atom urushidan emas, suv yetishmovchiligidan bo'ladi", - degan edi. Shuning uchun biz hayot manbai bo'lgan suvni toza saqlash va ko'paytirish choralari ko'ra olsak, kelgusida xalqimizning sog'lom va farovon turmush kechirishini ta'minlagan bo'lamiz.

173-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Не только польза, но и красота.

Красота природы! Это и неповторимая прелесть лесного уголка, и удивительная окраска полевого цветка, и тишина заросшего пруда, и грациозность лани.

Художники и писатели, открывая в повседневном вечное, дают возможность людям по – новому увидеть, оценить и полюбить красоту природы. А любовь к природе – это и любовь к Родине, к месту, где ты родился, где прошли детские годы.

Какими яркими красками природа одарила Узбекистан! Ранней весной глаз не оторвёшь от цветущих садов, долин, покрытых сплошь красными тюльпанами.

174-topshiriq. Quyidagi gaplarga qo'shimcha va yordamchi so'zlardan mosini qo'yib ko'chiring.

1.Yomg'ir ko'p yog'ganligi ko'katlar tez gurkirab o'sdi . 2. Yer sirpanchiq bo'lganligi... yurish qiyin edi. 3. Yoz oqshomi iliq bo'lganligi kiyim almashtirish esiga kelmadi. 4. U shoshgani.... loyni sachratib yubordi. 5. Qalin qor yoqqanligi Abdulla uyga kech qaytdi. 6. Quyosh botganligi ish to'xtatildi. 7. Kuchli shamol boshlanganligi hamma uyga yugurib kirib ketdi. 8. To'fon boshlanganligi kemalar dengizga chiqmadilar. 9.Suv sathi kamayganligi ekinlar vaqtida sug'orilmadi. 10.Yog'ingarchilik ko'p bo'lganligi hosil mo'l bo'ldi.

175-topshiriq. Quyidagi topishmoqlarni toping.

Zar gilam, zargar gilam, ko'taray desam, og'ir gilam.
Hammani to'ydiradi-yu, o'zi yemaydi.

176-topshiriq. Quyidagi maqollarni izohlang.

Bahorgi harakat-kuzgi barakat.
Kuzning bir kuni, qishning bir oyini boqar.
Navro'zdan so'ng qish bo'lmas, mezondan so'ng yoz bo'lmas.
Qishning bir kuni qolsa qo'rq.
Qishning qori-yozga dori.
Kun g'amini sahar yer, yil g'amini bahor yer.
Yilning yaxshi kelishi bahoridan ma'lum.
G'oz kelgani, yoz kelgani.
Chilla suvi - tilla suvi.

Og'zaki nutqni o'stirish uchun materiallar

Uzr, kechirim so'rash	Извинение
Iltilmos, meni kechiring.	Извините (простите), пожалуйста
Kelolmaganligim uchun	 Извините (простите), что...
-kechikkanim uchun....	 я не мог прийти
-sizga qo'ng'iroq qilolmaganim	я опоздал
	 я не позвонил Вам

uchun...

-gapingizni bo'lganim uchun
-sizni kutmaganim uchun....

..... kechiring

Uzr so'rayman, kechiring.

Aybdorman.

Sizdan uzr so'ramoqchiman.

Jahlingiz chiqmasin.

Mendan hafa bo'lmang.

Men aybdor emasman

Uzrga javob berish

Marhamat

Hech qisi yo'q

Arzimaydi

Hayrat. Ajablanish

Ajabo! Taajjub!

Qiziq!G'alati!

Ana yangilik!

Ajoyib!

Aql bovar qilmaydi!

Nahotki!

Bu meni ajablantiradi

Ana xolos!

Tushunib bo'lmaydi.

Kim o'ylabdi deysiz!

Bo'lishi mumkin emas!

.....я Вас перебиваю

.....я Вас не дождался.

Прошу прощения

Виноват

Я хочу извиниться перед Вами

Не сердитесь на меня

Не обижайтесь на меня

Я не виноват

Ответ на извенение

Пожалуйста.

Ничего

Пустяки (не стоит)

Удивление. Недоумение

Удивительно!

Странно!

Это новость!

Поразительно!

Невероятно!

Неужели!

Меня это удивляет

Вот это да!

Не понятно!

Кто бы мог подумать!

Не может быть!

177-topshiriq. Matnni o'qing.



Dunyoning yetti “mo'jizasi”

Qadimgi dunyoning noyob islohotlari va haykaltaroshlik yodgorliklarini shunday deb atashgan. Inson aql-zakovati va qo'li gul ustalar yaratgan bu ajoyib yodgorliklardan bizning davrimizgacha bittasigina yetib kelgan. U Misr ehromlari - piramidalaridir.

Bular fir'avnlarning (qadimgi Misr podsholarini shunday ataganlar) g'oyat ulkan maqbaralari. Misr poytaxti Qohiraning janubida, Nil vodiysining serunum yerlari tugab, hayot asari bo'lmagan Liviya sahrolari boshlanadigan qaynoq qumlar ustida oq va sarg'ish rangli, o'tkir qirrali bahaybat sun'iy "tog'" ko'zga tashlanadi. Bular ehromlardir.

Ehromlarning eng yuksagi fir'avn Xufu (Xeops) piramidasidir. Uning balandligi 147 metr. Bundan qariyb besh ming yil ilgari, miloddan avvalgi 28- asrda qurilgan. Xufu ehromining har bir tomoni 233 metrga teng, atrofini bir marta aylanib chiqish uchun bir kilometrga yaqin yo'l bosish kerak. Xufu ehromidan keyin fir'avn Xafra (Xefren) piramidasi turadi. U Xufu ehromidan ikki metr past. Bu fir'avnga tog'dek sag'ana ham kamlik qildi va u ehrom oldida yaxlit qoya tiklatib, unga bosh qismi odam boshiga o'xshatib ishlangan sher shaklini o'ydirgan. Bu haykal Sfinks deb ataladi. Sfinks obrazi inson kabi donolik va sher kabi kuchlilik ramzini ifodalaydi.

Bundan o'ttiz ikki asr muqaddam yashagan fir'avn Tutanxamon piramidasi saqlanib qolgan. Bu ehrom miloddan avval qanday qurilgan bo'lsa, olimlar ko'z o'ngida shundayligicha namoyon bo'ldi. Maqbara ichidan qadimgi Misr saroylariga oid anchagina boyliklar - oltin va kumushdan yasalgan haykalchalar topildi.

Yetti mo'jizasi yana biri Semiramidaning samoviy bog'laridir. Bu bog'lar qadimgi Sharqning eng katta va badavlat shahri - Bobilda bo'lgan.

Kichik Osiyoning Efes shahridagi Yunon ma'budasi Artemida ibodatxonasi dunyo mo'jizasining uchinchi hisoblanadi. Bu ibodatxona marmardan ishlangan bo'lib, 120 yil davomida qurilgan. 550- yilga yaqin tugallangan.

Zevs haykali to'rtinchi mo'jizadir. Haykal nihoyatda ulug'vor bo'lib, balandligi 14 metr. Zevs xudosi oltin fil suyagi, qora daraxt va qimmatbaho toshlardan ishlangan taxtda o'tirgan. Uning boshi zaytun daraxti novdalaridan yasalgan gulchambar bilan bezatilgan. Bu xudolar va odamlar hukmdori, osmon, momaqaldiraq xudosi, tinchliksevarlik belgisi.

Dunyoning 5-mo'jizasi Kichik Osiyoda Kanya podsholigi poytaxti - Galikarnas (Turkiyaning Bodrum shahri) shahridagi podsho Mavsol va uning xotini Artemisiya maqbarasidir. U IV asr o'rtalarida qurilgan.

Rodoslik Koloss (yunonlar baland haykalni shunday atashgan) nomi bilan mashhur bo'lgan bu haykal dunyoning 6- mo'jizasi hisoblanadi. Maydonda balandligi 37 metrli bronzadan yasalgan o'spirinning qiyofasi qad ko'targan.

Miloddan avvalgi 227- yilda zilzila natijasida vayron bo'lgan 7-mo'jizasi Misrda Nil daryosining dengizga quyilish joyida, Faros orolida bo'lgan. Uni Iskandariya mayog'i deb atashgan. Mayoq minora shaklida qurilgan, u uch qavatli bo'lib, balandligi 120 metr.

Go'zalligi bilan hammani hayratga soluvchi har qanday ajoyib san'at durdonasini dunyoning 8- mo'jizasi deb atash qadimdan qolgan.

Lug'at

Qahramonlar unutilmaydi – героев не забывают

Ibratli hayot – жизнь достойная подражанию

Kelajakka ishonch – вера в будущее

Ulkan jasorat – великий подвиг

Halq qahramoni – народный герой

Dovyurak – мужественный, бесстрашный, смелый

Sodiq farzand - преданный сын

Haqqoniyat – справедливость

Munosib – достойный

178-topshiriq. Matnni o'zbek tiliga tarjima qiling.

Сегодня человек, только он один, отвечает за всё на земле. Тысячи лет он боролся с природой, как с врагом. Теперь он отвечает за неё. Он отвечает за воздух, который окружает нашу планету, за океаны, за леса и реки, за всё, что живёт в них. Эту свою ответственность человек не может передать никому, потому что только он один наделён высшей силой: силой разума. А значит, поступки его должны быть разумны и человечны.

179-topshiriq. Quyidagi sxema asosida gaplar tuzing.

1., shuning uchun.....
2.- ganidan.....
3. - gani uchun,.....
4., chunki.....
5., negaki.....

180-topshiriq. Nuqtalar o‘rniga *chunki, shuning uchun, shu sababli* kabi bog‘lovchilarni mosini qo‘yib, gaplarni ko‘chiring.

1. Termometrlarda keng foydalanadigan simob 0 dan 39 daraja past bo‘lganda qotadi, qishda daraja minus 39 darajadan past bo‘ladigan joylarda simob darajalar ishlatilmaydi. 2. Havo baland bosimli joylardan past bosimli joylarga oqadi, siklonda atrofdan markazga qarab esadigan shamol vujudga keladi. 3. Fizika tabiat haqidagi asosiy fanlardan biridir, boshqa tabiiy fanlarning taraqqiyoti ko‘p jihatdan fizik hodisalarni bilishga bog‘liq. 4. Tuproqda tuz ko‘payib ketdi, daraxtlar quriy boshladi. 5. Biz tabiatni muhofaza qilishga yetarli e‘tibor bermadik, ba‘zi qushlar va hayvonlar kamyob bo‘lib qoldi. 6. Okeanlardan uzoqdagi Turon pasttekisligida yog‘in juda kam bo‘ladi, u yer eng issiq va eng quruq joy hisoblanadi.

181-topshiriq. Kerakli tinish belgilarni qo‘yib chiqing.

1. Do‘l bir zumda shunday yog‘diki yer oppoq bo‘lib ketdi. 2. Bu yerlarning oftobi shunday saxiyki osmoni haftalar oylar davomida bulut ko‘rmaydi. 3. Havo shu qadar issiq dim ediki ertalab o‘rilgan o‘t kechgacha qurib qoldi. 4. Qop-qorong‘i tun shu qadar tinch va sokin ediki hatto har bir sharpa ham bahuzur eshutilib turardi. 5. Osmondan mayda oq parchalar shu qadar quyuv to‘kila boshladiki bir qadam narida turgan odamni ko‘rish ham mumkin bo‘lmay qoldi. 6. Lolalar shuncha ko‘p ochilgan ediki ularning aks nuri bilan osmon ham qip-qizil ko‘rinardi.

182-topshiriq. Quyidagi maqollarni izohlang.

Jahl kelganda, aql qochadi

Когда приходит гнев, уходит разум

Bildim dedim- tutildim,
bilmadim dedim- qutuldim.

Сказал, что знаю – попался, сказал,
что не знаю – избавился

Qozonga yaqin yursang –
qorasi yuqar, yomonga
yaqin yursang- balosi yuqar.

Будешь рядом с котлом – сажа
пристанет, будешь общаться с
дурным человеком – пакость

183-topshiriq. Quyidagi savollarga sabab va oqibat (natija) munosabatlari ifodalangan konstruksiyalarni qo‘llagan holda javob bering.

1. Nega Orol halokat yoqasiga kelib qoldi?
2. Nima uchun tabiat kishiga zavq beradi?
3. Nimaning oqibatida azon tuynugi hosil bo‘lgan?
4. Atrof- muhitning ifloslanishiga kim va nima sabab bo‘ladi?
5. Ekologiyaning buzilishi qanday oqibatlarga olib keladi?
6. Nima uchun insonlar tabiat in‘om etgan go‘zalliklarni o‘z qo‘llari bilan vayronaga aylantiradilar?

184-topshiriq. Boshlang‘ich shaklda berilgan so‘zlardan gap tuzing.

1.Aqlli, odam, birov, hech qachon, bilan, urishmoq. 2.Biz, o‘zbek , til, tez, o‘rganmoq, istamoq.3.Yozilmoq, xat, o‘quvchi, yaxshi, niyat, va, hamkorlik, ruh, uyg‘otmoq, zarur. 4.Siz, bunday, imkoniyat, biz, tez-tez, yaratib turmoq, degan, umid, qilmoq. 5. Beruniy, o‘rta asr, sharoit, haqiqiy, ilmiy, tabiatshunoslik, asos, solmoq..

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. O‘zbekiston qayerda joylashgan?
2. Uning iqlimi qanday?
3. Tabiat insonga nimalar taqdim etadi?
4. Yurtimizning tabiati qanday?
5. Siz yashayotgan joyning tabiiy muhiti haqida gapirib bering.
6. Ekologiya va iqtisodning bir-biriga bo‘lgan ta’siri qanday?
7. Inson tabiatga qay tarzda ta’sir etadi?
8. Hozirgi paytda yer yuzidagi ekologik muhit qanday?
9. Hozirgi davrda yer yuzidagi ekologik jihatidan toza bo‘lgan joy nomlarini keltiring.
10. Tabiatni kelajak avlodga asl holda yetkazish uchun dunyoda qanday ishlar qilinmoqda? Mamlakatimizdachi?
11. Toza ekologik muhitni saqlab qolish uchun insonning qo‘shadigan hissi nimalardan iborat?

QAHRAMONLAR UNUTILMAYDI (Harakat va holat munosabatlarining ifodalanishi)

185-topshiriq. Matnni o‘qing va unga savollar tuzing.

Jaloliddin Manguberdi

Tarixiy manbalarda Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risida ham ijobiy, ham salbiy ma’lumot va xabarlarini uchratish mumkin. Ammo o‘z davrining ulug‘ davlat arbobi, buyuk lashkarboshisi haqida kim qanday va nima deb yozishidan qat’iy nazar, Jaloliddin Manguberдини hech kim An-Nasaviychalik yaxshi bilmagan va uning haqida bundan ortiqroq narsa yoza olmas edi, yoza olgan ham emas.

Shahobiddin an-Nasaviy o‘z asarida Jaloliddin Manguberдинing shaxsiy fazilatlari va xususiyatlarini oddiy va sodda ifodalay olgan: “U turk bo‘lib, qora mag‘iz yuzli, burni oldida qora holi bor, o‘rta bo‘yli yigit edi. Fors tilida bemalol so‘zlasha olar edi. U dovyuraklikda tengi yo‘q, sherlar ichida sher edi. U kamtarin, jiddiy odam bo‘lib, hech qachon baqirmas, so‘kinmas, atrofida gilar oldida o‘zini juda yaxshi, sipo tutar edi. U ko‘p gapirmas, xaxolab kulmas, ahyon-ahyonda jilmayar edi. U adolatni hurmat qilar, o‘z fuqarolariga nisbatan adolatli bo‘lishga intilar edi. U o‘z xalqining mushkul ahvolini yengillashtirishni yaxshi ko‘rar edi. Biroq u yashagan to‘s-to‘polon davr unga bunday xayrli savob ishni amalga oshirishga imkon bermadi. U hukmronlik qilgan davrlardagi suronli voqealar uni zo‘ravonlik ishlatishga majbur etib, uning tabiatini ma’lum darajada o‘zgartirdi. Sulton Jaloliddin eng og‘ir, murakkab sharoitlarda ham qat’iy tura oluvchi, eng qiyin sinovlardan ham sira qo‘rqmaydigan, ularga befarq qarovchi odam edi.”

186-topshiriq. Quyidagi matnni o‘qing va tushunchangizni o‘zbek tilida bayon qiling.

Поэтессы Востока

Имя «царицы» узбекской поэзии Нодиры знакомо всем, кто, так или иначе, сталкивается с историей узбекской литературы.

Махлар-оим, так звали её, родилась в 1792 году в Андижане. Семья будущей поэтессы принадлежала к династии Бабуридов и сохраняла традиции рода – стремление к знаниям, духовному совершенству. Её поэтическое имя Нодира стало широко известно в литературном мире. У поэтессы был ещё один псевдоним – Макнуна.

С появлением этого поэтического имени связано драматическое событие в её жизни.

Её муж Умар-хан, унаследовавший трон Кокандского ханства, разделял взгляды Нодир на культуру и искусство. Это был период расцвета её творческой жизни, но в 1822 году неожиданно скончался Умар-хан, и на трон Кокандского ханства был возведён их малолетний сын Мухаммад Али-хан. Горе не сломило поэтессу. Наряду с государственными делами она пишет стихи под псевдонимом Макнуна. Имя её и дела приобретают широкую известность.

Эмир Бухары Насрулла, прикрываясь исламистскими взглядами, вторгается в Коканде, зверски казнит Нодиру и её сыновей, грабит казну и порабощает народ.

Насладие Нодир многогранно – это и её поэзии, и её дела во благо народа, культуры и искусства.

Её сердце, душа и разум были отданы Прекрасному, служению ему, прославлению его и мечте о всеобщем его торжестве. Она писала стихи о любви и женском счастье:

Любви не изведавший – не человек,
Пойми: человек жив любовью земной...
Слагая напев свой всем людям земли
Ты пой, Нодира, о любви лишь одной!

«Звездой прекрасной» называли поэтессу Увайси, настоящее имя которой Джахан-биби. В своих стихах она прославляет красоту и любовь, призывает к знаниям, добру, милосердию.

Великим даром для Увайси было то, что на своём творческом пути она повстречалась с Нодирой-бегим и на многие годы нашла в её лице единомышленницу, подругу, соратницу. Современница великих поэтесс Дильшод Барно писала:

Я лишь скажу о Нодире – все вспоминают Увайси
Обеим рядом им стоять – во все так будет времена.
Они достоинством равны величию тысяч поэтесс,
И каждая из них двоих величию другой равна.

Поэзия Увайси – это мир красоты, очарования, это свидетельство неисчерпаемости таланта и творческого дара узбекской женщины, это драгоценные страницы нашей литературы и культуры.

187-topshiriq. Quyidagi gaplarni o‘zbek tiliga tarjima qiling.

1. Смелость – это сила духа, которая помогает преодолеть страх при совершении опасного, но важного для людей дела. Смелость свойственна героям - на них каждый хочет быть похожим. 2. В истории существует немало примеров замечательного героизма. 3. Смерть страшна для тех, кто плохо пожил, кто не сделал в жизни ничего. 4. Воля человека свободна: он вправе выбрать тот или другой путь, но он должен выбрать тот, на который указывает ему разум.

188-topshiriq. Maqollarni o‘qing va ularning ma’nosini izohlab bering

Botir yovsiz bo‘lmas.	Храбрец не без врагов.
Botir jangda sinaladi, dono – majlisda.	Смелого испытывают в бою, мудреца – в беседе.
Botirlik shahar olar.	Смелость города берет.
Botirning mushti ham yarog‘..	Кулак богатыря тоже оружие.
Mard bo‘lsang, maydonga chiq..	Если ты храбрый, выйди на поле боя.
Mard yiqilsa, maydonda qoladi..	Смелый остается на поле боя.
Mard maydonda sinalar.	Храброго узнают на поле боя
	Храбрый
	узнается в сражении.

189-topshiriq. Quyidagi harakat va holat ma’nolarini ifodalovchi so‘zlar ishtirokida gaplar tuzing.

Ardoqlash, bag‘ishlamoq, himoya qilmoq, qurbon bo‘lish, qadrlamoq, hurmat qilmoq, yodda tutmoq, jabr tortmoq, yarador bo‘lmoq.

190- topshiriq. Boshlang‘ich shaklda berilgan fe’llarni kerakli shaklda yozing.

Namuna: Malakali iqtisodchi (bo‘lmoq) **bo‘lish** uchun iqtisodiy nazariyani yaxshi bilish kerak.

1. Ishlab chiqarishning (rivojlanmoq) inflyatsiyaning keskin (pasaymoq) olib keldi. 2. Infratuzilmani (rivojlantirmoq) uchun juda katta mablag‘

kerak bo‘ladi. 3. Bozor munosabatlarini (yuksaltirmoq) uchun albatta raqobat bo‘lishi shart. 4. Prezidentning “Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asarini (o‘qimoq) har bir kishi ko‘pgina iqtisodiyotga oid savollariga javob (topmoq). 5. Inqirozga bag‘ishlangan asar taqdimotida (qatnashmoq) uchun talaba kitobni chuqur (o‘rganmoq), puxta tayyorgarlik (ko‘rmoq) kerak. 6. Agar har bir iqtisodchi Prezidentning “Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O‘zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo‘llari va choralari” asarini (o‘qimoq) va o‘zini qiziqtirgan savollarga javob (topmoq). 7. Bugungi kundagi iqtisodiy – moliyaviy inqiroz davrida keyingi oyda inflyatsiyaning (o‘smoq va kuchaymoq) ehtimoli bor. 8. Yirik xalqaro valyuta fondi – yirik xalqaro iqtisodiy tashkilot (bo‘lmoq) uning shtab kvartirasi Vashingtonda (joylashmoq) va uning inqirozga bevosita aloqasi bor.

Og‘zaki nutqni o‘stirish uchun minnatdorchilik bildirish madaniyati namunalari

<i>Minnatdorchilik</i>	<i>Благодарность</i>
Rahmat	Спасибо
Yana bir bor rahmat	Ещё раз спасибо
	Спасибо Вам..... Благодарю
Yordamingiz uchun.....	Вас.....
Maslahatingiz uchun.....	за помощь
E'tiboringiz uchun....	за совет
Taklifingiz uchun.....	за внимание
Tabrigingiz uchun....	за приглашение
Sizga rahmat. Sizga tashakkur	за поздравление очень
Sizdan juda minnatdorman	благодарен
Sizdan juda xursandman.	Я Вам очень признателен
Sizga tashakkur aytishga ijozat	
bering Siz juda olijanobsiz	
Siz juda iltifotlisiz	Разрешите поблагодарить Вас
Oldindan sizga minnatdorchilik	Вы очень любезны
bildiraman	Вы очень внимательны
	Заранее Вам благодарен

Minnatdorchilikka javob qaytarish
Marhamat!
Arzimaydi!
Sizga yordam berganimdan
xursandman Sizga yordamim
tekkanidan juda xursandman
Sizga, aksincha, men tashakkur
aytishim kerak

Ответ на благодарность
Пожалуйста!
Не стоит благодарности. Не за
что!
Рад помочь Вам
Мне было очень приятно помочь
Вам

Это я должен благодарить Вас

191-topshiriq. Matnni o‘qing, reja tuzing va reja asosida so‘zlab bering.

Xotira va qadrlash kuni

Xalqimiz qadim-qadimdan o‘tgan ajdodlarini munosib qadrlab kelgan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 12-maydagi Farmoyishiga binoan 9-May “Xotira va qadrlash kuni” sifatida nishonlanadigan bo‘ldi. Shu munosabat bilan O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Vatan va xalq ozodligi yo‘lida qurbon bo‘lgan fidoyilar xotirasini abadiylashtirish to‘g‘risida”gi qarori e‘lon qilindi.

Ajdodlarimiz azal-azaldan vafot etgan yaqinlari, qarindoshlarini eslab qabristonlarga borishgan, qabrlarni tozalab, atrofiga tol-terak, gul-u rayhonlar ekishgan, yaxshi fazilatlarini xotirlashgan. Islom dini kirib kelishi bilan “Qurbon xayiti”, “Ramazon xayiti” arafalarida marhumlar eslanib, ularning ruhiga duoi fотиha o‘qilgan. Tong bilan qabristonga borilib, qabrlar ziyorat qilingan. Marhum ota-onalar, aka-opalar, qarindosh-urug‘, ustozlar esga olingan.

Uzoq muddat sobiq mustabid tuzum davrida bunday marosimlar qoralab kelindi. Istiqlol yillarida ular qayta tiklandi. Endilikda o‘tgan ajdodlarimizni xotirlash va mo‘tabar zamondoshlarimiz hurmatini joyiga qo‘yishda “Xotira va qadrlash kuni”ning nishonlanishi katta ahamiyat kasb etmoqda. “Xotira va qadrlash kun” o‘z mohiyati bilan boshqa bayram va an‘analarimizdan farq qiladi. U olamdan o‘tgan ajdodlarni eslashgina emas, Vatan uchun kurashda halok bo‘lgan, sobiq mustabid tuzum davrida qatag‘on qilingan, xalq farovonligi va mamlakat taraqqiyotiga o‘z hissasini qo‘shgan kishilarning xotirasini hurmatlash hamdir.

Hozir yurtimizda “Xotira va qadrlash kuni”ni nishonlash borasida talay yaxshi ishlar qilinmoqda. “Xotira va qadrlash kuni” avlod-ajdodlarni bir-biri bilan bog‘lash, yurtdoshlarimizda mehr-shafqat, muruvvat,

o‘zligini anglash, hayotning qadriga yetish hissini kamol toptirishda muhim ahamiyat kasb etaveradi.

Ajdodlarimiz xotirasini e‘zozlash borasidagi ana shunday olijanob ishlarga Prezidentimiz Islom Karimov rahbarligida Toshkent shahri markazida barpo qilingan “Xotira maydoni”, Bo‘zsuv kanali bo‘yida bunyod etilgan “Shahidlar xotirasi” yodgorlik majmui yaqqol misol bo‘la oladi.

192-topshiriq. Quyida berilgan tayanch harakat va holat ma’nolarini bildiruvchi so‘zlardan mosini nuqtalar o‘rniga qo‘yib, matnni ko‘chiring.

Jasur o‘zbek o‘g‘loni

Azimjon Odilov tabiatan iste’dodli, xushbichim, o‘tyurak va jasoratli o‘zbek o‘g‘loni urush boshlanganda yurt himoyasi uchun otasi bilan birga jangga Urush kimning kim ekanligini ko‘rsatdi. Azimjonning harbiy sohaga qobiliyatini sezgan qo‘mondonlik mashhur Xarkov piyoda komandirlar bilim yurtiga yo‘lladi. U bilim yurtida hammani qoyil qoldirib barcha fanlardan a’loga, tengdoshlaridan harbiy bilim sohasida o‘zib ketdi. Shuning uchun ham unga kichik leytenant emas, to‘g‘ridan-to‘g‘ri leytenant unvonini berishib, jangga yuborishdi. 1942- yilning shiddatli janglarida u o‘zbek diviziyasini boshqardi va beqiyos jasoratlar

Azimjon ajoyib inson va burchga sodiq, oilaparvar yigit edi. U rafiqasi Omina Isroilovaga 1942- yili yo‘llagan xati va suratida shunday so‘zlarni edi: “Mening aziz Ominamga yodgorlik bo‘lsin! Doimo yodingda : Men seni borlig‘imdan ham kuchli sevganman. Ammo urush bizni bir-birimizdan Qaytgach, seni, albatta, qayerda bo‘lsang ham izlab topaman. Sen mening quvonchim va mening muhabbatim!”

... Mudhish urushdan Azimjon Shunda uning surati orqasiga rafiqasi Omina mana bu dardli so‘zlarni bitib qo‘ygandi:

“Men sizni abadiy..... Sizni unutish va o‘zga bilan almashtirish mumkin emas. Siz o‘zingiz bilan mendan barchasini olib ketdingiz. Baxtni,muhabbatni, kuchni. Endilikda faqat g‘am, alam va iztirob qoldi...”

Xerson viloyati Skadovsk tumanidagi birodarlik qabristonida urush qahramonlari yodgorligiga leytenant Azimjon Nosirovich Odilovning ismi-sharifi O‘zbekistonlik 150 jangchi nomlari qatorida zarhal harflar bilan

Tayanch soʻzlar: *oʻqidi, koʻrsatmoq, tutgin, ajratdi, qaytmadi, yozib qoʻyilgan, halok boʻlgan, yoʻqotdim, ketdi, yozgan.*

193-topshiriq. Matnni oʻzbek tiliga tarjima qiling.

Хиросима

Хиросима- горе всего человечества, а недалёкая чужая беда. Когда я увидел этот город, я позабыл всё, что видел, вспомнил всё, что пережил. Словно младшие, которые встают, уступая место, когда входят старшие, так и мои прежние чувства уступили место гнетущему чувству боли и сострадания к трагедии Хиросимы. Чувство всё ещё настолько волнует меня, что сосредоточиться и передать свою боль поэтическим словом.

Народы мира клянутся, что не повторится трагедия Хиросимы.

194-topshiriq. Kichik matnlarni oʻqing.

Ibrohim Moʻminov

Ibrohim Moʻminovich Moʻminov – faylasuf olim. Oʻzbekistonda falsafa fanining asoschilaridan biri.

U 1908 – yilda tugʻilgan. 1931 – yilda Samarqand pedagogika akademiyasini tamomlagan.

1956 – yilda Oʻzbekiston Fanlar akademiyasining vitse – prezidenti boʻlgan. Falsafa fanidan juda koʻp kitoblar yozgan. 1970 – yilda vafot etgan.

Qori Niyoziy

Toshmuhammad Niyozovich Qori Niyoziy 1897 – yilda Xoʻjand shahrida tugʻilgan. U avval Xoʻjandda eski maktabda, Fargʻona rus-tuzem maktabida oʻqidi. 1911-1915 – yilda Peterburgdagi “Круг самообразования” da sirtdan oʻqidi.

Qori Niyoziy 1926 – yilda SAGUning fizika-matematika fakultetiga oʻqishga kirdi. 1931 – 1933- yillarda u universitetning rektori boʻldi. Ulugʻ olim Qori Niyoziy 1939 – yildan to umrining oxirigacha Toshkent Irrigatsiya va qishloq xoʻjaligini mexanizatsiyalash institutida matematika kafedrasiga boshchilik qilgan. Oʻzbek olimi, davlat va jamoat arbobi, fizika – matematika fanlari doktori, akademik Qori Niyoziy 1970 – yil 18-martda Toshkentda vafot etgan.



Yunus Rajabiy

O'zbekistonda maqom maktabini yaratgan madaniyat arbobi, O'zbekiston xalq artisti Yunus Rajabiy 1897 – yilda Toshkentning Chaqar mahallasida bog'bon oilasida dunyoga kelgan.

1919 – yili Toshkentda ochilgan Xalq konservatoriyasi milliy musiqa bo'limiga kirib o'qigan.

1959 – yilda O'zbekiston televidenie va Radio eshittirish qo'mitasi huzurida professional maqomchilar ansamblini tuzgan va unga boshchilik qilgan. “O'zbek xalq qo'shiqlari ”nomli besh jildlik kitob yozgan. Unda Toshkent – Farg'ona maqom yo'llari, Buxoro “Shoshmaqom” i alohida o'rin egallaydi.

Akademik Yunus Rajabiy 1976 – yilda vafot etgan.

195-topshiriq. Ma'lumot uchun berilgan tushunchalardan foydalanib, quyidagi harakat-holat bildiruvchi so'zlarni to'ldirgan holda gaplar tuzing.

Taqdim etildi, mukofotlandi, sazovor bo'ldi, topshirildi, taqdirlandi, sovrindori bo'ldi, unvon berildi.

Ma'lumot uchun tayanch tushunchalar: sovg'a, mukofot, unvon, ko'krak nishoni, faxriy yorliq, olqishlar, diplom.

Lug'at

Yurtimiz tabiati – природа нашей страны

Tabiiy boyliklar – природные богатства

Suv tanqisligi – нехватка воды, дефицит

Poliz mahsulotlari - бахчевые культуры

Tabiyatni asramoq – беречь природу

Milliy boyliklar – национальные богатства


Tabiiy ofatlar – природные бедствия

Isrof qilmaslik – экономить – не трать без полезно

Hayvonot olami – мир животных

O'simliklar dunyosi – мир растений

196-topshiriq. Quyidagi soʻzlarga mos tushunchalarni keltiring va ulardan foydalangan holda gaplar tuzing.(taxminiy variant)



197-topshiriq. Maqollarni oʻqing va ularning maʼnosini izohlab bering

Elda yurgan –el tanir
 Qirda yurgan yer tanir.
 Xalqqa suyansang –boʻlasan, xalqdan chiqsang soʻlasan.
 El bilan boʻlgan –yutar, eldan ajragan-netar?!
 Elga boqqan – yerga boqmas,
 koʻkka boqqan – elga yoqmas..
 Intilgan elga yoqar.
 Eldan ayrilguncha, jondan ayril!
 El kuyunganda kuyungan botir-
 El suyunganda suyungan botir.

Mavzuni mustahkamlash uchun beriladigan savollar:

1. “Mardlik” deganda nimani tushunasiz?
2. “Qahramon” deganda kimni tushunasiz?
3. Vatanning ozodligi va mustaqilligi uchun o‘z jonini qurbon qilgan o‘zbek xalqi qahramonlaridan kimlarni bilasiz?
4. Ularning jasorati haqida so‘zlab bering.
5. Ayol qahramonlardan kimlarni bilasiz?
6. Vatanining ravnaqi yo‘lida tinmay mehnat qilgan fidoyi insonlardan kimlarni bilasiz?
7. Mustaqillik yillarida xalq qahramonlarining nomini abadiylashtirish maqsadida qilinayotgan ishlar haqida so‘zlab bering.
8. Xalqning asl farzandi qanday bo‘lishi kerak?
9. “Shahidlar xiyoboni” qayerda joylashgan?
10. “Shahidlar xiyoboni”, “Xotira maydoni” kimning tashabbusi bilan barpo etildi? Nima uchun?
11. Qataog‘on yillari qurbonlaridan kimlarni bilasiz? Nima sababdan ularni qatl etishgan?
12. Ikkinchi jahon urushida shahid ketgan o‘zbek qahramonlaridan kimlarni bilasiz?
13. Siz “Shahidlar xiyoboni” da bo‘lganmisiz? U yerdan olgan taassurotlaringiz haqida so‘zlab bering.
14. Sizning shahringizda ham shahidlarga atab barpo etilgan maydon yoki yodgorliklar bormi?
15. Sizning oilangizda ham jahon urush qatnashchilari bo‘lganmi? Ular haqida so‘zlab bering.
16. El e‘zoziga qanday insonlar sazovor bo‘lishi mumkin?
17. El e‘zozlagan kishilarning qaysi xislatlari o‘zbek xalqi uchun namuna bo‘lishi mumkin?
18. Inson qadr-qimmat, e‘tibor va hurmat, izzatga sazovor bo‘lishi uchun hayotini qanday o‘tkazishi lozim?
19. “El nazaridan qolma” degan iboraga qanday qaraysiz?
20. Mutaxassisligingizga oid bo‘lgan el e‘zozlagan insonlardan kimlarni bilasiz va bunday sharafiga erishishga ularning xizmati nimada deb o‘ylaysiz?
21. Bu kishilarning nomlarini mangu qoldirish borasida qanday ishlar qilingan?
22. “Elim deb, yurtim deb yonib yashash kerak” degan g‘oyani siz qanday izohlaysiz?

Фойдаланиладиган адабиётлар

Асосий адабиётлар

I. Ўзбекистон Республикаси Қонунлари.

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. – Т.: Ўзбекистон, 2008
2. Ўзбекистон Республикасининг “Кадрларни тайёрлаш Миллий дастури тўғрисида”ги Қонуни. Тошкент, 1997
3. “Ўзбекистон Республикаси давлат тили тўғрисида”ги Қонун, Тошкент, 1989 й. 22 октябрь.
4. Расулов Р., Миразизов А. Ўзбек тили . Дарслик. -Т.: Фан ва технология, 2006. - 200 б.
5. Азизов О. ва б. Ўзбек ва рус тилларининг қиёсий грамматикаси. Дарслик. - Т.: Ўқитувчи, 2007. - 160 б.
6. Қаюмов Х., Асранов С., “Ишбилармон ўзбек тили” курсидан ўқув-услубий мажмуа.- Т.: 2007. - 195 б.
7. Қаюмов Х., Асранов С., “Ўзбек ишбилармонлик тили” курсидан таълим технологияси. -Т.: 2007. - 200 б.
8. Рафиев А., Маҳмудов Н., Йўлдошев И. Давлат тилида иш юритиш.- Т.: Чўлпон, 2009. - 206 б.
9. Файзуллаева Ш. ва бошқалар “Ўзбек тили” курси бўйича таълим технология. -Т.: 2010. - 130 б.
10. Файзуллаева Ш., Азимова Х., Қаюмов Х. “Ўзбек тили” фанидан ўқув- услубий мажмуа. -Т.: 2010. - 368 б.

II. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармон ва Қарорлари

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Бевосита чет эл хусусий капиталларини жалб қилишни рағбатлантириш бўйича қўшимча чоралар тўғрисида”ги Фармони. “Халқ сўзи” 12.04.2005
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикаси Олий таълим муассасаларига 2005-2006 ўқув йилида қабул қилиш тўғрисида”ги Қарори “Правда востока” 03.06.2005
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Аҳоли ва ҳудудларни ҳимоялаш борасидаги тезкор чоралар тўғрисида” ги Қарори. “Халқ сўзи” 10.02.2006
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йилда ижтимоий-сиёсий ривожлантириш якунлари ва 2007 йилда иқтисодий ислохотларни чуқурлаштиришнинг энг муҳим устуворлигига

бағишланган 2007 йил 19 февралдаги Вазирлар Маҳкамасидаги”Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан изчил ҳаракат қилиш,халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш-асосий вазифамиздир“Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси ва Президент Девонининг “Ўзбекистон мустақиллигининг 16 йиллиги мустақил тараққиёт йўли” мавзусидаги маърузаси,“Халқ сўзи” 31.08.2007.

III. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари

1. Олий таълимнинг Давлат стандарти. Асосий қоидалар. Вазирлар Маҳкамасининг 2001 йил 16 августдаги 303 – Қарори билан тасдиқланган Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси Қарорлари тўплами 2001 йил. 104 – банд.

IV. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.А. Каримовнинг асарлари

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлиси Сенати бешинчи пленуми йиғилишидаги сўзи. “Мамлакатнинг қонун чиқарувчи базасини мустаҳкамлаш — фаолиятимизнинг асосий мезони” “Халқ сўзи” 25.02.2006

2. Ўзбекистон демократик ривожланишнинг янги босқичида. Т.: Ўзбекистон 2005

3. Ўзбекистон 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли. “Халқ сўзи” 2007 йил 31 август.

4. Каримов И.А. Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари /И.А.Каримов. – Т: Ўзбекистон, 2009.– 56.

5. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ислон Каримовнинг “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқироzi, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишининг йўллари ва чоралари” номли асарини ўрганиш бўйича қўлланма. Тузувчилар: Б.Ю.Ходиев А.Ш.Бекмуродов, У.В.Ғофуров, Б.К.Тухлиев. – Т.: Иқтисодиёт, 2009. – 120 б.

6. Янгиланиш ва барқарор тараққиёт йўлидан янада изчил ҳаракат қилиш, халқимиз учун фаровон турмуш шароити яратиш- асосий вазифамиздир. “Халқ сўзи”, 2007 йил 13 февраль.

7. Инсон маънфатлари устуворлигини таъминлаш- барча ислохот ваўзгаришлармизнинг бош мақсадидир. “Халқ сўзи” 2008 йил 9 февраль.

8. Ватанимизнинг босқичма-босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш- бизнинг олий мақсадимиздир. “Халқ сўзи” 2008 йил 6 декабрь
9. Ўзбекистон Республикаси Президенти И.Каримовнинг Навоий ва Тошкент вилоятлари кенгашларининг сессияларида сўзлаган нутқлари. “Халқ сўзи” 2008 йил 13 ва 18 декабрь.
10. Юксак маънавият –енгилмас куч. Тошкент “Маънавият”, 2008 йил.
11. Энг асосий мезон-ҳаёт ҳақиқатини акс эттириш. Тошкент, – “Ўзбекистон”-2009 й.

Қўшимча адабиётлар

VI. Дарсликлар

1. Ғ.Абдурахмонов Ўзбек тили ва адабиёти, дарслик, 2002
2. З.Маҳмудова, С.Шокирова, К. Шайхова Ўзбек тили, 2005

VII. Ўқув қўлланмалари.

1. Ю Азизхонова, Р. Толипова O'zbek tili, ўқув қўлланма, 2000
2. А.Рафиев Ўзбек тили, машқлар тўплами, ТДИУ, 2003
3. А.Ҳожиев “Ҳозирги ўзбек тили фаол сўзларининг изоҳли луғати”, 2001
4. Маҳмудова, Г.Усмонова Ўзбек тили, ўқув қўлланма, 2002
5. Ҳожиев А. “Тилшунослик терминлари изоҳли луғати” Тошкент. Ўзбек миллий энциклопедия. 2002 й.
6. “Ўзбек тилининг имло луғати” Раҳматуллаев.Т. Ўқитувчи 2003 й.
7. Қаюмов Ҳ.М., Асранов С.А., “Ишбилармон ўзбек тили” курсидан таълим технологияси “Тошкент 2007 й”.
8. Қаюмов Ҳ.М., Асранов С.А.. “Ишбилармон ўзбек тили” курсидан ўқув – мажмуа. Тошкент 2007 й.
9. Талабалар нутқини ривожлантириш бўйича мустақил ишлар тўплами. И.А.Каримовнинг “Жаҳон молиявий-иқтисодий инқирози, Ўзбекистон шароитида уни бартараф этишнинг йўллари ва чоралари” асари асосида. ТДИУ 2009 й.

VIII. Илмий монографиялар, мақолалар ва бошқа материаллар

- 1.Ризаев С.М. Проблемы лингвостатистики в узбекском языкознании и пути их решения. Т.: ТГЭУ, 2006

IX. Докторлик ва номзодлик диссертациялар

1. М.Н. Камалова Академик лицейларда ўқийдиган рус тили ўқувчиларни ўзбек нутқий этикетига ўргатиш, Тошкент, 2006

X. Илмий–амалий анжуманлар материаллари

1. “Олий ўқув юртларида тил ва адабиётга ўқитишнинг назарий ва амалий жиҳатлари” конференцияси материаллари, ТДҲИ, Тошкент 2005
2. Бекмурадов А.Ш. Иқтисодий таълимни узлуксиз ривожлантириш концепцияси. Акад. С.С. Ғуломов таҳрири остида ТДИУ, Тошкент 2004
3. Мухитдинов М.М. Илмий ва илмий-педагогик кадрларни аттестациялаш. Тошкент 2004 Эришилган ютуқларни мустахкамлаб, янги марралар сари изчил ҳаракат қилишимиз лозим “Халқ сўзи”, 2006 йил 11 февраль.

XI. Газеталар, журналлар ва луғатлар

1. “Ўзбек тили ва адабиёти”. Журнал
2. “Филология масалалари”. Журнал
3. “Ўзбекистон адабиёти ва санъати”. Газета
4. “Тил ва адабиёт таълими”. Журнал
5. “Маърифат”. Газета
6. Рус – ўзбек луғати. 1-2 тт, “Ўқитувчи” нашр. Т.: 2005
7. “Иқтисодчи”. Газета. ТДИУ, Тошкент
8. Ҳожиёв А., “Тилшунослик терминларининг изохли луғати”. Т.: Ўзбек миллий энциклопедияси, 2002
9. Н. Муродова, “Ўзбек адабий тили ва шевадар лексикасининг қиёсий таҳлили”
10. Раҳматуллаева “Ўзбек тилининг имло луғати”. Т.: Ўқитувчи, 2003

XII. Статистик тўпламлар

1. Ризаев С.М. Проблемы лингвостатистики в узбекском языкознании и пути их решения. Т.: ТГЭУ, 2006.

XIII. Интернет–сайтлар.

1. <http://www.spravka.gramota.ru/blang.html?id=166>;
2. <http://www.neuch.ru/referat/9119.shtml>;
3. http://www.bereg.ru/sprav_info/den_ed.shtml;

4. http://www.potrebitel.ru/newweb/?go=artikle&cid=41&num_id=15&mag_id).
5. www.gramota.ru.

XIV. Электрон дарслик ва ўқув қўлланмалар

1. Русский язык. Авторский коллектив кафедры русского языка ТГЭУ. Т.: ТГЭУ, 2006.

MUNDARIJA

Soʻz boshi.....	3
Til - ma'naviyat koʻzgusi	
Oʻzbek tilida nutq tovushlari.Urgʻu, ohang.....	4
Oʻzbekiston yagona Vatan	
Makon munosabatlarining ifodalanishi.....	26
Universitetim bilan faxrlanaman	
Obʻyekt munosabatlarining ifodalanishi.....	35
Inson va jamiyat	
Maqsad munosabatlarining ifodalanishi.....	47
Milliy qadriyatlar eʼzoi	
Aniqlovchi va aniqlanmish munosabatlarining ifodalanishi.....	58
Tarix va zamonamiz	
Zamon munosabatlarining ifodalanishi.....	77
Adabiyot va sanʼat- maʼnaviyat oʻchogʻi	
Oʻzbek tili leksikasi.....	87
Kelajak yoshlar qoʻlida	
Shart munosabatlarining ifodalanishi.....	97
Inson va tabiat	
Sabab-oqibat munosabatlarining ifodalanishi.....	107
Qahramonlar unutilmaydi	
Harakat -holat munosabatlarining Ifodalanishi.....	119
Foydalanilgan adabiyotlar.....	131

ОГЛАВЛЕНИЕ

Предисловие	
Язык- зеркало культуры	
<i>Звуки речи узбекского языка. Ударение, интонация.....</i>	
Узбекистан-Родина моя	
<i>Выражение пространственных отношений.....</i>	
Университет- моя гордость	
<i>Выражение объектных отношений.....</i>	
Человек и общество	
<i>Выражение целевых отношений.....</i>	
Уважение национальных ценностей	
<i>Выражение определительных отношений.....</i>	
История и современность	
<i>Выражение временных отношений.....</i>	
Искусство и литература-основа духовности	
<i>Лексика узбекского языка.....</i>	
Молодёжь–наше будущее	
<i>Выражение условных отношений.....</i>	
Человек и природа	
<i>Выражение причинно-следственных отношений.....</i>	
Никто не забыт, ничто не забыто	
<i>Выражение действия.....</i>	
Использованная литература	

CONTENTS

Foreword	3
Language is the mirror of culture	
Sound of the speech in the Uzbek language. Accent and inflexion.....	4
Uzbekistan - my home land	
Expressing spatial relationships.....	26
I am proud of my university	
Expressing objective relationships.....	35
People and the community	
Expressing purposeful relationships.....	47
Respecting national values	
Expressing attributive relationships.....	58
History and the present	
Expressing time relationships.....	77
Art and Literature is the base of spirituality	
Vocabulary of the Uzbek language.....	87
The future is in the hands of the youth	
Expressing conditional relationships.....	97
People and the nature	
Expressing cause-and-effect relationships.....	107
Heroes are not forgotten	
Expressing action.....	119
Literatura	131